



**«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK kompaniyasi  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT — 2006**



***AFANDINING  
QIRQ BIR  
PASHSHASI***

***Qissa***

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT — 2006

## **Muallifdan**

*Nasriddin Afandining hangomalari jahon bo'ylab keng tarqalgan bo'lib, mazmun va mantiq jihatidan turlichadir. Ularning aksariyatida Nasriddin Afandi o'zining aqli, zukko va topqirligi, kulgisi bilan zamona zo'rlarining, firibgarlarning haqiqiy basharasini ochadi, ularni yengadi, yakson qiladi. Ammo ba'zi bir latifalarda Nasriddin o'ta laqma, hattoki, firibgar sifatida talqin qilinadi.*

*Xo'sh, aslida Nasriddinimiz qanday odam bo'lgan? Hech shubha yo'qki, u o'qimishli, aqlli, tadbirkor, topqir, tegirmonga tushsa butun chiqadigan haqiqatparvar, kambag'alparvar odam edi. Uning sarguzashtlari, hikoyalari xuddi mana shu sababdan ham asrlardan-asrlarga o'tib kelmoqda. Hayot ham, xalq ham g'oliblarni xush ko'radi.*

*Nasriddin Afandi haqida turli tillarda kitoblar bor. Nega endi u haqda o'z ona tilida shunday kitob yozilmasligi kerak?*

*Ushbu asarni yozish istagi ham menda ana shu andisha yo'lida tug'ilgandi. Uni qanday baholash esa sizlarning hukmingizda.*

### **A'lam, Zohir.**

Afandining qirq bir pashshasi: Qissa. — T.: «Sharq», 2006. — 160 b.

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati, 2006.

**TUSH**

**L**aylak qishlog‘ining eng katta boyi Muhsin guppi yotsa ham, tursa ham yeriga yer qo‘shishni o‘ylardi. Yana bir orzusi dono va hozirjavob odam sifatida dov-rug‘ taratish edi.

Shu sababli oldiga Nasriddin Afandi kelib, sizda mas-lahatim bor, deganida, sevinganidan o‘yinga tushib ket-gudek bo‘ldi. Bu paytda Muhsinboy ko‘cha eshigi oldi-dagi supada, sadaqayrag‘ochning ostida yonboshlagani-cha ariq suvining hovuzga quyilishini tomosha qilib yotardi.

— Xo‘sh, xo‘sh, — dedi u dik etib turib, salom-alik-dan so‘ng Nasriddin Afandini o‘tirishga taklif etarkan.

— Bilasizmi, mulla aka, — gap boshladi Nasriddin, «mulla aka»ning Muhsin guppiga moydek yoqishini bilib, — men bugun tush ko‘rdim.

— Xo‘sh, xo‘sh? — Muhsin guppi unga bir piyola choy uzatdi.

— Tushimga otam rahmatli kiribdilar. «Nasriddin-boy», — dedilar menga qarab. «Labbay, ota», — dedim men. «Bog‘ingdan uch-to‘rt qadam yuqoriroqda odamdek keladigan chorak qismi yerga ko‘milgan eski xum bor. Qishlog‘ingdan uch-to‘rt bechorani topgin, uni suvga to‘ldirishsin. Xumga eng oxirgi chelak suvni quy-gan odamga bog‘ingning yarmini xatlab berasan», dedi-lar.

— Iya, xudoyo tavba qildim! — dedi Muhsin guppi sevinchdan gupillab ketgan yuragini bazo‘r tinchitib.

— Taqdir ekan, qanday qilay? — dedi Nasriddin Afandi bechorahol qiyofada.

— Ha, endi tushga har balo ham kiraveradi-da, — dedi Muhsin guppi yupatgandek bo‘lib, — bo‘lmag‘ur narsa uchun hayhotdek bog‘ning yarmidan ajralib o‘tira-sizmi?



— Yo‘q, — dedi Nasriddin qat‘iylik bilan. — Otam rahmatlini tirikliklarida so‘zlarini ikki qilmasdim, endi ruhlari ozor cheksinmi?

— Ofarin! Ofarin! — Muhsin guppi ham sevinchdan, ham hovlidan quruq qolish vahimasidan bir turib yana o‘tirdi. — Balli! Yashang! — bu olqishini boyagidan ancha xotirjam aytdi. Chunki darrov reja tuzishga sho‘ng‘ib, ko‘zlari sovuq yiltiray boshlagandi.

— Xo‘sh, — Nasriddin gapning kashtasini yanada gajakdorroq qildi. — Qoshingizga kelishimning boisi, mulla Muhsin aka, siz qishloqning ipidan ignasigacha biladigan, obro‘li odamisiz. Men esa yangiman. Xo‘sh, shu xumni to‘ldiradigan odamni qaerdan topaman? Menga birov ishonarmidi... Ikkinchi tomondan, juda shov-shuv qilishning ham tarafdori emasman. Otamning aytganlarini bajarib, ko‘nglimni xotirjam qilsam bas.

— Juda yaxshi kelibsiz!.. — dedi-yu, shu gapidan so‘ng Muhsin guppini qattiq yo‘tal tutdi. Aslida bu yo‘tal emas, sevinchdan otilib chiqayotgan kulgisini xaspo‘shlovchi soxtalik edi. Mana, Nasriddinning o‘zi unga boqqa egalik qilishning yo‘lini ko‘rsatib berdi. — Juda to‘g‘ri va oqilona yo‘l, — deya Muhsin guppi ko‘z-yoshlarini arttdi. — Ovoza qilish shart emas. Bu savob ishingizni o‘zim uddalab beraman. Gah, desam qo‘limga qo‘nadigan ikkita odamim bor. Bechoralar juda kambag‘al. Aytaman, o‘zim boshida turib, bajarib beraman. A?

— Bo‘pti, men rozi! Rahmat sizga! — Nasriddin o‘r-nidan turdi. — Bo‘lmasa, ishni bugundan qoldirmaylik, mulla aka. Yana otamning arvohi urib yurmasin meni, kechasi tushimga kirib.

— Juda yaxshi! — Muhsin sevinchdan qafasdagi qushday potirloyotgan yuragini qo‘li bilan bosdi.

Nasriddin ketish taraddudida eshagi tomon yurdi-yu, ilkis to‘xtadi:

— Ha, aytmoqchi! — dedi u bir narsani hozirgina eslagandek. — Boyagi otam aytgan xumlari hech qachon bog‘da turmasdi. Ertalab uyg‘onib qaragam, xuddi aytganlaridek, bog‘ning o‘rtasida chorak bo‘yi ko‘milib, tippa-tik turibdi!



— Yo, tavba! — Muhsin yoqa ushladi.

Nasriddin Afandi eshagiga mindi-da, iltijo qildi:

— Kutaman, mulla aka, xudo xayringizni bersin, shu ishimni tezroq bitirshga yordam bering!

Nasriddin ketdi. Muhsin guppi sal uzoqlashini kutib turdi-da, sevinganidan baqirib yubordi:

— Tursunali! Alimsho!

Ichkaridan uzun-qisqa bo‘lib ikki kishi yugurib chiqdi.

— Tez! Uchta obkash bilan sakkizta paqir olib chiq-laring! — buyurdi ularga guppi.

Biz hikoya qilayotgan voqealar taxminan 1210 yil-larga to‘g‘ri kelar, bu paytlarda biz hozir O‘rta Osiyo deb ataydigan Turon yerlarining bir yog‘i Hindiston, ikkinchi yog‘i Taroz<sup>1</sup>, bir yog‘i Kavkaz va Kichik Osiyo-yu ikkinchi yog‘i Arabistongacha bo‘lgan kattakon Xorazm shahanshohligiga kirardi.

Nasriddin Afandi o‘zining hozirjavob va donoligi bilan o‘ttiz yoshlaridayoq ana shu katta shohlik mulki-ning boshidan oxirigacha dong‘i ketgandi. Uni shohdan gadogacha hamma tanirdi. Ichak uzdi askiyalari, aql va so‘z bobida zukkoligi shon-shuhratini zamona shohlari va sarkardalari qatoriga olib chiqib qo‘ygandi. Maj-buriyat tufayli Nasriddin Afandi Muhammad Xorazm-shoh saroyida bir necha muddat o‘ralashib yurib, haq so‘zlari bilan u yerdan o‘ziga dushmanlar orttirdi. Nati-jada, bir bahona topib saroydan uzoqlashmasa holi tang-lashajagini sezib qoldi. Ittifoqo, shu kezlarda olis Choch<sup>2</sup> viloyatidan, bobosining singlisidan maktub keldi va Nas-riddin hech kimga bildirmay, ko‘ch-ko‘ronini ko‘tarib Chochga jo‘nab qoldi.

Buvi xolasi esa ana shu Laylak qishlog‘ida istiqomat qilardi. Xatida kampirsho, ikkala o‘g‘lining Oyboqqa<sup>3</sup> navkar yollanganini, Oyboq Hindistonga noib etib tayin-langach, onalarini unutib, amirning ketidan ketganlarini, oxirgi xatlaridan keyin bir muchal vaqt o‘tganini yoz-

<sup>1</sup> Taroz — hozirgi Jambul shahri.

<sup>2</sup> Choch — Toshkent.

<sup>3</sup> Qutbiddin Oyboq — Muhhamad Xorazmshoxning Hindistondagi noibi.

gandi. Sevimli akasining nabirasi bo'lmish Nasriddin bilan o'z farzandlaridan ko'ra qo'proq faxrlanishini, bir ko'rishga orzumand ekanligini eslatgandi.

O'zining olti tanob bog'i bilan qo'rg'onini Nasriddinga meros qilib xatlab qo'ygani, hushiga kelsa shu yerga kelib yashashi mumkinligini, aks holda, o'zi o'lgandan keyin qo'rg'onni sotadigan va pulni Nasriddinga yuboradigan odam tayinlab qo'ygani ham ta'kidlagandi.

Xullas, Nasriddin ana shu buvi xolasining uyiga ko'chib yashayotganiga bir yildan ancha oshgan edi. To'qson uch yoshga borgan buvi xola, go'yoki Nasriddinni kutib yurgandek, uch-to'rt oy birga yashab, o'riklar qiyg'os gullagan, oftob charaqlab turgan bahor kunlarining birida, ayvondagi ko'rpacha va bolishlar ustida bog'iga jilmayib qarab o'tirib, olamdan o'tdi.

Nasriddin Afandi Muhsin guppiga tushini aytib kelganda kampirning yili o'tganiga uch-to'rt oy to'lgandi.

Muhsin guppi o'zining Tursunali degan devqomat korandasi va Alimsho degan yugurdagi bilan uchta obkash, sakkizta chelak ko'tarib tezda Nasriddinnikiga yetib kelishdi. Yoz boshining kuchga to'lgan quyoshi ancha tikkalashib, dehqon va korandalarni soya-salqinga hayday boshlagandi. Shunga qaramay, boqqa boshqa birov ega chiqib qolishidan qo'rqqan Muhsin guppi ishni kechiktirmaslikka qaror qildi.

Bu yil qurg'oqroq keldi. Ikki yuz qadamlarcha nari-dagi katta ariqda suv jildirab qolgandi.


Muhsin guppi malaylari bilan bir-ikki marta borib kelishdayoq qora terga botdi. Harholda, birinchi sakkiz chelak suvni ag'darishgandayoq xumning yarmidan pastrog'igacha keldi. Ikki-uch qatnashda xumning to'lishi aniq edi. Muhsin guppining kayfi shunchalik chog', boshi osmonda.

U bo'sh chelak-la oldinda ketar, to'ldirib qaytishganda hizmatkorlarining orqasidan kelib suv ag'darishlarini kuzatib turardi. Xudo ko'rsatmasin, ularning chelagi oxirgi bo'lib qolishi mumkin edi-da!

Ikki karra qatnaganida xumning to'lishiga uch-to'rt chelak kifoya ekanligi sezildi. Shunday bo'lsa-da,







Muhsin guppi boshchiligida shotirlari sakkiz chelakning barini ko'tarib ketishdi.

Nasriddin Afandi eshagiga yarim chordana qurib o'tirgancha ularning ishini kuzatardi. Boqqa umidvor bo'lganlar qaro terga botib uchinchi karra qaytib kelishganda, u eshagidan tushdi.

— E yashanglar! — dedi xumga yaqinlashib. Uning bu xitobi va betoqatlik bilan eshakdan tushib kelganidan otasining tushda tayinlaganini tezroq bajarib, bog'ning yarmidan qutulmoqchiligi ko'rinib turardi.

Birinchi yetib kelgan Tursunali bir chelagini ag'darib ikkinchisiga chog'langanda orqada qolgan guppi unga baqirdi.

— To'xta!

Muhsin guppi halloslab keldi-da, gapini qaytardi.

— To'xta. Bir ko'ray qancha qoldiykin.

U shunday deb xumning ichiga mo'raladi-yu. Nasriddinga sarosar ko'z tikdi:

— Sal kamayib qolibdimi? Yo menga shunday ko'ri-nayaptimi?

— Qanaqasiga kamayadi?— dedi Tursunali shang'il-lab. — E, mulla aka, ag'daraveraylik. Juda zo'r kelsa bir marta yana borib kelamiz-da!

— Qayoqqa kamayadi?!

Nasriddin ham Tursunalining gapini tasdiqlarkan, xumga mo'raladi:

— Ha, bu o'zi katta xum-da! Haybatini qarang!

— Ha, shundaymi?!

Muhsin guppi xumning kattaligiga ham, boyagina to'lib qoldi, deb aldanganiga ham ishondi.

Shu kayfiyatda suv tashuvchilar yana ikki karra qat-nashdi. Xum esa o'sha ahvolda edi. Ya'ni, to'lishiga uch-to'rt chelak yetarlidek tuyulardi-yu, o'zidan o'zi yarimlashib qolaverardi.

— Bu nima degan gap?! — Muhsin guppi shubhaga bordi. Bu shubhasi xumga taalluqliligi ayon edi. Nasriddin Afandini hali ham xumning tezroq to'lishidan manfaatdor deb bilardi.

Nasriddin Afandi ham ko'zlarini baqraytirib, nima deyishni bilmay turdi-da, kelib xumni ushlab qimirlat-

moqchi bo'ldi. Xum qimir etmadi. Nasriddin xumning tubiga, ichiga qaradi.

— Bu palakat nima qilyapti o'zi?— jig'ibiyroni chiqdi, xumni beozor tepdi. — Hali otamni go'rida tikka turg'izmasaydi!

Oraga jimlik cho'kdi. Uchala qora terga tushgan «suvchi»lar va Nasriddin Afandi hech narsaga tushunmay bir-birlariga anqayishdi. Jazirama issiq kun ham o'zining shabadasi, olislardan kelayotgan qushlar sayrog'i, xullas, jamiki harakat va ovozlari bilan birga hayronlikka qo'shilgandi. Nimanidir kurt-kurt chaynab, eshakkina buzayotgan jimlikda guppi bilan malaylaridan oqayotgan ter ham jildirab ovoz chiqarayotganga o'xshardi.

— Topdim! — dedi Nasriddin Afandi. — Buning tagida darz ketgan joyi bo'lsa suv o'shandan sizib ketayotgandir?

Bog'ning yarmi oftob charaqlab turgan joyda bu gapga chalakam-chatti ishonishdi ham.

— Xudo xayringlarni bersin! Ishni o'lda-jo'lda qoldirmanglar! Bu xumparga yana besh-o'n chelak suv ketsa ketar. Otamning vasiyatlarini bajarmasam, huzurhalovatimdan tamom ayrilaman!

Muhsin guppi bu gaplarni ma'qulladi.

— Qani ko'tarlaring! — dedi chelaklarga ishora qilib.

— Ha, shunday qilinglar! — tasdiqladi Nasriddin. — O'zi menga olti tanob bog'ning nima keragi bor? Yarmi ham yetib ortadi. Otam rahmatlik shuni bilgan-da!

Suv tashuvchilar yana uch-to'rt karra borib kelishdi. Lekin xum o'sha-o'sha: to'lishiga uch-to'rt chelak qolar va yana suv pasayib ketardi.

Nasriddin tag'in bir karra yalinib-yolvorib otasining ruhini chirqiratmaslikka guppini ko'ndirdi. Keyingi safar guppining o'zi bu yerda qandaydir nayrang borligini sezdi. Sharmandayi sharmisor bo'lganini orqaga surish uchun ham jahl ustida yana besh martacha shotirlari boshchiligida qatnadi. Shunday qilib xumga taxminan ikki yuz chelaklar suv ag'darildi.

Nihoyat guppi portladi. Bo'sh chelakni daranglatib yerga urdi-da, yig'lagudek baqira ketdi:

— Men sizg‘a nima yomonlik qilgan edim, a? Nima yomonlik qildim?!

Nasriddin ham achinganidan yig‘lagudek bo‘lib o‘zini oqladi:

— Menda ayb yo‘q! Menda ayb yo‘q!

— E, qoching-e! — Muhsin gupi qo‘l siltab nari ketayotib ortiga o‘girildi. — Sizning nomingizni eshiti-boq hurmat qilgandim. Mana shunaqa fisq-fasodligingiz uchun Urganchdan haydashganini endi bildim. To‘g‘ri qilishgan! To‘g‘rilikcha suv so‘rasangiz bermasmidim?

Muhsin guppi keta boshladi. Nasriddin gunohkorona gap qotdi:

— Bu padarla‘nat xumni bunchalik to‘ymasligini men qaydan bilibman?

Muhsin guppi nariroq borib:

— Suf-e, sizga! — dedi.

Yana nariroq yurib, shotirlariga baqirdi:

— Paqirlarni olib, yuringlar!

Guppi va odamlari ketishdi. Nasriddinning yuzidagi gunohkorona ifodani jilmayish egalladi. Shu jilmayish bilan asta borib, xumdan to‘rt qadam naridagi devordan bog‘iga mo‘raladi. Undagi polizning va daraxtlarning anchagina qismi sug‘orilgandi.

Nasriddin Afandida ana shunaqa — turib-turib kimnidir ustidan kulish istagi tutib qolardi. Xumga suv to‘ldirish hamda otasining tushiga kirgani bilan bog‘liq voqeaning ildizi esa tubandagicha edi.

Qishloqdagi katta ariq qadimdan qolgan ovoza bo‘yicha Muhsin guppining ota-bobolariga tegishli bo‘lib, undan oqqan suv ancha qiziq bir tarzda taqsimlanardi.

Ya‘ni, yon ariqlarga o‘zidan-o‘zi, hech qanday bog‘lovsiz chiqqan suv hammaniki, bordi-yu, yon ariqlarga suv bog‘lab chiqarilsa. Guppiga haq to‘lanishi kerak edi.

Bu yil esa qurg‘oq kelganidan ko‘p xonadonlar anchagina qiynaldi. Shusiz ham qaram bo‘lgan odamlarni Muhsin guppi yanada ko‘proq qarzga botirdi.

Albatta, hech kimning behuda haq bergisi kelmaydi. Odamlar Guppining ko‘zini shamg‘alat qilib, ekinlarini yashirincha sug‘orib olishlari, o‘qariqqa kim tashlagani

noma'lum kattakon xarsanglarning «o'zidan-o'zi» tushib qolishlari tez-tez takrorlanib turardi. Shunda Gupping baqirib so'kinganlari butun atrof-tumonatga taralardi.

Nasriddin Afandining qitmirlilik qilishiga sabab ham ana shu, kunda bo'lmasayam kunora eshitiladigan vag'il-lab so'kishlar edi.

Muhsin gupping chelaklab suv tashiganini asta-sekin butun qishloq eshitdi.

Yo'q, Nasriddin Afandi Guppi bir zambil loy qilgani haqida jar solmadi. Aksincha, so'ragan qo'ni-qo'shnilarga xumni necha chelak suv bilan to'lishiga bahs bog'lashandik, deb javob berdi.

Odamlar Gupping suv tashiganini eshitishgandi-yu, buning asl sababini bilishmasdi. Lekin noma'lum ildizida shunday gaplar to'qildiki, Guppi uchun bu aslidan ham sharmandaliroq edi. Ayniqsa, Guppi donishmandlikdan dars olayotganmish, evaziga endi har oyda Nasriddin Afandining bog'ini chelaklab sug'orib berarmish, degani yomon edi. Zeroki, Guppi o'zini zukko va donishmand deb hisoblar va o'ziga ishonchi zo'r edi.

## ***QASOSNING YO'LI TOPILDI***

**M**uhsin guppi bir oylarcha vaqtini qasos olish orzusi bilan o'tkazdi. O'ziga yarasha aqli, achchiq tilli Guppi qasosi — mazax qiladigan, zaharni zahar bilan kesadigan bo'lishi lozimligini yaxshi tushunardi. O'ylay-o'ylay yo'lini topdi.

Nasriddin Afandi bolari boqardi. Guppi so'rab-surishtirib, uning yaqin kunlarda asalni ikki xum qilib bozorga olib tushmoqchiligini bildi. Ana shu ikki xum asal ustida Nasriddinni qo'lga tushirishni niyat qildi. Puxtalab reja tuzdi. Ochig'ini aytish kerakki, agar bu reja amalga ohsa, haqiqatan ham Nasriddin Afandi el orasida qattiq kulgi bo'lardi.

Bugun Guppi o'ylagan qasosning amlaga oshadigan kuni edi.

O'sha, Nasriddin Afandi tushini aytib kelgan kuni-dagidek supada o'tirarkan, rejasining zo'rligidan bir

daqqa tinch turolmasdi. Goh chiroyli yelpig'ichi bilan yelpinar, goh choynakdan bir piyolaga choy quyib, avvalroq quyib sovutilgan ikkinchisini xo'r-xo'r ichardi. Goh yonboshlar, goh dik etib o'tirib olarkan, toqatsizlik bilan poyloqchilikka ketgan Tursunali bilan Alimshoni kutardi.

Navbatdagi turib yana yonboshlashida g'udranib qo'ydi.

— Senga bir ko'rsatib qo'yay kim dono-yu, kim zukkoligini!

Guppi shunday deyishi bilan ariqdagi suvning jildirashi, kuchsiz shabada, chor-atrofdan eshitilayotgan qushlarning sayrog'i birdan zo'raydi. Go'yo hammasi birlashib uning alamini yumshatmoqchi bo'lishdi.

— Yaratganning ishlariga qoyilman, — dedi Guppi beixtiyor atrofdagi go'zallikka maroqlanganicha alanglab, so'ng birdan ovozigaga yana malomat aralashdi.

— Yo'q, qaytib oldim, — dedi u, ariqdagi suvga qo'lini paxsa qilib. — Qoyil emasman!.. Mening mingta qo'yim bor, ming tanob yerim bor, xo'pmi?! — Guppi atrofga bir qarab qo'yib tomoq qirdi-da, yana ariqqa gap so'qdi: — Xo'-o'sh, ha, endi mingta bo'lmasa ham shunga yaqin. Xo'sh?! Nega endi meni atrofimdagi to'rtta qishloqdan narida hech kim tanimaydi-yu, cho'ntagida hemiri bo'lmagan Nasriddin Afandini butun olam taniydi? A?

— Guppi beparvo oqayotgan suvga bir zum o'qraydida, qo'l siltadi.

— E, bor-e, bu — g'irt g'irromlik!

Guppi choydan xo'r-xo'r ichdi-da, qomatini g'oz tikladi.

— Mana bugun, — dedi u yana barmog'ini suvga nuqib, — men bu g'irromlikni tuzataman! Nasriddin Afandiga bir firib berayki, kim aqlli va dono ekanligini ko'rib qo'lasan! Ha. O'sha olamga tanilgan Nasriddinni o'sal qilsam meni hamma gapiradimi? Gapiradi! Qarabsanki, akang qarag'ay butun olamga mashhur-da!

Muhsin guppi ko'kraginging boricha nafas olib yayradi. Kayfi chog' bo'ldi.

— To'g'ri-da! — dedi u yana o'z gapini tasdiqlab. — Menimcha, kim boy bo'lsa — o'sha aqli. Kim aqli bo'lsa — o'sha boy! Bildingmi? — Guppi yana barmog'ini nuqib suvga uqtirdi. — Bilmasang bilib qo'y! Ha! Aqling bo'lmasa, boyluk topib bo'psan!

Shu payt uzoq muyulishda ikki otliq ko'cha changitib yelib kela boshladi. Muhsin gapidan taqqa to'xtadi. Og'zini ochganча kuta boshladi.

Otliqlar yigirma qadamcha narida piyodalandilar. Uzun-qisqa bo'lib, qo'l qovushtirganча unga yaqinlashdilar.

— Xo'sh?

— Yo'lga tushdilar! — deb javob berishdi Tursunali bilan Alimsho cho'chib tushgandek.

— E, padarla'natlar, nega uni sizlaysanlar?! Yo'lga tushdi, demaysanlarmi? Otni olib chiq!

Muhsin guppinig avvalgi gapi ikkala shotiriga, ot haqidagisi Tursunaliga qaratilgandi.

Suyagi buzuq, naynov bu yigit juda baquvvat, lekin qo'rqq edi. Bundan tashqari ko'p ovqat yeyishi bilan qishloqqa tanilgandi. Bir parcha hovlisidan bo'lak yeri bo'lmaganligi uchun boyga xizmatkorlikka o'tgandi. Yolg'iz onasini-ku bir amallardi, ammo o'zining qorni hamisha och yurardi.

— Xo'sh? — dedi Guppi Alimsho bilan birga qol-gach.

— Asalni ikki xumchaga joyladi. Ikki xumchani xurjunning ikki ko'ziga soldi. Xotiniga yangi to'nni olib chiq, degan paytda biz buyoqqa jo'nadik, — dedi Alimsho ming'illagan yumshoq ovozdа.

— Otni olib chiq-ov. Tursunali, qayoqqa gumdon bo'lding? — baqirdi besaranjomlashgan Muhsin guppi uyga qarab.

Alimsho qo'rqa-pisa dasturxondagi uzumga qo'l uzatdi.

— Nihoyat orzuimga yetadigan bo'ldim, — dedi Muhsin guppi uyoqdan-buyoqqa borib kelib.

— Bizning hojatga ham bir qiyo boqsangiz tuzuk edi, boy aka! Shu tushishingizda hattotlar bilan gaplashib, aqchasini qarz qilsangiz...

— Bo'ladi, bo'ladi! — dedi Muhsin Alimshoning gapini kesib. — Lekin bu gal qo'l tegadimi-yo'qmi bilmayman, ammo sening she'rlaringni o'n nusxa ko'chirtirib berish mening zimmamda.

— Ha, ham donishmand, ham shoir chiqsa, qishlog'imizning nomi butun olamga mashhur bo'lardi...— dedi Alimsho so'niq orzu bilan.

— Bo'ladi, bo'ladi, — dedi Muhsin guppi hozircha o'zingni suqmay tur degandek qo'l silkib.

Alimsho aslida o'rta bo'yli edi. Biroq hamisha Guppining yumushida barzangi Tursunali bilan birga yurgani uchun ushoqqina ko'rinardi. Ikki tanob yeri, ikkita bolasi va jindak she'r mashqi bor edi. Hamqishloqlariga ash'or o'qib berganda, turgan gap, maqtoqlar eshitar va bu borada beqiyos sohibi iqtidor ekanligiga ishonib ketgandi. Shu bois dangasalikka berilib, dehqonchiligini tashlab qo'ygandi. Yakka-yu yagona orzusi bir amallab to'ldirgan devonini besh-o'n nusxada shaharlik xattotlarga ko'chirtirib ko'paytirish va saroydagilarga o'qitish edi. Saroyda obro' topib, bironta amalga ega bo'lish edi. O'zini beku boyonlar davrasida gap-gashtaklarda o'tirgan, she'rlari uchun zarbof choponlar, liq to'la hamyonlar tortiq olayotgan hollarda tasavvur qilib yurardi hamisha. Lekin umuman shahar ko'rmagani uchun o'zim yolg'iz borsam yo'qolib qolaman, deb qo'rqardi. Shahar ko'rgan Muh-sin guppiga, ayniqsa, xattotlarni taniyman degan gaplariga va ko'chirtirish uchun pul berishi mumkinligiga uchib, yugurdakka aylanib qolgani shundan.

— Men mashhur bo'lib olay, — dedi Muhsin guppi otni betoqatlik bilan kutib. — Seni ham sudrab olib chiqaman. Qarabsanki, Laylak kelgindi Nasriddin Afandining qishlog'i deb emas, Muhsin boy bilan shoir Alimshoning qishlog'i deb nom qozonadi.

— Ofarin, afandim, ofarin, — dedi ming'illab Alimsho. — Menga muruvvatingiz obro'yingizga obro' qo'shadi.

— To'g'ri aytding! — dedi Muhsinboy, keyin xuddi gapining davomidek qilib ichkariga baqirdi. — Ho'v, Tursunali!

— Labbay, afandim! — Tursunali otni yetaklagancha bir narsa chaynab chiqdi.



— Man tuxumim og‘zimga kelib shoshib turay-da, san uyoqda narsa tiqishtirgin, a? Ochofat!

— Yerga o‘rik to‘kilgan ekan, isrof bo‘lmasin dedim, — Tursunali otni minishga o‘ngararkan, Guppinig dashnomi ta’sir qilmagani yaqqol sezilardi.

— He, tiqilib o‘l!

Muhsin guppi uni beozor yanirkan, otga chaqqon mindi.

— O‘tiringlar, choy ichib olinglar! Hozir sho‘rva opchiqishadi.

Muhsin guppi shunday deb otga qamchi bosdi-da, chang ko‘tarib olisladi.

Alimsho qo‘l qovushtirib uning uzoqlashishini kutdi. Tursunali dasturxondagi nonga yopishdi.

### **ABDI OPPOQ VA AHMAD TARASHA**

**Q**adimgilarning «otang ham bozor, onang ham bozor» degan maqoli narx-navoga nisbatan hamma zamonlarga mos. Biroq maqol yaratilgan paytlarda mazmuni yanada kengroq bo‘lgan: bozor faqat olish-berishda emas, turmushning barcha jabhalarida jonga ora kirgan. Tirikchilik, ko‘ngil ochish, qarindosh-urug‘, oshna-og‘aynilarni uchratish, yangi tanish orttirish, mojaro bilan eskilaridan ajralish — bari aksariyat bozorda ro‘y bergan. Masxarabozlar, dorbozlar shunda jamlanib turfa o‘yinlar ko‘rsatishgan.

Sulhlar, fisq-fasod, fitna-yu nayranglar shu yerda ildiz otgan. Ko‘zga ko‘z tushishidan boshlanuvchi ishqiy sarguzashtlarni aytmysizmi?.. Xullas, gadoy ham shu yerda kun ko‘rgan, shoh ham siyosat savdosida bozordan foydalangan.

Buning ajablanarli joyi yo‘q. Bozor odamga xos jami-ki bordi-keldilarning markazi bo‘lgani uchun mojaroning turfa xili shu yerda tug‘ilishi tabiiy.

Kumushkentda<sup>1</sup> bugun katta bozor edi.

Nasriddin Afandi ham, Muhsin guppi ham shu yerga kelishni mo‘ljallashgandi. Lekin ikkovi ham hali uch

<sup>1</sup> Hozir yo‘q bo‘lib ketgan shahar.



tosh<sup>2</sup> yo‘l bosishi kerak, ungacha boshqa ikki kishi bilan tanishib turamiz.

Tepadan turib qarasang, vijir-vijir olomondan bo‘lagini ko‘rmaysan-u pastga tushib, har birining gapiga qu-loq solsang, eh-he, ne-ne sir-u sinoatlar ayon bo‘lmaydi.

Ahmad tarasha bilan Abdi oppoq bozorga kiradigan olti ko‘chadan bittasining boshida tasodifan uchrashishdi. Ularning ikkoviniyam chapani deyishardi. Chapani degan tushuncha o‘sha paytlarda kasb ma‘nosiga ham o‘tib ketardi. Antiqa toifadagi bu odamlar deyarli hamma shaharda bo‘lar, qishloqlarda ham ularga taqlid qiluvchilar topilardi.

Chapanilarni hurmat qilishar va bir oz hayiqardilar. Chunki ishlashdan ko‘ra o‘limni afzal ko‘radigan chapanilar fitna-yu, nayranglarning tig‘i yoki qalqoni bo‘lib xizmat qilishardi. Yo‘q, bu fitnalarni ular uyushtirmasdi, uyushtirishni boshqa — puldor yoki g‘azabnoklar qilardilar-u, bajarishga qolganda chapanilarga murojaat etilardi. Birovning birovdan qasdini olish, birovning qizini opqochish, birovning uyuridan asl otni o‘g‘irlash singari ishlar yoki shunday vaziyatlarda himoyalani chapanilarning jasoratisiz, mardligisiz bitmasdi.

Chapanilarni hurmat qilishlariga sabab, ular hech qachon o‘zlari uchun o‘g‘irlik qilmasdilar, yuqorida sanab o‘tganimizdek «nozik» ishlarni mahorat bilan, iz qoldirmaydigan qilib bajarardilar va mabodo qo‘lga tushsalar, hech qachon «buyurtmachini» sotmasdilar. Eng asosiysi o‘zlarini o‘t kelsa o‘tga, suv kelsa suvga urib, aytganlarining ustidan chiqardilar yoki halok bo‘lardilar.

Chapanilarning yana bir odati bor ediki, bir-biridan hol-ahvol, nima ish qilyapsan, deb so‘ramasdilar. Mantiqan ham chapaniligimcha qolaman, degan chapani ishlaridan gapirmasligi lozim edi. Laqilladimi — tamom, o‘yindan chiqaman degani edi.

Abdi oppoq bilan Ahmad tarasha uchrashishganda ham bu udum buzilmadi.

— Ha, tuzukmisan? — so‘radi Abdi oppoq sovuqqina qo‘l tashlashgach.

<sup>2</sup> Tosh — to‘rt kilometr ga to‘g‘ri keladi.

— Yuribman, dunyoi dasturxonning bir chekkasida. Shunday deb bozor ichkarisiga yo‘l olishdi.

Bugun bozorga bek qadamranjida qilarmishmi? — so‘radi Abdi oppoq yigirma qadamlar yurishgach.

— Kelsa kelar, menga to‘rt tanga berarmidi! — deb javob berdi Tarasha.

Yana indamay yoymachilar qatoriga yetib kelishdi. Kimning cho‘ntagi nima ko‘tarishi shu yerda bilinardi. Kimda-kim chapga burilsa, kamida besh-olti tilla tanga — qizilchasi bor. To‘g‘riga yursa, sal qo‘ri kamroq, biroq uch-to‘rt kun choyxonachiga osh buyurib yashashi mumkin. O‘ngga burilsa, bilaverinki cho‘ntagidan sariq chaqaning jarangiyam chiqmaydi.

Chapda Toshxo‘ja kalning boylar va savdogarlar qo‘nadigan karvonsaroyi salobat bilan qad kerib turardi. Mahobatli bu imoratning bir tomonini yigirma-o‘ttiz hujrali musofirxona, bir tomonini ulovxona egallagan-di. Bozor tomonda baland, yuz chog‘li odam sig‘adigan keng peshayvonli, ichkari-tashqarili choyxonasi bor edi. Choyxonaga tutash peshayvon ostidagi o‘ntacha o‘choqqa ilingan qozonlar kechayu kunduz biqirlab turardi.

To‘g‘rida esa, bozorning narigi chekkasida bir-biridan ellik qadam masofada Mulla qovoq bilan Pirmat pirsyonning o‘rtahol odamlar kiradigan ikki choyxonasi bo‘lguvchi edi.

O‘ng tarafda qizil soqoliga monand laqab olgan — Shokir qizilning xarobgina choyxonasi bo‘lib, eng holi joy shu edi.

Vaqtivaqtida uchchala tarafning tuzini totgan bu ikki chapani bir soniyali taradduddanoq bir-birining ahvolini tushunishdi. Miyiqlari bilinar-bilinmas qisilib, indamay Shokir qizilning choyxonasiga burilishdi.

Ahmad tarasha qotma, qop-qora, juda daroz odam edi. Birdan «pov»etib yonib ketadigan fe‘li bo‘lib, xuddi shunday birdaniga jahlidan ham tushib qo‘ya qolardi.

Abdi oppoq o‘rta bo‘yli kishi edi. Hamisha kigiz qalpoq kiyib yurar, qop-qora soqoli yuzining oqligidan ko‘m-ko‘k ko‘rinardi. Ikkala chapani ham kuchli, epchil, yoshlari qirqning nari-berisidagi odam edilar.

Choyxonaga kirishganda yonma-yon, lekin xuddi notanishlardek xiyol bir-birlariga teskari qarab o'tirdilar. Qizilning bolasi ikkoviga alohida-alohida choy-non keltirdi. Ikkovi unsiz belbog'laridan tuguncha olib bir siqimdan mayiz, besh-oltitadan turshak chiqarib sopol laganlariga soldilar-da, tugunlarini qayta tugib, belbog'lariga qistirib qo'ydilar.

Tarashaning laganida yong'oqdek keladigan ikkita novvot ham bor edi.

Abdi oppoq shu zahotiyiq non kavshashga tushib, ustidan xo'rillatib choy icha boshladi. Tarasha esa choyni quyishga shoshilmadi. Belbog'i taxini titkilab kichkina tugunchak oldi. Undan kichkina, kir doka ro'molchaga ozgina ko'knor to'kdi-da, dokani dumaloq qilib bog'lab uni sopol piyolaga soldi. Ustiga bir bo'lak novvotni ham tashladi. Qolgan boyligini shoshilmay beliga tukkachgina o'shanday bamaylixotirlik bilan piyolaga choy quydi. So'ng boshini ham qilganча, to ko'knor yetilguncha, qimir etmay o'tirdi. Ko'knor choyga chiqqach, dokani burab siqdida, laganning bir chekkasiga, ikkinchi novvot bo'lagining yoniga qo'ydi. Laganni esa jindakkina Abdi oppoq tomon surdi. Abdi oppoq buni darrov ilg'adi. Bir-ikki soniya taraddudlandi. Tarashaga bir-ikki qarab oldi. Keyin nima bo'lsa bo'lar qabilida bosh irg'adi-da, novvot bilan tugunchakni olib o'zining piyolasiga soldi.

Ko'knori ichib olishgach, chapanilarning chehrasi yorishib, qadlari ko'tarilib, odamlarga ochilibroq qaray boshladilar. Lekin ikkovi hamon bir-biriga so'z qotmas, begonalardek o'tirishardi. Tarashaning bir oz turib, tishining orasidan tashlagan luqmasi ham tashqaridan qaraganda o'ziga-o'zi gapirayotganga o'xshardi:

— Eng chakana-chukana ish bo'lsa-da, tomdan tashlagudekman.

Abdi oppoq Tarashaga qaramay bosh irg'adi:

— O'g'limning domlasiga to'lov vaqtim o'tib ketyapti,— shu asno o'zining hamcho'ntagi bo'shligini izohladi.

Shu payt, nariroqda o'tirib bir tugun zardolini nonga qo'shib yeb bo'lgan ota-bolalarning gapi chapanilarning e'tiborini tortdi.

— Yo‘q, ketmaymiz! Nasriddin Afandini ko‘rma-dik-ku! — dedi o‘n ikki yoshlardagi bolakay otasiga xarxasha qilib.

— Axir u kishini tanimasam, u kishi o‘zlarini mana-man deb tanitmasalar, nima qilay?! — ota bu gaplarni o‘rik danaklarini to‘playotib aytdi.

— Aldabsiz-da, a? Bozorga tushsang ko‘rasan devdingiz-ku!

— Ma, mana bu danaklarni yig‘ib qo‘y, yaxshi ekan, borib ekamiz.

— Kerakmas! Endi hech aytganingizni qilmayman. Qo‘yni ham boqmayman! — deya bola teskari qarab oldi.

— Iya, iya, o‘g‘lim! Axir ular meniki emas, sizning qo‘ylaringiz. Undan keyin hozir bormasak, suvoqni bitirolmaymiz.

Bola indamadi. Ota yana yalinishga o‘tdi.

— Keyingi safar ko‘rarsan. O‘zing eshitding-ku; «Buyoqqa kirmadilar», deb choyxonachi amaking ham aytdi. Balkim u kishi bugun butunlay kelmaslar. Yura-qol, o‘g‘lim!

— Oyda-yilda bir optushasiz-da, hech narsani ko‘rsamay, qaytamiz-qaytamiz deyvurasiz, — dedi bola o‘pkalanib, lekin otasining gapiga kirib.

Oraga Ahmad tarasha suqildi:

— To‘g‘ri qilasan, yigitcha! Nasriddin Afandini bo‘lmasayam, bekni ko‘rib ketgin.

— E, mulla aka, nima qilasiz bolani erka qilib? — dedi dehqon mayin jilmayib.

— Bola o‘ynab qolsin-da, — Tarasha bolaga qarab ko‘z qisdi. — Bir shaharga tushibdi. Qishloqda zerikib ketgandir, a? Zerikdingmi?

Bola uyalib bosh irg‘adi. Abdi oppoq ham gap qo‘shdi:

— Ketma, bolakay. Bek ham bugun bozorga qadam ranjida qilarkan.

Dehqon mayin jilmayib bolaning ra‘yiga ko‘ndi.

— Qani, yur bo‘lmasa, molbozorni aylanib yana qaytamiz.

Ota-bola o‘rinlaridan turishdi.

— Ha, qaytib kelgin, — dedi Oppoq bolani yana qizdirib. — Nasriddin Afandi ham keladilar. Seni tanishtirib, qo‘llarini olib beraman. O‘zing bir siqib qo‘yasan!

Bu gapdan nainki bolaning, balki otaning ko‘zlari ham porlab ketdi.

— Sizlar shu yerda bo‘lasizlarmi?— so‘radi u uyatchanlik bilan.

— Ha, shu joyni ijaraga olganmiz!— dedi Abdi oppoq.

Uning serma‘no qochirig‘ini anglab yetagan Tarasha qixillab kuldi.

Ota-bola chiqib ketishdi. Ikki chapani «ish kutib» joylarida qoldilar

## **ABDUKARIM DEHQON**

**K**umushkent bozoriga Laylak qishlog‘idan otlanib yo‘lga tushgan uchinchi odam Abdukarim dehqon edi.

Abdukarim aslida Laylak qishlog‘ida yashab-yashamasdi. Sababi, bundan ikki yil muqaddam bir bo‘z yerga imorat qura boshlagandi va bir oyog‘i Laylakda, bir oyog‘i ana shu qo‘rg‘onida bo‘lib qolgandi.

Ko‘pni ko‘rgan dehqon Abdukarimning tanlagan yangi yeri har jihatdan yaxshi edi. Shahardan chiqqan anhorning bo‘yidagi yuz tanob<sup>1</sup> sayhonlik kattagina qishloqqa bemalol makon bo‘la olardi. Anhorning anchagina chuqurdan oqishi avval dehqonni o‘ylantirib qo‘ysa, bu to‘siqni katta charxpalaklar qurish bilan yengish mumkinligi haqidagi fikr xayoliga kelgach xursand bo‘ldi.

Abdukarim avvaliga o‘ziga o‘xshagan uch-o‘rt kishini ergashtirmoqchi bo‘ldi. Ammo hech kimning yuragi betlamadi. Shuning uchun charxpalakni ham bir o‘zi boshlab, deyarli bitirib qo‘ygandi. Ammo aqchanning xomcho‘tini sal noto‘g‘ri olgan ekan, charxpalak bitayozdi-yu, ammo bir uy-bir dahlizli imorati chala qolaverdi. Yig‘ib-tergan uch-to‘rt tangasi tugab, Abdukarim

---

<sup>1</sup> Tanob — 8 sotix.

rosa cho'kib qolgandi. Bola-chaqasining usti boshi ming yamoq bo'lib, kiyguligi qolmagandi.

Abdukarim qishloqdagi hovlisini sotgandi-yu ekinzorini saqlab turardi. Bir oyog'i Laylakda, bir oyog'i qo'rg'onida deganimizning boisi ham shu; goh ekinzorida, goh esa yangi qo'rg'onida uy tiklaydi, daraxt ekadi, ariq tortadi, chala bitgan charxpalakni qo'lda aylantirib suv chiqaradi.

Bugun ham qishloqdagi tomorqasida yangi pishgan handalakdan ellik-oltmishtasini ortib, shaharga yo'l olgandi.

Laylak qishlog'idan Kumushkentgacha yo'lda ikkitagina imorat bor edi. Bulardan biri — bir tosh masofadagi sardoba, ikkinchisi — yana shunchadan keyin keladigan yo'ldan sal chekkaroqdagi Abdukarimning chala bitgan qo'rg'oni.

Abdukarimning qo'rg'onidan shahargacha bo'lgan masofa ham taxminan bir toshcha kelardi.

Laylak qishlog'i adirlar ustida joylashgandi. Adirlar qishloqdan so'ng pasayib kelib sardobaning atrofida tugar va kaftdek tekislik boshlanardi.

## **SARDOBA**

**T**arixiy manbalarda, eng qadimiy davrlarda bizning o'lkamiz sero'rmon, sersuv bo'lgan degan ma'lumotlar bor. Ammo keyingi uch-to'rt ming yillikka qaraydigan bo'lsak. O'rta Osiyomiz, o'zining go'zal vodiylaridan tashqari hamisha suvga tanqislik sezgan o'lkadir. Ana shu keyingi uch ming yil ichida bizning ota-bobolarimiz suvdan foydalanish, tejab ishlatish, yo'q joydan topishning mukammal bilimlarga asoslangan ko'p va g'aroyib usullarini topganlarki, bu narsa hozirgi olimlarning ham tahsiniga sazovor bo'lmoqda.

Sardoba ana shu bilim va tejamkorlikning, yashash uchun kurashning oliy san'atlaridan biridir.

Sardoba manzilgohlardan va turgan gapki, daryolar-dan uzoqda, asosan karvonlar, sayohatchilar uchun katta, tekis cho'llarda quriladi. Tekis cho'l deyilgani nis-

biy. Aslida cho'llarda ham jindak nishablik bo'ladi. Oddiy ko'zga ko'rinmaydigan bu nishab bir tomonga bo'lishi ham, sardoba quriladigan joyga to'rt tarafdin kelishi ham mumkin. Harholda, ot chopsa charchaydigan va chek-chegarasi ko'rinmaydigan shu nishab tekislikdan odam bo'yi kavlansa suv chiqadigan joyni aniq topish kerak. Ajdodlarimiz tomonidan bundan ming-ming yillar muqaddam qurilgan sardobalarda ana shunday nuqtalar ajib mahorat bilan topilgan.

Xullas, chuqurligi odam bo'yidek, eni bo'yi besh-olti qadamlik hovuz kavlansa, u besh-olti kun ichida suvga to'lgan. Hovuz atrofiga gir aylantirib, pishiq g'ishtdan gumbazsimon imorat quriladi. Natijada yig'ilgan suv issiqda bug'lanmay, sovuqda muzlamay saqlanadi. Yozda, tinkani quritgudek issiqda sardobaning to'rt tomoniga ishlangan pastak eshiklardan engashib kirib, uch-to'rt pog'onali zinadan tushsangiz, o'zingizni shunday salqin bir go'shada ko'rasizki tashqarida ellik daraja jazirama ekanligiga ishonmay qolasiz.

Hozirgi kunda O'rta Osiyo ayrim uzoq cho'llarni hisobga olmaganida, sardobalar o'zining qadimgi ahamiyatini yo'qotgan. Afsuski, ularning ko'pchiligi buzib yuborilmoqda. Saqlangan sardobalardan bittasini ko'rmoqchi bo'lgan odam Toshkentdan Jizzaxga qarab yo'lga tushsa, Chinozdan yigirma-o'ttiz kilometrgacha o'tgandan keyin yo'lning chap tarafiga diqqat bilan qarab borsa, ehtimol sardobaga nazari tushar. Bu sardobaning ham atrofi obod, oqar suv yetarli, shuning uchun ham unga odamlarning ehtiyoji, e'tibori yo'q.

Qissamizdagi sardoba o'sha davrdayoq o'z vazifasini bajarib bo'lgandi. O'sha paytdayoq ming yoshga kirgan sardoba bir kun qarasa, o'zidan ikki chaqirim narida Kumushkent degan shahar qad ko'taribdi. Shaharga olis daryodan kanal qazib kelishibdi. Shu-shu karvonlar ham uning yonida to'xtab o'tirmay o'tib ketaveradigan bo'lishdi.

Sardobaning oldidagi uch yuz yoshdan oshgan to'rtta chinor, xiyla joygacha atrofini o'ragan changalzor-uzuluq-yuluq to'qayzorgina unga sodiq qolishdi. Yo'llar sodiq qolishdi.



Tevarak-atrofdan keladigan yo‘llar sardobaning oldidagi katta yo‘lga qo‘shilar, uch-to‘rt qishloqning, xususan, Laylakning odamlari shaharga tushadigan bo‘lsalar, albatta sardobaning oldidan o‘tardilar.

## **IKKI MIRSHAB**

**N**odir mirshab bilan Sodir mirshabning aslida xizmat joylari shaharda. Ammo katta bozor kunlari dalaga chiqib, o‘zlarining tilida aytganda havo o‘zgartirishardi. Ham sayohat, ham tijorat deganlariday, bozor yo‘lida turib olib, o‘tgan-ketgan dehqon va cho‘ponni aldab-suldab yoki do‘q-po‘pisa qilib jindak-jindak shilishar edi. Sardobaning oldidagi serqatnov yo‘l bu ikki o‘rtoq uchun eng qulay nuqtalardan biri edi.

Nodir mirshab bilan Sodir mirshab mo‘ljallaridagi vaqtdan xiyla kechikib qolishgandi. Bunga Sodir mirshab aybdor edi. Azonda u Nodir mirshabni uydan chaqirib o‘tishi kerak edi, amom quyosh bir terak bo‘yi ko‘tarilguncha kelmasa bo‘ladimi?! Xotini allaqaysi go‘rdagi to‘yga ketib, uyg‘otadigan odam yo‘q, uxlab qolgan ekan. Nodir mirshabning toza xunobi chiqdi, kutib-kutib, endi bugun «tirikchilik» bo‘lmas ekan-da, deb turgan paytida Sodir mirshab ot choptirib yetib keldi.

Shunday qilib, ikki mirshab sardobaning oldiga odatdagidan uch soat keyin yetib kelishdi.

Bozorga odamlra saharda o‘tadi. Ular kelganiga bir soatdan oshgan, kun uch terak bo‘yi ko‘tarilganligiga qaramay, zog‘ ham o‘tmadi.

Boyatdan beri bir necha marta koyigan bo‘lishiga qaramay, turib-turib Nodir mirshabning achchig‘i yana tutib ketardi.

— Hey, ha shuncha ham uxlaysanmi, galvars! Nas bosib yurasan-a! — dedi u tosh supada yelkasini chiqargancha qo‘llariga suyanib o‘tirarkan.

Sodir mirshab otining oldingi oyog‘ini ko‘tarib, taqaning bo‘shab ketayozgan mixini tosh bilan chiqillatib qoqardi. Sherigining bu gapini ko‘p eshitgani uchun javob bermay ishini davom ettirdi.

— Bugun endi hemiriyam yo‘q, ikki qo‘lni burunga tiqib qaytamiz!

Sodir mirshab indamay mix qoqqan tuyoqni tushirib, otini sardobaning orqasiga yetaklab ketarkan po‘ng‘illadi:

— Bo‘ldi-da endi! Hadeb bitta gapni aytib, molga o‘xshab kavsh qaytaraverarkan-da!

— Hu, nas! — dedi uning orqasidan xo‘mraygancha Nodir mirshab.

Sodir mirshab otini qoldirib, sardoba chovgumida suv olib chiqdi. Supaga keldi-da, dubulg‘asini yechdi. Chovgumni Nodirning oldiga qo‘ydi:

— Shuni boshimdan to‘kvor! — dedi engashgancha.

— Ho‘, nas! Ettim-ku, bu hali yuvinmagan ham!

— Kecha qaynim keluvdi. Bo‘zaxo‘rlik qilganmiz. A‘zoyi badanim o‘t bo‘lib yonyapti! — po‘ng‘illadi Sodir mirshab.

— Hali mirshabboshining haqini berolmay, boloxonador so‘kish eshitganingda ko‘raman seni!

— Ko‘p sannayverma, xumpar! Bugunga ham xudoyimning atagani chiqib qolar!

— Xudoni tilga oladi-ya! Yuvuqsiz!

Nodir mirshab shunday deb suvni jo‘mrakdan quya boshlagandi, sovuq suvdan seskangan Sodir baqirdi:

— Og‘zidan! To‘kvor dedim-ku, senga!

Nodir suvni sharillatib quydi. Sodir mirshab «o‘h-o‘h»lab boshini ishqadi. So‘ng, engashgancha belidan belbog‘ini yechdi-da, uni boshiga yopib tiklandi. Artinib bo‘lib, ro‘molni boshidan olgan zahoti: «Ana!» deb baqirib yubordi. Baqirig‘iga monand qo‘li ham Laylak tomonga cho‘zildi.

— Ana! — xitobini takrorladi Sodir mirshab. — Aytmadimmi, xudoyim bugungi rizqimiz uchun ham biron narsa sochib qo‘ygandir deb!

Laylak tomondan bir arava kelardi.

## **BIRINCHI O‘LJA**

**B**u Abdukarim edi. Mirshablar o‘ljani ko‘rgach, xuddi hech narsa bilan ishlari yo‘q odamlardek toshsupaga yonma-yon o‘tirdilar. Abdukarim uzoqdanoq ular-

ning mirshablar ekanligini bildi. Ko'ngli xijillanib, hurmatlarini joyiga qo'ysam, zora tirg'alishmasa degan umidda ancha naridanoq aravasidan tushib piyodalandi. Besh-o'n qadam qolganda quyuq salom berdi.

— Hormang, katta aka! Yo'l bo'lsin! — dedi Nodir mirshab qush o'tirishda o'tirgan ko'yi alik olib. Shu soniyada u o'zini fil, Abdukarimni esa chumolidek chog'ladi.

— Bor bo'ling! Bozorga ketyatuvdim!

Shunday deb, Abdukarimning nafasi ichiga tushib ketdi. Mirshablarning albatta tirg'alishlari, rejalari barbod bo'lishi mumkinligini sezdi. Ko'zlari mo'ltiradi.

Mirshablar uning mo'ltirashini o'z salobatlariga yo'ydilar. Abdukarim esa tezroq shaharga tushib chiqish, bo'z, chit olib, yangi qo'rg'onda kutib o'tirgan ayoli, bolachaqasini sevintirish, so'ng ro'zg'ordagi boshqa ishlarga unnash singari bugunga mo'ljallangan rejalarining buzilishidan qo'rqardi.

Mansabdorlar ana shunday yanglishadilar. Turqlaridagi kibr yanglish ustida zuhurlanadi.

— Bola-chaqaning tishiga bosarmiz deb uch-to'rtta urug' tashlab qo'ygandim. Nasib qilmagan ekan, sotgani olib ketyapman.

Abdukaram bu gaplarni o'sha rejalarining amalga oshmay qolishi qo'rquvidan ezilib aytdi.

— Ha, yaxshi, yaxshi. Omadingizni bersin.

Nodir mirshab shunday deb, chetani yo'nilmagan tayoq va qamishlardan yasalgan aravaga yaqinlashdi. Ko'z qirini tashlab uning ichidagi handalaklarni ko'rdi.

— Qani, aravangiz butmi? Yo'l-po'lda to'kilib tushmaydimi?

Nodir mirshab aravaning sahnini, g'ildiraklarini siltab-siltab tortib ko'ra boshladi.

— Eski bo'lsa ham pishiq,— Abdukarim yaltoqlanib kuldi.— Chatoq arava bilan shaharga tushib bo'larkanmi?

— Iya!

Aravaning salkam bo'yidek keladigan g'ildiragini siltab turib aytgan Nodir mirshabning bu xitobi Abdukarimning jilmayishini so'ndirdi.

— Ha, buni shalog‘i chiqib yotibdi-ku! — dedi mirshab ko‘zlarini paxtasini chiqarib do‘q bilan.

— Yo‘g‘-e! Yo‘g‘-e!— Abdukarim shunday deb norg‘ul gavdasiga yarashmagan chaqqonlik bilan lip etib mirshabning oldiga o‘tib, g‘ildirakni siltadi.— J-joyida-ku?

— Menga ishonmaysizmi?! — Nodir mirshab do‘qini kuchaytirdi. — Sodir! Buyoqqa qara!

Sodir mirshab hech xohishi yo‘qdek qo‘zg‘aldi. Boshiga sallasini, aftiga esa ensa qotish ifodasini qo‘ndirdi-da, shoshilmay yaqinlashdi. G‘ildirakni hazar qilgan-dek ushlab siltadi.

— Shalog‘i chiqib yotibdi,— dedi u qo‘llarini qoq-qancha uzoqlarga tiqilib. — Chiqib ketadi.

— Nega chiqib ketarkan!? Mustahkam arava! Usta Mannon ishlagan. Men tugul, o‘g‘limning kuniga ham yaraydi hali!

Abdukarimning bu uzun nidosidan supa tomon qaytayotgan Sodir mirshab to‘xtadi. Istamay o‘girildi. Zamirida zo‘r dag‘dag‘a sezilib turgan beparvolik bilan dedi:

— Nima, sizga podsholikning odami yolg‘on gapiradimi?

— Ha, — dedi Nodir mirshab. — Buningiz shaharga borganda chiqib ketib, bironta bandai mo‘minni shikastlaydi. Tovongia qolasiz!

— E, nima bo‘lsa peshonamdan ko‘rdim! Jon akalar, buni sotib, puliga mayda-chuyda olib qaytishim kerak. Olis yo‘l, qorong‘iga qolib ketmay! Qo‘yvoringlar!

— Iya! Bizni bu yerga nimaga qo‘yib qo‘yibdi?! Qiyshiq, buzuq aravalarni o‘tkazmagin deyishgan-da! Tuzating aravangizni!

Bu buyruqni eshitgan Abdukarim boshiga musht tushgandek garangsib, ancha vaqtgacha nima deyishini, nima qilishini bilmay qoldi. Nodir mirshab esa gap tamom degandek, Sodirning yoniga — supaga borib o‘tirdi. Ikkovi yolg‘ondan qizg‘in suhbatga berilishdi.

Abdukarim anchadan keyin o‘ziga keldi. Nochor qiyofada supaga yaqinlashdi:

— Mayli, akalar. Shaharga o‘tmayman. Huv anovi qorayib turgan mening qo‘rg‘onim, o‘sha yerda qolaman!

Nodir mirshab bilan Sodir mirshab yalinishni boshladi shekilli, deb uning gapiga yaxshi e'tibor berishmadi ham.

— Mayli, bugun tuzatib, ertaga tusharman shaharga,— dedi g'udranib Abdukarim.

Mirshablar yana e'tibor berishmadi. Yana yalinyapti deb o'ylashdi.

Abdukarim esa ularni eshitdi deb o'ylab, aravasiga o'tirdi-da, «chu» deb qamchi silkitdi.

Ot endi ikki odim qo'ygandi mirshablar «hoy-hoy»lab yugurib kelib Abdukarimni siltab tushirishdi.

— He, seni qara-yu! Kimni mazax qilyapsan?! Hozir hibsonaga oborib tiqib qo'yaman!

Abdukarim yosh bolaga o'xshab dovdirab qoldi.

— M-men mazax qilganim yo'q. Shaharga tushmayman deb aytdim-ku! Huv anavi qo'rg'onimda qolaman.

— Kimni aldamoqchisan? Bu yerda bormayman deb juftakni rostlaysan-da, nariroqda sekin shaharga qiyshayib qolasan! — dedi Sodir mirshab vajohat bilan.

— Nima qil deysizlar? — Abdukarim battar dovdirdi.

— Hech qayoqqa bormaysan! Aravangni shu yerda, ko'zimizning oldida tuzatasan!

Sal ziyakroq bo'lgan Nodir mirshab — Sodir mirshabning bunaqa do'q-po'pisalari bilan asl niyatlarini Abdukarimga baribir tushuntirib bo'lmasligini sezdi.

«Qo'yib bersang, bu galvars aravasini hoziroq sozlashga kirishadi-yov!» deb o'yladi.

— Sen nari tur! — deb yolg'on po'pisa bilan Sodir mirshabni haydadi-da, odamga o'xshab Abdukarimga gap qotdi.— Endi, uka, sizni shunday o'tkazib yuborsak, siz, xudo ko'rsatmasin-u mabodo birovni jarohatlasangiz, bizni mirshabboshi qattiq so'kadi. Biz nima deymiz?.. Ha, endi ishi zaril ekan, juda iltimos qildi, deymiz... Handalak obketayotgan ekanlar. Mana, yangilik, sizning ham og'zingiz tegsin, deb uch-to'rta handalak bersak, javobimiz ancha chiroyli chiqadi, a? To'g'rimi?

Abdukarim sevinib darrov ko'ndi:

— Mayli olinglar, besh-o'nta handalak gapirishga arzimaydi.

— Yo‘q, siz o‘zingiz ayting-da! — Nodir mirshab do‘stona kulib Abdukarimning yelkasiga qoqdi. — Iltimos deng, siz o‘nta, oshnangiz o‘nta deng, ha mirshabboshiga yigirmata handalak oling deng, aravamning chatog‘ligiga qaramay o‘tkazib yuboringlar, deng. Qani, o‘z og‘zingiz bilan qaytaring-chi?

Abdukarimning yana nafasi ichiga tushib, mirshabni insofqa chaqirmoqchi bo‘ldi.

— O‘zi oltmish-etmishta handalak obketyapman, akajon! Yarmidan ko‘pini olsanglar! Aravani shaharga ovara qilganimga arzimaydi-ku!

— E, gapga tushunmasakansiz! Bo‘pti, aravangizni shu yerda tuzating-da, ketavering! Hech narsangiz kerakmas! — Nodir mirshabning basharasi odam siyoqidan chiqib, muomalasi yana sovuqlashdi, dimog‘idan eshakqurt yoqqancha yana mirshablik siyoqiga o‘tdi. Gaplarini ham to‘rs-to‘rs gapirdi-da, keta boshladi.

Abdukarim noiloj uning yengidan ushlab yalindi.

— Jon og‘a, o‘ttizta handalak olib meni ko‘rmagandek bo‘ling!

— Bu boshqa gap! — Nodir mirshabning afti yana odam siyohiga qaytib jilmaydi. — Qani, o‘zingiz qirqta yirik-yirigidan tanlab sardobaning orqasiga olib qo‘ying-da, jo‘nayvering.

Hammasidan ham Abdukarimga mana shu handalaklarni tashish alam qildi. Boz ustiga rejalari barbod bo‘lgandi. Yuzidagi yalinchoqlik yo‘qolib, o‘rnini aqlli qahr egalladi. Indamay uch-to‘rt qatnab, qirqta handalakni tushirdi-da, yana indamay jo‘nadi.

— Xayr, o‘v, deqonboy aka! Nega bu qovog‘ingizdan qor yog‘ilib qoldi? — dedi Nodir mirshab.

— Odamlarga yaxshilik qilib baloga qolasan! — po‘ng‘illadi Sodir mirshab.

Abdukarim aravada o‘tirgancha o‘girildi.

— Bilib qo‘ylaring, o‘v og‘alar! Handalak emas, qizchamning bo‘z ko‘ylagini olib qoldilaring! Hayitlik qilmoqchi edim. Qizimga aytaman: o‘lgunicha qarg‘ab yursin!

Abdukarim otiga qamchi urdi.



— O‘v podshoning mirshablarini haqorat qildi deb qamab qo‘yaymi? — dedi Sodir mirshab.

— Osmon qo‘lingda bo‘lsa tashlab yubor-e!  
Abdukarim qo‘l siltadi.

Sodir mirshab o‘rnidan turmoqchi edi, Nodir mirshab to‘xtadi.

— Qo‘y, oladiganimizni oldik! Ketaversin!

## IKKINCHI O‘LJA

**A**bdukarim nari ketgach, mirshablar garchi arzi-  
mas bo‘lsa-da, birinchi o‘lja quvonchida xaxolab yubo-  
rishdi.

— O‘zi berib, yana gina qiladi, — dedi Sodir.

— O‘zi oling deydi-da, ketidan to‘ng‘illaydi, — dedi  
Nodir mirshab.

Ikki oshnaning bu gaplari xaxolash orasida aytil-  
di. So‘ng ular hazil-mazax qo‘shiq boshlab yuborishdi.

*Man o‘zim polvon yigit, ho!*

*Qog‘ozni tar-tar yirtaman.*

*Yuragim tog‘day yigit, ho!*

*O‘lgan buzoqdan qo‘rqaman.*

Qo‘shiq tugagach, do‘stining kayfi chog‘langanini  
ko‘rgan Sodir mirshab uni yanada sevintirmoqchi bo‘ldi.

— Harna-da!— dedi u handalak keltirgani sardoba  
tomon yo‘nalib.— Bekor ham o‘tirardik. Yangilik,  
omonlik-esonlik deb buni bitta-ikkitasini so‘yaylik!

Lekin Laylak tarafga qaragan Nodir mirshab u to-  
mondan kelayotgan otliqni ko‘rdi.

— Handalakni qo‘y, buyoqqa qara! — dedi u do‘stini  
to‘xtatib.— Yana bitta o‘lja kelyapti.

Sodir mirshab sevinib orqaga qaytdi-da, uzoqdagi ot-  
liqqa tikildi. Shunda uning sevinchi suv sepilgan gulxan-  
dek o‘chdi.

— E, bu Muhsin boy-ku! Undan undirib bo‘psan! —  
dedi ensasi qotib Sodir mirshab.



— Rostdan boy bo'lsa, gaping to'g'ri! Qozikalonning oldiga kirib-chiqayotganini ham ko'rganim bor buning,— dedi Nodir mirshab ko'zi ola-kula bo'lib.

Ikkala do'st qo'y og'zidan cho'p olmagan mo'min-u musulmon qiyofada supaga yonma-yon o'tirishdi. Aftlarning tundligi uzodqan bilinmasdi. Muhsin guppi yaqinlashishi bilan ular birdaniga shiringina jilmayishib, tavoze bilan salom berdilar.

Mirshablar jilmaygan ko'yi Muhsin guppini tezgina o'tkazib yuborishni mo'ljallagandilar. Lekin Guppi o'tib ketmadi. «Vaaleykum» deganicha otdan tusha boshladi.

Ikki mirshab kimo'zar o'ynagandek yugurib borib, uning qo'lini olib so'rashdilar. Ularning boya Abdukurim oldidagi vajohatlarini ko'rgan va hozirgi siyohlari bilan solishtirgudek kimsa topilsa edi, odamning gavadasi birdaniga kichrayib qolishi mumkinligiga guvoh bo'lardi.

Muhsin guppi boshi bilan otini ishora qilib supaning chetiga o'tirdi. Ikkala mirshab otni chinorning tagiga, soyaga bog'lab qaytishdi. Sodir mirshab tilyog'lamalikka o'tdi:

— Qarang, ahli donishdan bir vakil kelib suhbatiga bahramand qilarmikin deb, hozirgina sizni gaplashib o'tirgan edik. Xudoni o'zi yetkazdi!

— Farishtalar omin degan ekan! — qo'shimcha qildi Nodir mirshab.

— E, — Muhsin guppi yayrab kuldi. — Senlarning nima qilib o'tirganlaringni bilaman. Lekigin meni senlarga xudoning o'zi yetkazgani rost!

— Rost, rost, o'zi ko'zim ham uchib turuvdi, — dedi Nodir mirshab. Bu gapining tag-tagidagi pichingni payqagan Sodir mirshab xavotirlanib, Guppiga qarab qo'ydi. Muhsin guppi hech balo sezmagandi.

— Ajabmas, bugungi rizqlaringni men tufayli topsanglar! — dedi u qamchi bilan etigining changini asta qoqarkan, viqor bilan.

— Inshoollo, inshoollo, boy aka! — tamshandi Nodir mirshab.

Muhsin guppi ikkala mirshabga chamalagandek galma-galdan ko'z yugurtirdi. Keyin boshi bilan yoniga ishora qildi:

— Qani, bunday o'tirlaring-chi!

Mirshablar ko'zlarini unga tikkancha yoniga o'tirishdi.

Muhsin guppi yana ularga hammolikka yaraydimi-yo'qmi, deb chamalayotgandek sinchkov tikildi, so'ng cho'zib turib dedi:

— Bir ish bor. Eplasalaring, ikkoving bir xumdan asalga ega bo'lasanlar. Ustiga har biringga yarim tilladan tanga beraman.

Nodir mirshabga jon kirdi:

— Ayting tezroq, boy aka!

— Xo'-o'sh, — dedi Guppi nihoyatda jiddiylik bilan — Hozir meni izimdan bir odam keladi. Eshagining xurjunlarida ikki xum asali bor. Shuni olish kerak!

Uning bu gapidan so'ng mirshablar indamay qolishdi. Bir oz o'tgach Sodir mirshab so'radi:

— O'zi ikki xum asali bor!

— Ha!

— Biz ikkovini olishimiz kerak?

— Ha.

Mirshablar yana o'ylanib qolishdi. Odatda ular o'n-o'n besh qopli dehqondan yarim qop, bir qopni olishardi. Ellik-oltmish qo'yli cho'pondan esa bitta, juda nari borsa ikkita qo'yni. Shunda ham gohida janjallar bo'lib zo'rg'a qutulardilar. Ba'zan esa ko'ngli keng zahmatkash bechoralar, bosh-ko'zimdan sadaqa deb indamay ketaverardilar. Lekin odamning bor bud-shudini tortib olish! Bu toifa ishni ular qilmasdilar va qilishni xohlamasdilar.

— O'sha aytgan odamingizning boshqa hech narsasi yo'qmi? — bu savolni Nodir mirshab berdi.

— Yo'q! — dedi tajanglashib Guppi.

— Juda qiyin ish, boy aka! — deya gapga Sodir mirshab aralashdi: — Bunaqasini bizga ustozimiz o'rgatmaganlar!

— Ustozingizdan o'rgildim. Men o'rgatyapman! Boz ustiga tilla beryapman!..

Nodir mirshab Gupping gapini bo'ldi:

— Chorak xumini, boringki, yarim xumini ol deng, oberaylik. Molidan ajragan odam boltadan qaytmaydigan ho'kizga aylanadi. Bilasizmi, qassobga kalla qo'yib qolishi mumkin.

— Hoy, hoy, hoy! — o'z navbatida Guppi ham uning gapini kesdi-da, barmoqlarini bir-biriga ishqab dedi. — Men tanga beryapman! Mulla jiring beryapman! Chorak xum, yarim xum, emish! Chorak xum, yarim xumni men aytmasam ham olishlaringni bilaman.

Mirshablarning ko'nmayotgani ko'rinib turardi. Muhsin guppi, yarim tillani eshitib darrov ko'nishadi deb o'ylab xato qilganini tushundi. Endi avrashga o'tdi.

— Yarim tilla-ya! Boz ustiga, olishning oson yo'lini o'rgataman. U odam xumlarining bo'shligini bozorga borguncha bilmay qoladi. — Muhsin guppi jindek tin olib, narxni qo'shdi. — Ha, borlaring, ana ikkovingga bir tangadan beraman!

Mirshablardan yana sado chiqmasa-da, bir tangadan deyilgani jindek ta'sir etdi.

— Bir xumdan asal, bitta mullajiring — asl tilladan, egasi bilmay qoladigan yo'li! Yana nima kerak? Men o'sha odamni xumlari bo'sh holda bozorga kirib borganini ko'rsam bo'ldi!

— Kim o'zi o'sha aytayotgan odamingiz? — so'radi shoshib Sodir mirshab. Shoshmasa, Nodir mirshab «Bo'pti biz rozi!» devorishga tayyor edi. O'ljasiz qaytishidan dili xufton Nodir mirshabni yarim maoshiga teng bir tanga — butunlay es-hushini olgandi. Boz ustiga bir xum asal!

Muhsin guppi ham oshnalarning yakdilligiga darz ketganini sezdi. Shuning uchun Nodir mirshabga pir-pirab boqib, go'yoki o'pkalandi:

— Do'stingizni qarang! Ha, buni nima ahamiyati bor?!

— Xo'p deyaveraylik, — dedi Nodir mirshab. — To'g'ri-da, nima ahamiyati bor?!

Sodir mirshab quvroq edi. Buning ustiga yana narxni oshirish mumkinligini tushundi.

— Juda bor-da! — dedi u o'jarlik bilan.

Nodir mirshab do'stiga boqarkan uning tixirlik qilishiga hayron bo'ldi, Guppi nihoyatda tajang edi. Sodir mirshab esa ularning bittasiga ham qaramas, goh yerga, goh osmonga tikilarkan, g'o'ng'illab xirgoyi qilardi.

Guppi ana shu vaziyatda «Nasriddin Afandi!» devorgandi. «Qani? Qani?» deb sakrab turib ketgan mirshablar atrofga alanglashdi.

Jahli chiqqan Guppi barmog'ini nuqib hijjaladi:

— O'sha, men aytgan asalli odam — Nasriddin Afandi bo'ladi!

Bu gapni eshitib mirshablar avval bir zum og'izlarini ochib ag'rayishdi-da, keyin: «Yo'q, yo'q, yo'q»,— degan gancha xuddi moxovdan qochgandek ikki yoqqa qochishdi. Guppi bir amallab Nodir mirshabning etagidan ushlab qoldi. Sodir mirshabni esa takror-takror chaqiraverib, arang yoniga qaytib o'tqazdi.

— Tavba!— dedi u xunob bo'lib.— Namuncha nomini eshitiboq bu odamlar o'zini tomdan tashlab qochgudek qochadi-ya? U ham hammaga o'xshagan odam! Menga qaralaring: ikkovingga ikki tilladan beraman. Ana, mendan ketsa ketsin! Foydani tagida qoladigan bo'ldilaring!

— E, Nasriddin Afandiga tegmagan odam foyda qiladi, boy aka! — po'ng'illadi Sodir mirshab.

— Uch tilladan beraman — dedi guppi.

— Uch tilladan!!!— Nodir mirshab shunday deb hushi boshidan uchdi. U batamom Guppining quliga aylangandi. Sodir mirshab esa battar shubhaga tushdi.

— Menga qarang, boy aka, shu odamni qaqshatish namuncha zaril bo'p qoldi? Nasriddin Afandini butun poshsholikda otliq ham, piyoda ham tanisa. Bir ishkal chiqsa, men bu mirshablarni tanimayman, deb tonib ketaverasiz!..

— Besh tilladan! — dedi Guppi uning og'ziga urgandek.

Bu pulni eshitib ikkala mirshab adoyi tamom bo'lishdi. Ayniqsa. Nodir mirshab o'rnidan turib ketib: «Lanj! Nas bosgan! Aybingni yuv!» degan ta'nalarni aytib unga tashlandiki, «besh tilla»dan karaxt bo'lib turgan Sodir

mirshab ham taslim bo'ldi. Guppi esa g'alabani yanada mustahkamladi.

— Besh tilladan ollaring-da, ishni bajaringlar! Asalini olib quruq jo'natsalaring, bas! Nasriddin Afandini loy qilgan mirshablar, deb shon-shavkatinglar butun posh-sholikka ketadi. Bekning, shohning nazariga tushasanlar. Senlarni chaqirib mansab beradi. Hammasi ikki xum asalni olish evaziga-ya! Karnaychidan bir puf-da! Boz ustiga oson yo'lini o'rgataman.

— Bo'pti, o'rgating yo'lini! — dedi Sodir mirshab.

Guppi bir oz nafas rostlab, so'ng uyoq-buyoqqa alanglab oldi-da, ikki og'aynini bo'ynidan ushlab o'ziga engashtirdi. Shu alfozda uch-to'rt jumla aytgandi, mirshablar birdan o'zlarini orqaga tashlab qah-qaha urishdi. Guppi yana ularni boyagidek engashtirdi. Uch-to'rt og'iz gapidan so'ng mirshablar yana gavdalarini orqaga tashlab, osmonga qarab qah-qaha urdilar.

— Obbo, obbo, boy aka! Ustomonlikda barchadan o'tib ketibsiz-ku! — dedi kulgi aralash Nodir.

— Nasriddin Afandi ham ip esholmaydi! — dedi Sodir mirshab.

Yarasiga malhamdek bu maqtovdan Muhsin guppi taltayib ketdi.

— Zo'rmi? — so'radi u ham gerdayib.

— Zo'r! Qoyil!

Muhsin guppi jiddiylashib, mirshablarga rejani puxta uqtirdi.

— Agar asalni o'marganinglarni sezmasdan ketaversa — indamaysanlar! Sezib qolsa — biz bilmaymiz deb, haligi men o'rgatgandek javob berasanlar! Bo'ptimi?

— Bo'pti, boy aka! Ammo-lekin qoyilman! — dedi Nodir mirshab.

Shundan keyin Muhsin guppi ularga ikkita og'zi boyloq oq xaltacha berdi. Mirshablar uni avaylab olib, sardobaga yashirib chiqishdi.

— Qani, boringlar! Ikkita kashkulmi, xummi topib kelling! — dedi Guppi.

Mirshablar yugurib borib o'tlanishdi-da, huv uzoqda qorayib ko'rinayotgan Abdukarimning yangi qo'rg'oni tomon shamoldek uchishdi. Sal o'tmay Muhsin guppi

ham ular ketidan jo'nadi. Sardobaning oldi kimsasizlik-dan huvillab qoldi.

Aravasida imilib ketayotgan Abdukarimni avval ot yeldirgan mirshablar, so'ngroq Muhsin guppi quvib o't-di. Yana bir oz yo'l yurgach esa mirshablar qaytib o'tish-di. Egarlarining unga ko'rinmaydigan tarafida ikkovi ikkita narsa qo'ltiqlab olishgandi. Abdukarim allanimadir sezib, aravasini tezlatdi.

## **IKKI XUM ASAL**

**S**ardobaning oldi uzoq huvillab turmadi. Sal o'tmay Sodir va Nodir mirshablar biri xum, ikkinchisi mis kashkulni egarga bosgancha qaytib kelishdi. Bir-birlariga yordamlashib, idishlarni artishdi, ko'z ochib-yumguncha ularni sardobaning orqa tomonidagi butalar ichiga yashirib qo'yishdi. Kayflari chog' holda supaga o'tirib qo'shiq boshlashdi. Bu qo'shiq qator yurib ko'rikdan o'tayotgan paytda aytadigan qo'shiqlari edi. Juda qiyomiga yetkazib zavq bilan aytardilar.

*Saltanatning biz suyangan tog'larimiz,  
Voh-hah-hey! Voh-hah-hey!  
Begimizning olmos teshar o'qlarimiz,  
Voh-hah-hey! Voh-hah-hey!  
Olmos kesar tig'larimiz,  
Voh-hah-hey! Voh-hah-hey!*

Qo'shiqning oxiri cho'ziq qiyqiriq bilan tugardi. Zavqli qiyqiriqdan so'ng zavqli kulgi ham yangradi.

— Menga qara! Agar shu ishimiz tufayli rostdanam bekning nazariga tushsak, qaysi mansabni so'rasam ekan, a? — dedi Nodir mirshab og'zi qulog'iga yetib.

Sodir mirshab sherigining doimo xayolini band etgan orzusini bilgani uchun darrov javob qildi:

— Mirshabboshilikni!

— Berarmikin-a? — dedi Nodir mirshab orzumanda oh tortib.

— Beradi! Qo'shib bershii ham mumkin.



— Nimani? — Nodir mirshab hamon yashiriq kino-yani tushunmasdi.

— Katta bog‘li qo‘rg‘on qo‘shib beradi.

— Yo‘g‘-e!

— Menga qara! — dedi Sodir mirshab. — Bek Nasriddin Afandiga shahardan qo‘rg‘on ko‘rsatib, shu yerga ko‘chib keling, deganmi?

— Ha, shunday deb eshitgandim, — dedi Nodir mirshab og‘zini ochib.

— Endi, Nasriddin Afandiga qo‘rg‘on bermoqchi bo‘lgan bo‘lsa, uni mot va gel qilgan, ya‘ni Nasriddindan zo‘rroq odamga bermaydimi? Qo‘shib ham berar!

Nodir mirshab yana bir chuqur oh tortib, «sen nima so‘raysan, Sodir?» demochi edi, Laylak tomondan kimningdir xirgoyisi eshitildi:

— *Toshqin daryoman debon, savlatinga ishonma, ho, ishonma.*

Bu Nasriddin Afandi edi. Mirshablar gap bilan bo‘lib, uning yaqinlashganini sezmay qolgandilar. Ular darrov salla pechlarini to‘g‘riladilar. Bir oyoqlarini supadan pastga osiltirgancha yarim chordana qurib, «suhbat»ga berilishdi.

Nasriddin Afandi xirgoyisini bir daqiqaga uzib, «assalomu aleykum», dedi-da, o‘tib keta boshladi.

— Yo‘l bo‘lsin, Nasriddin Afandim? — dedi Nodir mirshab alik olgach.

— Bozorga, saltanat tog‘lari, bozorga, — javob berdi Nasriddin zarracha qiyo boqmay, ularning qo‘shig‘iga ishora qilib.

— Bozor tarqab ketmaydimi? Kech qopsiz? — Sodirning bu gapidan keyin ikkala mirshab xavotirlanib o‘rinlaridan turishdi. Chunki Nasriddin o‘tib keta boshlagandi.

— Yaxshi molning bozori tarqalmaydi, birodarlar!

Mirshablar hayajonlanib yo‘l ustiga chiqishdi.

— Nima olib ketyapsiz?

— Asal, asal.

— Hoy, to‘xtang, — dedi Nodir mirshab vahima bilan qattiq baqirib yuborib. — Hujjatingiz bormi?

— Iya! Qanaqa hujjat!

Savoldan Nodir mirshab kalovlanib qolgandi, Sodir mirshab topqirlik qildi:

— Asal o'zingiznikiligi haqidagi hujjat!

Nasriddin eshagining jilovini tortdi. Bir oyog'ini egar ustiga olib yarim chordana qurarkan, jilmayib mirshablarga o'girildi. Shu qiyofasining o'zi kattakon savol edi.

— Biz sizni o'g'ri demoqchiasmiz-u, ammo-lekin mirshabboshi hamma molni tekshirib o'tkazgin deb buyruq bergan. Shuning uchun yo hujjat, yo guvoh topib keling, — dedi Nodir mirshab.

Nasriddin xaxolab kuldi:

— O'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini olib o'tirasizlar, deb eshitgandim.

Mirshablar Nasriddinning kinoyasini tushunmaslikka oldilar.

— Biz birovdan bekorga hech narsa olmaymiz. Birovning haqida xiyonat qilgan odam Olloh oldida javob beradi. Avval o'ng qo'li, so'ngra so'l qo'li kesiladi. Sizni hurmat qilamiz. Shuning uchun har xil gaplarni gapiravermang.

— Ha, sizni hurmat qilamiz, — deb ilib ketdi Sodirning gapini Nodir. — Shuning uchun qishloq oqsoqolidan borib bitta hujjat olib kelasiz!

— Hurmatlaring uchun rahmat. Lekin xuddi shu hurmat haqqi, hozir yo'ldan qo'ymanglar! Mabodo mirshabboshi tekshirib qolsa, bor edi, yo'qotib qo'yibman, deyman.

— Yo'q, bizni yolg'onga sherik qilmang!

Mirshablarning qat'iy javobi shu bo'ldi.

Uni desa, buni, buni desa, uni ro'kach qilishdi. Nasriddin Afandi bir sir borligini tushundi va qaytib hujjat olib kelishga ko'ndi. Lekin mirshablarni bir sinovdan o'tkazmoqchi bo'ldi:

— Xumlarimni shu yerda qoldiraveraymi yo olib ketaymi?

— Iya, ha nima qilasiz eshak jonivorni qiynab? Tashlab ketavering! — dedi darrov Nodir mirshab, asalning olib ketilishi mumkinligidan xavfsirab.



— Turadi shu yerda. Men umuman asalni xush ko'rmayman! — jo'r bo'ldi Sodir mirshab, so'ng sherigidan so'radi. — Sen-chi?

— Be-e! — dedi Nodir mirshab. — Men asalni jindek hidlab qo'ysam, shu yo'tal tutadi, shu yo'tal tutadi! Hech o'zimni to'xtata olmayman! Tashlab ketavering! Qandoq qo'yib ketsangiz, shundoq turadi.

— Mana, supaning yonboshiga qo'ying. Salqinda tura turadi, — dedi Sodir mirshab.

— Qani, yordamlashib yuboringlar, bo'lmasa! — iltimos qildi Nasriddin eshakdan tushib.

Birovning ishiga saratonda qo'l urmaydigan mirshablar bu iltimosga yugurgilab kelishdi. Tizzadan sal balandroq keladigan xumlarni uch kishilashib supaning yonboshiga olib qo'yishdi.

Nasriddin xuddi hech narsa bo'lmagandek xirgoyi qilganicha Laylakka qaytdi. U uzoqlashib, nuqtadan sal kattaroq holda ko'ringunga qadar: «Sabr, qil, sal nariroq ketsin, o'girilib ko'rib qoladi», degan gaplar bilan mirshablar birini biri bosib turishdi. Keyin birdaniga shoshib ishga kirishishdi. Boyagi, sardoba orqasiga yashirib qo'ygan xum va kashkulni keltirib, Afandining xumlarini ularga ag'darib, asal yaxshilab oqib tushguncha ushlab turishdi. Shunday qilib o'zlari olib kelgan idishlarini to'ldirishdi-da, ularni yana chakalakzor ichiga yashirishdi.

Afandi xumlarining har bittasiga esa haligi Guppidan olgan oq xaltalarni qoqib bo'shatishdi. So'ng darrov-darrov og'zini bog'lab joy-joyiga supaning yoniga qo'yib qo'yishdi.

## *NASRIDDINNING QUROLI*

**N**asriddin Afandining mirshablar tirg'alganda Abdukaringa o'xshab kuyib-yonmagani tushunarli bo'lsa kerak. Nasriddinning tirikchilik tashvishlari bu asalga, undan keladigan daromadga bog'liq emasdi. U dehqondan boyroq edi. Bog'ida mehnat qilish uchungina kuy-malanardi. Mehnati mahsulidan o'choq-qozoni ozod edi. Ro'zg'or tashvishidan erkinligi, Guppiga o'xshab

boylik orttirish istagiga qul emasligi dunyodagi ko'p mojarolarga tomosha sifatida qarashga imkon berardi. U hatto Laylakka g'imirlab borib kelishdan ham zavq olardi. Baloyi azim — boylikka qullik ko'p odamlarning inson sifatida ro'shnolik ko'rmay o'tib ketishiga sabab bo'lishini bilardi.

Nasriddinga o'xshab ana shu ikki kishidan ozod boshqa kishilar ham bor edi. Biroq Nasriddin Afandi ulardan farqli o'laroq faqat tomoshabin bo'lib turmasdi. U tomoshalarga aralashardi. Kerak bo'lganda voqealarni o'z istagi bo'yicha haqiqat tomonga, kambag'al, beva-bechoralar foydasiga baholi qudrat burardi. Qurol — so'zamolligi edi.

Hozirjavoblik, askiya, so'zga ustalik kabi xislatlarni ba'zilar sirli va noyob, ba'zilar esa bachkana va bir tiyingga arzimmas narsa deb baholab kelganlar. Ular ming yillardan buyon odamlar ko'ziga sirli, ko'pchilik uchun mutloqo tushunarsiz narsa bo'lib qoladi. Modomiki, tushunarsiz, sirli ekan ko'pchilik tomonidan u mensimay ham kelinadi. Darhaqiqat, hozirjavob qiziqchi, oddiy gapda ham kuldira oladigan odamning sehrini, meh-rigiyosini faqat uni eshitgangina, ko'rgangina biladi. Bil-magan, ko'rmaganga u juda jo'n, oddiy, hamma ham eplaydigan ish bo'lib tuyuladi. Natijada qiziqchi va so'zamol deb dong chiqargan kishi bilan bel bog'lashgisi kelaverdi.

Aytaylik, polvon deb dong taratgan odamning polvonligi gavdasida, mushtida yaqqol ko'zga tashlanadi. Kuch sinashmoqni niyat qilgan polvonning yelkasi-yu, gardani-yu mushtlariga bir qaraydi-yu, o'zining kelbatini solishtiradi, chog'i kelmasa, darrov pisib, shashtidan qay-tadi. Ammo so'zamollikni qanday solishtirasen? Zuk-kolikda maqtalgan odamning xususiyatlari polvonning mushtlariga o'xshab yaxlit-yaxlit ko'z oldingga kelmasa?!

Ana shuning uchun ham askiyabozlar o'rtasida janglar tez-tez qaytarilib turadi. Bunday «jang»larga butunlay noqobil odam ham tushishi mumkin. Uning noqobilligi na boshqalarga, na ayniqsa, o'ziga ko'rinmasligi ham mumkin.

Nasriddin Afandining mashhur bo‘lib ketishiga ana shu zukkolik janglarining o‘ziga xosligi, zukkolik «mushtlari»ning ko‘zga ko‘rinmasligi ham sabab bo‘lgan. Ne-ne mashhur mullalar, boylar, beklar, hattoki podshohlar ham Nasriddin bilan kuch sinashganlar.

Ko‘rinishi oddiy, qo‘y ko‘z, soqoli to‘q jigarrang, o‘rtadan xiyla baland, qotma bu yigitga zukkolik shohsuppasini hech-hech bergilari kelmagan. Qanchalik o‘qimishli, boy, qanchalik saltanatli bo‘lmasinlar, ular yuqorida aytganimiz — ikki baloyi azimdan birining quli bo‘lganlar. Qulning esa aqli ham kishan-da turadi. Boylikka hirs qo‘yishdan, ro‘zg‘or tashvishidan ozod Nasriddin Afandinikidek erkin fikr va xayol bilan bahslashishga yo‘l bo‘lsin?! Natijada, o‘sha g‘o‘dayganlar chilpar-chin ahvolda mag‘lub bo‘ladilar. Mag‘lub bo‘lgan sari g‘azablari ortib borardi.

Mag‘lubning shuhrati esa u yengilgan zahoti g‘olibga ko‘chadi. Ana shunday qilib, Nasriddinning shuhrati mamlakatga tarqalib, hatto undan ham hatlab ketgandi. Muhsin guppi ana shunday tushunmagan galvarslarning eng kichiklaridan biri edi.

Nasriddin Afandi jonini saqlash uchun o‘zini-o‘zi buyuk saltanatning eng chekka joyiga, ya‘ni Laylakka surgun qilgach, bir narsani sezdi. Uni hamma joyda bilisharkan, sevisharkan. To‘g‘ri, hayiqadiganlar, hasad qiladiganlar ham bor, ammo et-suyak bo‘lishga tayyorlar juda ko‘p ekan. Hamma joyda o‘zini musofir bilmasdan yashashi mumkin ekan. Bularni o‘ylaganda Nasriddin qalbida buyuk mag‘rurlik sezardi. Uning mag‘rurligi nopisandlikdan yiroq, butun yer yuzi vatani ekanligini tuyish edi, xolos.

### *KUTILMAGAN...*

**N**odir mirshab bilan Sodir mirshab asalni gumdon qilib, pinakka ketishni mo‘jallashmoqda edi. Chunki eshagi ming yo‘rtmasin, Nasriddinning qaytib kelishiga kamida bir-bir yarim soat vaqt kerak.



Gupponing: «besh tilla», «nazarga tushasanlar, shuhrating oshadi», degan gaplari ta'sirida avval mirshablarning ruhlari ko'tarildi, ketma-ket qo'shiq aytib, bir oz askiyabozlik ham qildilar. Keyin esa allaqaydandir o'rmalab kelgan xijillik yuraklariga asta kirib, ikkovlari ham xomushlanib qolishdi.

Ilgari oladigan yarim qop don, meva-chevaning sarxili yoki bitta-yarimta qo'ylari dehqonu sahroyi cho'ponga o'g'ri chumchuqning cho'qib qochishidek bir gap ekanini yaxshi bilishardi. Bugungi qilgan ishlari esa boshqacha edi. Avvalambor butunlay o'ljasiz qolishdan xavfsirab Abdukarimni ranjitdilar. Hay, Abdukarim — bir qishloqi dehqon. Arz-dodini kimga aytadi-yu kim unga quloq tutadi? Lekin Nasriddin Afandi masalasi, hozir o'ylab ko'rishsa, chatoqroq. Nasriddin Afandi arz-dodini hech kimga yetkazolmaydigan dehqon yoki cho'pon emas. Uni oddiy fuqarodan tortib bek-u amaldorgacha hamma biladi.

Xijillikning ildizi shunda edi. Bu xijillik ikki mirshabni o'tga solgan bo'lsa-da, Nodir bilan Sodir mard kishilar edi. So'z berdilarmi, bas o'sha ishni do'ndirishlari kerak.

Yana bir tomoni, Muhsin gupponing boyligi, qozikalon bilan tanish-bilishligi, unadigan besh tilla ularga tasalli berardi. Boz ustiga, nayrangning silliq chiqishiga, Nasriddinning hech narsa sezmay qolishiga ishonch ularning batamom tahlikaga berilib, «oh-voh» qilishlariga yo'l bermasdi.

«Bo'lar ish bo'ldi — bo'yog'i sindi», degan fikr ikkovining miyasiga deyarli bir paytda urildi. Shuning uchun Sodir mirshab, «birpas pinakka ketib, quloq bosdi qilaman», deganda Nodir mirshab, «men ham», dedi. Uyqu lashkarini turli yoqimsiz xayollarga qarshi xujumga qo'yib, mirshablar supaga cho'zilganicha ko'zlarini yumishdi. Mudroq endi yomon xayollarni quvib, tanlari oromga g'arq bo'lganida kimdir qattiq ovoza: «Assalomu alaykum!» dedi. Mirshablar: «A?» «Kim?!» «Qani?!» deganicha cho'chib, irg'ib turishdi.

Salom bergan Abdukarim edi.

— Yerdan chiqdingizmi, osmondan tushdingizmi? — dedi sal o'ziga kelgan Sodir mirshab.

— Ha, nega keldingiz? Darrov sotib keldingizmi? — Nodir mirshab ham bu savollarni cho'chiganini xaspo'shlash uchun berdi.

— Bozorga bormadim! — dedi Abdukarim tajanglik bilan. — O'ttizta xandalakka ovorai sarson bo'lib yuramanmi?

— Xo'sh, buyoqqa nega keldingiz? — Sodir mirshab ayblarini do'q bilan yo'qotmoqchi edi.

Abdukarim ham to'lib turgan ekan birdan baqira ketdi:

— Handalakni oldilaring! Endi uyga bostirib kirib tashga o'tdilaringmi? Qani xum bilan kashkulim?! Yana ichidagi tariqni shunday hovliga ag'darib ketibsizlar!

Bu gaplarni mirshablar rostdan ham kutishmagandi. Chunki Muhsin guppi kelishuv bo'yicha ulardan keyin Abdukarimnikiga kirib, idishlarining pulini tashlab o'tishi lozim edi.

— Muhsinboy haqini bermadimi? Tashlab o'taman devdi-ku! — deyishdi birin-ketin.

— Qaysi Muhsinboy? Qanaqa haq berish kerak edi?— hayron bo'lganicha og'zini ochib qoldi Abdukarim.

— Muhsin-chi, Muhsinboy-chi,— deyishdi mirshablar Guppining qiyofasini qo'l harakatlari bilan ifodalab.

— E, u Guppidan bir chaqa ham chiqmaydi, — dedi bu gal Abdukarim behafsala qo'l siltab. — Beringlar idishlarimni!

Sodir bilan Nodir tang ahvolda bir-birlariga qarab olishdi. Darhaqiqat, ayni paytda bir tomondan Nasridin Afandi kelib qolishi ham mumkin. Ikkinchi tomondan esa rosa qayralgan Abdukarim turibdi.

Ularning Guppidan toza jahllari chiqdi.

Aslida Muhsin guppi o'z nazarida bir o'q bilan ikki quyonna otmoqchi, ya'ni mirshablar qo'li bilan o'ziga tobe bo'lishni istamagan Abdukarimni yana bir ezmoqchi edi.

Nima qilganda ham mirshablar tomonidan Abdukarimga nisbatan hozir yaxshi muomala darkor edi.

— Menga qarang, — dedi Sodir ishshayib. — Guppi deb kimni aytdingiz?

— Kimni bo'lardi, Muhsinboyni-da!

— Rostdan Guppi ekan! To'nka ekan! Eshshak ekan!— dedi Nodir mirshab jig'ibiyroni chiqib,— Ko'r-sam bir boplayin...padar la'natini!

— Menga qarang, — dedi Sodir mirshab muloyimgina yolg'on so'zlab. — Sizdan keyin boy ikkita malayi bilan keldi. Bizga Abdukarimdan ikkita idish olib kelinglar, shu sardobadan suv olib uyga yuboraman, dedi. Biz xizmat haqimizni olib sizdan idish keltirdik. O'zi esa idishlaringizning aqchasini tashlab o'tmoqchi edi. Balki xotirasidan ko'tarilgandir. Balki qaytishda berar?

— Hech qanaqa xotira-potirasidan ko'tarilmagan! Guppi bilan oramiz chatoq. — Abdukarim juda ezilib gapirardi. — O'zlaringdan keyin meni indamay quvib o'tdi. Xah, o'shanda bilganimda-ya! Xullas yoki idishlarimni yoki haqini beringlar! Guppi bermaydi, tonadi.

— Beradi, tonmaydi! — dedi kuyunib Sodir mirshab. — Bugun bermasa erta berar, erta bermasa indin berar. Shunday qilaman, deb o'z tili bilan aytuvdi-ku, kofirmasdir so'zidan qaytadigan?!

— Boring endi, keting bu yerdan! — dedi Nodir mirshab sherigining gapi tugashi bilan.

— Sen jim tur! Men o'zim gaplashaman! — Sodir shunday deb Nodirni jerkidi-da, muloyim qiyofada Abdukarimga o'girildi.— Jon birodar! Agar pulim bo'lganda, hozir bervorardim. lekin yonimda bir miriyam yo'q, yolg'on aytсам til tortmay o'lay! — dedi.

«Qo'pol gap» eshitganidan hayron bo'lib og'zini ochib turgan Nodir mirshab sherigiga achchig'lanib so'z qotdi:

— Hoy, nas! Sen nega bu qo'sqiga yalinasan! Shart oyoq-qo'lini bog'lab tashlaylik! Ikki soat bujmayib yotsin, keyin biladi mirshablarga do'q qilishni!

— Sen jim tur! Kelib qoldi! — deb baqirdi Sodir mirshab va sekin Laylak tomon ishora qildi.

Sal hushyorroq bo'lgan Sodir mirshab Laylak tomondan yaqinlashayotgan qora nuqtani allaqachon sezgandi.

— Kep qoldi, deganingiz nimasi? — so‘radi Abdulkarim hayron bo‘lib.

— Sizgamas, ukajon, menga! — dedi Nodir mirshab birdan pis etgan pufakdek bo‘shashib. — Meni kechiring, qizishib ketdim. Boring, ukajon, idishlaringizning badalini biz olib beramiz! Olib bermasak, bolamizning yuzini ko‘rmaylik!

Mirshablar chorasizlikdan Abdulkarimni ikki qo‘ltig‘idan olishdi. Yalinib-yolvorib sekingina sudrab sardobadan chetga torta boshladilar.

— Bu qanaqa bedodlik! Men qoziga arz qilaman! — deya chiyilladi Abdulkarim.

— Arz qiling! Biz o‘zimiz siz tarafda guvoh bo‘lamiz! — derdi Nodir mirshab.

— Haqqingizni olib bermasak bola-chaqamizning yuzini ko‘rmaylik! — derdi Sodir mirshab bir gapni takrorlab.

Shu ahvolda mirshablar Abdulkarimni eshagi bilan birga yetaklab, ellik qadamcha nariga olib borib qo‘yishdi.

— Ikki mirshab guvoh bo‘lsa haqqingizni hech kim yeyolmaydi! Faqat hozir keting! — Nodir mirshab bu gapni xayr-ma‘zur o‘rnida aytdi.

Abdulkarim hayron edi. Mirshablarning yalinishlari, qasam ichishlari astoydil-ku! Bir gap bor-ov bu yerda, — deb o‘yladi u. — Sodir mirshabning: «Kep qoldi, degani nima ekan, a?..

Abdulkarim o‘ylanganicha nari ketdi-da, mirshablarning unga emas, qaytanga teskari tomonga olazarak bo‘layotganidan foydalanib, eshagini chap tarafdagi chakalakzorga haydadi. O‘zi esa orqaga qaray-qaray bilinar-bilinmas do‘nglikkacha bordi, cho‘nqayib o‘ng tarafga emakladi. Goh emaklab, goh engashgancha yashirinib, to sardobaning oldida o‘sgan chinorlar o‘zi bilan mirshablar o‘rtasida qolguncha yurdi. So‘ng, bir chinorni qora qilib asta sardobaga yaqinlashdi.

Sardoba oldida o‘sgan necha yuz yillik chinorlardan Abdulkarim mo‘ljallagan chinor g‘ovagi eng chakkadagisi edi. Bu chinorning tanasida sakkiz raqamiga aynan o‘xshaydigan g‘ovagi bor edi. Faqat bu «8» bir yoqqa sal qiyshaytirilgan, yana ham aniqroq aytilsa, bir-birining

ustiga qo'yilgan ikkita tuxumga o'xshardi. Ana shu ikki bo'lmaning har biriga kirgan odam tik turib, yana oyoq-qo'lini yozishi ham mumkin edi. Biridan biriga o'tish mumkin bo'lgan bu bo'lmalarning tashqariga qaragan teshiklari ham bor edi. Pastdaxisining teshigi sardobaga teskari, kattaroq va shundaygina og'zida o'sadigan buta bilan to'silgandi.

Yuqoridagi teshik esa handalakdek kelar va bir oz qiyshayib, sardoba tarafga qaragandi.

Shuni aytish kerakki, chinorda g'ovak borligini ko'pchilik bilmasdi. Bundan uch yillar muqaddam qaydandir kelib qolgan hindisifat gadoy bu g'ovakni maskan qilgandi. Keyin u gadoy qanday kelgan bo'lsa, shunday izsiz-nishonsiz yo'qolgandi.

Abdukarim yuz ehtiyotini qilib chinorga yaqinlashdi-da, pastdagi g'ovakka, undan esa tirmashib, siqilib, yuqoridaxisiga o'tib oldi. Shunda o'ttiz-qirq qadamlarcha naridagi mirshablar unga bemalol ko'rinadigan, gaplari eshitaladigan bo'ldi.

Nodir bilan Sodir Abdukarimni, ayniqsa, Muhsin guppini so'ka-so'ka egni boshlarini qoqib, salla pechlarini tuzatardilar. Nasriddin Afandi xirgoyi qilganча ularga yaqinlashar edi.

Asalidan mosuvo bo'lganidan bexabar mullaning ashula aytishini qara!— dedi Nodir mirshab, ikki og'ayni kulishdi. Odatda bu toifadagi odamlar kayfi chog'likni darrov tiklashga, xushchaqchaqlikka moyil bo'lishadi.

— Hoy, mahkam bo'lgin-a! — dedi Nodir mirshab rahbarlikni qo'liga olib. — Tuya ko'rdingmi?

— Yo'q, — dedi Sodir mirshab.

— O'raga sichqon tushdi.

— Guldin-gup!

Ikkovi yana qihillab kulishdi. Keyin supada yonmayon o'tirishib, mo'min-qobil qiyofaga kirishdi.

*Toshqin daryo, zo'rman debon kekkayma,  
ho kekkayma!*

*Saratonda tomchi suv ham bo'ladi orzu...*

Nasriddin Afandi eshakdan tushgandagina xirgoyisini to'xtatdi-da, beg'ubor kinoya bilan gap qotdi:



— Yaxshi o‘tiribsizlarmi, saltanat ustunlari?

— Saltanat ustunlari yaxshi o‘tiribdi, — dedi Sodir mirshab Afandining kinoyasidan aftini sal burishtirib. — O‘zingiz omon-esson borib keldingizmi?

— Shukr, borib hujjatni olib keldim. Mana!

Nasriddin qo‘ynidan kichkina qog‘oz parchasini olib uzatdi. Qog‘ozni olgan Nodir mirshab, uyoq-buyog‘ini ag‘darib ko‘rdi, so‘ng Sodir mirshabga uzatdi. Sodir mirshab ham qog‘ozning uyoq-buyog‘ini qarab, Nasriddinga qaytardi:

— Joyida muhri, imzosi bor, yaxshi! Ana, asalingiz turgan yerida turibdi. — So‘ng Nodir mirshabga yuzlanib, o‘rnidan qo‘zg‘oldi. — Ortishvoraylik-a? Afandim ancha ovora bo‘ldilar... — dedi.

— Albatta, — dedi Nodir mirshab ham dik etib o‘rnidan turib.

Shundan keyin ikki oshna: «Siz qo‘yaving, Afandim, xurjuningizga o‘zimiz solib beramiz!» degan gapni biri olib-biri qo‘yib, xumlarni xurjunlarga solishdi. Ayyorlik bilan shunday ko‘tarishdiki, ko‘rgan odam xumlar hali ham to‘la va og‘ir deb o‘ylardi.

Nasriddin Afandi: «Yashanglar! Rahmat sizlarga!» deganicha jilmayib kuzatib turdi.

— Ana! — dedi Sodir mirshab qo‘lini qo‘liga urib changini qoqqandek.

— Ana! — dedi Nodir mirshab xuddi o‘shandek kaftini kaftiga urib. — Eshakka mining-da, jo‘nayvering!

— Shundaymi? Jo‘nayveraymi? — Nasriddin Afandi shunday deb xum solingan xurjunning bir tomonini ko‘tarib ko‘rdi.

— Iya! — dedi u hayron jilmaygancha. — Ha, bu yengil bo‘lib qolibdi-ku?!

— Nega yengil bo‘lib qolarkan? — dedi Nodir mirshab yasama hayronlik bilan.

— Qiziqmisiz, o‘zidan-o‘zi yengil bo‘lib qolaverarkanmi? — dedi Sodir mirshab ham undan qolishmay.

So‘ngra mirshablar o‘sha xurjundagi xumni ikkovlashib ko‘tarishdi.

— Zildek og‘ir-ku, ikkovlon bazo‘r ko‘tarib turibmiz,— deyishdi ular xumni qo‘ymay.

Nasriddin zavqlanib kuldi.

— E-e, qo‘yinglar, qo‘yinglar! Yana uzilib qolmanglar! — dedi.

— Ha, nega yengil bo‘lib qopti deysiz? — so‘rashdi ikki oshna hamon hayron qiyofada.

Nasriddin ularning gapiga e‘tibor bermay narigi xumning bog‘log‘ini shoshilmay yechdi-da, qopqoq qilingan lattani ko‘tardi. Xumning ichidan bir gala pashsha g‘uvillab uchib chiqib har tomon tarqab ketdi. Nasriddin qo‘li bilan yelpina-elpina xumning ichiga mo‘raladi:

— Bo‘sh-ku?!

Bu xitobdan keyin mirshablar xumli xurjinni qo‘yib yuborishdi. Nasriddin eshakning berigi tomoniga o‘tdi-da, ikkinchi xumni ham ochdi. Yana bir gala pashsha qutulganiga shukr qilgandek g‘uvillab, tashqariga otildi. Uch-to‘rttasi xumning chetiga, Nasriddinning egniga ham o‘tirdi. U yana yelpina-elpina, xumning ichiga mo‘raladi. Shu ko‘yi ikki kiprik qoqqunchalik turdi-da, zavq bilan qiyqiriqqa o‘xshatib kulib, mirshablarga o‘girildi va shunday dedi:

— *Nasib etsa kelar Shomu Iroqdin,  
Etmasa gar, ketar qoshu qaboqdin!*

Xafa bo‘lish o‘rniga Nasriddinning kulgani, she‘r aytgani mirshablarni juda qo‘rqitib yubordi.

— Nega bizga qaraysiz? Ha, nega bizga qaraysiz? — deyishdi payopay ranglari o‘chgancha.

— Asal osmonga uchib ketibdi-da?!

— Biz qattan bilaylik! Qo‘limizni uchiniyam tekkizmadik! — dedi Nodir mirshab.

— Ko‘z qirini ham tashlamadik! E, xudo, quruq tuhmatga qomasam yaxshiydi! — dedi Sodir mirshab nado-mat bilan.

Nasriddin endi achchiqroq jilmayib, goh unisiga, goh bunisiga qaradi:

— Qo‘llaringdan bu ish kelmaydi! — dedi u o‘ychan qiyofada.

— Ie, nega odamga bunday qaraysiz?! — dedi Nodir mirshab.

— O‘zi bormidi asalingiz? Yoki bizni mazax qilmoqchi bo‘ldingizmi? — so‘radi Sodir mirshab dadillashib.

Nasriddin javob bermadi. Kinoyali, sinchkov jilmay-gancha sallasini sal surib, bosh qashingancha supaga borib o‘tirdi. Bir nuqtaga tikilgancha zo‘r berib nimalarnidir xotirlay boshladi. Mirshablar diqqat qilganlarida uning asalga achinmayotganini, boshqa narsani o‘ylayotganini sezardilar. U: «Qo‘llaringdan bu ish kelmaydi!» degan gapdan benihoya shodlanganliklaridan o‘zlarini yo‘qotib qo‘yishdi. Bir-biriga im qoqishib, hamdard Nasriddinning yoniga cho‘kishdi.

— Tavba, sizlarning qo‘llaringdan bunaqa ish kelmaydi, — dedi Nasriddin takrorlab. — Asal qayoqqa ketdiykin?

— Tavba, — dedi Nodir mirshab ham qo‘lini paxsa qilgancha. — Ha, bu og‘zi bog‘liq bo‘lsa! Qo‘l tekkizilmagan bo‘lsa! Qayoqqa ketadi asal, a?

Sodir mirshab birdan peshonasiga urib baqirdi:

— Topdim!!! Asalni kim gumdon qilganini topdim!

Nasriddin indamay qarab turaverdi. Nodir mirshab: «Kim? Kim?» deb so‘radi.

— Haligi bog‘log‘ini yechganda ichidan g‘uvillab uchib chiqqan pashshalar! O‘shalar yegan asalni!

— Yo‘g‘-e! — Nasriddinning yuziga tabassum doridi.

— To‘g‘ri! — dedi Nodir mirshab. — Aqlingga balli!

— Be-e, qo‘ysanglar-chi! — dedi Nasriddin soddalik bilan. — Shu uch-to‘rtta pashsha ikki xum asalni yeya olarkanmi?

— Yo‘q, Nasriddin aka! — dedi Nodir do‘stinning bu fikriga yopishib olib. — Pashshalar uch-to‘rttamas, qirq bitta edi.

— Ho, ho, ho! Qirq bittaligini qayoqdan bila qoldingiz?

Nodir mirshab kalovlandi:

— Men, a...men...o‘zi yoshlikdan zehnim o‘tkir!

— Ha, — Sodir sherigiga yordamga oshiqdi. — Buning ota-bobosi cho‘pon o‘tgan. Otardagi qo‘yni sanayverib o‘rganib ketgan-da!

— To‘g‘ri, — dedi Nodir. — Oldimdan qancha pashsha o‘tganini ham shundoq qarab aytib beraveraman.

— O‘! Zo‘r ekansiz!

Nasriddin sallasini boyagidan boshqa tomonga surib, bosh qashib, o‘yga cho‘mdi.

«Zo‘r ekansiz, zo‘r ekansiz» ni g‘o‘ldirab takrorlab o‘tirdi. Bu orada mirshablar sevinib imo-ishoralar qilishardi.

Nasriddin tuyqusdan tizzasiga «shap» etib urib, «xo‘p!» dedi. Mirshablar sapchib tushishdi.

— Demak, asalimni pashsha yegan, shundaymi?

— Shunday, shunday! — dedi Sodir mirshab.

— Qirq bitta pashsha! — ta‘kidladi Nodir mirshab.

— Xo‘p!— dedi yana Nasriddin Afandi.— Men ishondim. Endi-chi, saltanatning suyangan tog‘lari, menga o‘sha qirq bitta pashshadan qasos olishga yordam berasizlar! Yaraydimi?

— Yaraydi! Yaraganda qandoq — dedi Sodir mirshab.

— Qirq bitta tugul mingta bo‘lmaydimi? — Nodir mirshab shap etib supaga qo‘ngan pashshani urdi. — Mana, bittasini tinchitdim... Uh! Ha, padaringga la‘nat qochib ketdi!

— Yo‘-o‘q.— Nasriddin bosh chayqadi.— Menga bunaqasi ketmaydi.

Mirshablar, xo‘p nima qilaylik, degandek hayron bo‘lib qarashdi.

— Hozir qozining oldiga boramiz, xo‘p denglar, men asalimni yeb ketgan pashshalarni jazolashga vakolatnoma so‘rayman, xo‘p denglar! Sizlar guvoh bo‘lasizlar.

Bu gapni eshitgan mirshablar xaxolashdan o‘zlarini to‘xtatolmay qoldilar. Bir-birlarining kulishiga, ayniqsa, Nasriddinning soddalik bilan jilmayib turishiga ko‘zlari tushgan sayin kulgilari avjlanib, o‘zlarini to‘xtatolmay qoldilar. Bora-bora nafasleri ichlariga tushib ketdi. Bukchaygancha chiyillab Nasriddinga barmoq nuqqancha, «pashsh...pashsha... o‘ldirish...vakolat», deb gapirmoqchi bo‘lardilar-u, kulgining zo‘ridan so‘zlolmasdilar. Jilmaygancha qarab turgan Nasriddin Afandi ham ularga qo‘shilib ketib avval xaxoladi, so‘ng u ham bukchaygancha ovoz chiqarmay, mirshablarga barmoq nuqqancha «pashsha, vakolat» deb, qolganini gapirolmay kulardi.

Nihoyat, uchovi o'kirib-bo'kirib bazo'r o'zlarini to'xtatib olishdi.

— Obbo, Nasriddin Afandim-ey! Ha, pashsha o'ldirishga ham vakolatmi? — deyishardi mirshablar, ko'z yoshlarini arta-arti. — Mana, atrofingizda uchib yuribdi. O'ldiravering! Kuchimiz yetgancha biz ham yordamlashamiz, qiladigan ishimiz yo'q.

Shunday deb mirshablar supani aylangancha pashsha o'ldirishga tushib ketishdi.

— Hoy, bunaqasi ketmaydi dedim-ku! — deya to'xtatdi ularni Nasriddin.

— Ha, nima qil deysiz?

— Qoziga boramiz! Guvoh bo'lasizlar, tamom vassalom!

— Be-e, qo'ysangiz-chi! — dedi Sodir mirshab.

— Men sizni hazillashyapsiz deb o'ylabman, — dedi Nodir mirshab.

— Hazillashayotganim yo'q!— Nasriddin go'yo do'stlariga hasrat qilayotgan odamdek, mirshablarni yoniga o'tirishga da'vat qilib, asta gap boshladi. — Menku pashsha vajiga ishonдим. Ammo...Bundan yetmish-sakson yillar ilgari ellikboshi Boltavoy to'lak degan, saltanatning hamma dushmanlari zirillaydigan bir odam o'tgan.

— Xo'sh, nima qipti? — so'radi Nodir mirshab ensasi qotib.

— Boltaboy ellikboshi shahanshohimizning bobolari — Otsiz hazratlari davrida yasovulboshi bo'lgan, hozirgi qutlug' shohimiz — Muhammad hazratlarining ham ko'p hurmatlariga loyiq edi.

— Ha, nima bo'пти? — yana so'radi Nodir mirshab.

— Men shu Boltavoy ellikboshining nabirasiga uylanganman. Agar xotinimga boribmi, mirshablarning tumshug'i ostida turgan asalni pashshalar yeb ketibdi deb, quruq gapni aytsam, o'la qolsa ishonmaydi. Qozi-pozi, bek-mek qilib o'tirmay, to'ppa-to'g'ri Urganchga xabar qiladi. Kumushkentda haqiqat yo'q, allaqanday puldorlar mirshablarni ishga solib odamlarni talayapti, deydi. Ana undan keyin ko'rasiz tomoshani!

Nodir mirshab bo'shshib ketdi. Nasriddin nasihat ohangda davom etdi:

— Shuning uchun gap chuvalmasin-da, borib vako-latni olaylik. Men ham uni xotinga ko'rsatib tinchiyman, sizlar ham g'alvaga qolmaysizlar. Yaraydimi?

Mirshablar ko'zlari ola-kula bo'lib, darrov qoziga borishga ko'nishdi. Sodir mirshab sherigiga astagina g'o'ng'illab qo'ydi: «Aytuvdim-a, Nasriddin Afandiga tegmagan odam foyda qiladi, deb!»

Nasriddin eshagiga mindi, mirshablar otiga. O'ljalar qolayotgani uchun bir-ikki orqalariga qarab qo'ydilar-u. noiloj Nasriddining ketidan yo'lga tushdilar.

Ular olislab ketgach Abdukarim kavakdan chiqdi. Supaga kelib o'tirdi-da, yerga qaragancha o'yga toldi. Har zamonda: «Obbo, yaramaslar-ey!» deb qo'yardi. Keyin bir qarorga kelgandek o'rnidan turdi. «Nima bo'lsa bo'ldi!» deb ro'zg'or tashvishlariga qo'l siltadi. Eshagiga o'tirib, Nasriddin Afandi va mirshablarni qora qilgancha shaharga yo'l oldi.

## QOZIKALONGA BO'XCHA

**H**am tijorat, ham sayohat iborasi Muhsin guppi-ning bugungi shaharga tushishiga to'g'ri kelmasdi. Uniki bugun faqat tomosha-yu qozi kalonning suhbatini olish edi. Muhsin guppi shaharning katta qozisi bilan tanishligini juda qadrlar, sharoit maqtanishni taqazo etgan joyda: «Kecha qozikalonnikida ziyofatda bo'lib edim...», «Erta qozikalondan maslahat olaychi...» singari jum-lalarni ikki gapning birida takrorlab turardi. Qozikalon ham eng kamida bir bo'xcha ko'tarib keladigan bu qishloqi boyni hech qachon ko'krigidan itarmasdi.

Qozixona bozor chekkasidagi qator olti timning uchinchisiga tirkashib tushgan bir qavatli imoratni egal-lagandi.

Olti timdan keyin don bozori, u non bozorning cho-ragidan sal ortiqroq qismini egallar va bu chorak qism-ning o'zi ham maydonning burchagida edi. O'rta esa

kosib, hunarmand, tikuvchi va har xil mayda-chuyda sotuvchi yoymachilarniki edi. Qovun-tarvuzning sal chekkaroqdaligini aytmasa meva-cheva ham shu yalang'och maydonga o'xshovchi o'rta bozorda sotilardi. O'rta bozordan keyin yana bir — xarsang yotqizilgan, eni ellik, bo'yi yuz qadamcha keladigan, yoymachilardan xoli tomosha maydonchasi bo'lardi. Unda odamlar sayr qilar, dorbozlar, sayyoh, mashshoq va masxarabozlar shu yerda hunar ko'rsatib tirikchilik qilardilar. Tomosha maydonchasidan keyin, qissamizning chapanilarga bag'ishlangan bobida eslatilgan puldor va uzoqdan kelgan savdogarlar uchun mo'ljallangan peshayvonli karvonsaroy baland qilib qurilgandi.

Bugungi bozor juda qizg'in va qandaydir yengil-quvnoq edi. Pattachilar dehqonu kosibga unchalik zug'um qilishmas, onda-sonda bir ko'rinayotgan misrang soqolli mirshabning basharasida ham yaltoqlanish ifodasi bor edi. Boisi bugun bekning qadam ranjida qilish ehtimoli bor edi. Bundan faqat bozorboshi, pattachi, mirshab, karvonsaroyning egasi-yu uning malaylari xabardor edilar. Qozikalon ham, turgan gap, shu xabardorlar toifasiga kirardi.

Muhsin guppi esa avom xalq qatorida bu gapdan be-xabarlardan biri edi. U vag'ir-vug'ir ichra, qo'lini orqasiga qilib bitta-bitta tasbeh o'girib ketarkan, yo'lida uchragan deyarli har bir molning narxini surishtirar, bu ketishida hali-beri qozixonaga yetishi gumondek ko'rinar-di. Sirasini aytganda, Guppi shoshmasdi ham. Bugun u Nasriddin Afandini go'l qilgani uchun o'zini baxtiyor sezardi. Ayniqsa, bir burda non uchun o'lib-tirilayotgan bozordagi kambag'al bechoralarni, ko'r, cho'loq, maymoq hamda go'dak-tilanchilarning uzatilgan qo'llarini ko'rarkan, xudo yarlaqagan banda ekanligiga shukr qilib hamdlar aytardi.

Guppi bir joyda to'xtab osmonga qaradi-da, oftobning turishidan vaqtni belgiladi. Mirshablar bilan uchrashuvni u qozixonaga tayinlagan, bunga hali kam deganda ikki soatcha bor edi. O'sha yerda mirshablarning bayqilingan tillasini bermoqchi, Nasriddinning go'l bo'lga-

niga qozini ham guvoh qilmoqchi edi. Qozi orqali gap shaharning kazo-kazolari doirasiga yog‘ilishini, ulardan «qani, laylaklik donishmand Muhsin boy bilan biz ham tanishaylik», degan iltimoslar chiqishini mo‘ljallagan edi.

Qozikalon bilan bo‘lajak uchrashuvni eslarkan, o‘n-o‘n beshta qator yoyilgan qandolatchiga ko‘zi tushdi. Sandig‘i ozodaroq, rangi za‘faron jikkakkina qandolatchini uzoqdan tanlab unga yaqinlashdi. Qandolatchi ikki bukilib, dastro‘molidagi chaqalarni sanardi. Uning o‘ziga o‘xshagan jikkak, o‘n yoshlardagi o‘g‘li likobchadagi ozgina holvani uzatgancha biyron sayrab ketdi:

— Keling, amakijon, holvadan bir yeb ko‘ring! Mazasini bir ko‘ring!

Muhsinboy ozgina totinib, mazasini sinaguncha ham bola tinmadi. Muhsinboyga holva yoqdi. O‘xshovsiz ovoz chiqarib, qo‘sh belbog‘laridan birini — toza doka ro‘molni yecha boshladi.

— Qancha tortay, amakijon? Munaqasini boshqa topolmaysiz. Asqartog‘ning kiyik o‘tlari, kunjutidan qilingan. Ta‘mi og‘zida qoladi, shifoligi yonizda!

— Bas! — dedi Muhsin guppi ro‘molni to‘rt burchagidan ushlab xalta qilarkan.

— Qancha tortay, amakijon? Bunaqasini Makkadan ham topolmaysiz. Shifosi yonizda qoladi!

— Bas qil-e, olyapman-ku, — jerkidi Guppi. So‘ng bir chekkada uyulib turgan to‘rt bo‘lak holvaga imladi. — Ana shularni sol!

Qandolatfurushning bir qulog‘i savdoda bo‘lgani uchun chaqa hisoblashdan chalkashib boshqatdan hisob-kitobga tushdi.

— Pashmakdan sol! O‘n to‘rtta,— deya buyurdi Muhsin guppi. Tuzukroq mijoz kelganini anglab, qandolatfurush sanoqni yig‘ishtirdi.

— Keling, mulla aka! Novvotdan ham oling. Qahraboligini qarang!

— Soling to‘rt kallasini!

— Xo‘p bo‘ladi, mulla aka. Qay birini deysiz?

— O‘zingiz tanlang, katta-katta, to‘kisidan! — qandolatfurushning «mulla aka»si Muhsin gupini tag‘in ham yayratvorgan edi.



Ota-bola birgalashib novvotni tugunga asta-asta qo'yishdi.

— Ushlang!

Guppi tugunni bolaga berdi. So'ng shoyi mursagi-ning barini ko'tarib, qimmat hamyonini ushlab qo'yib, arzon hamyonini olib ochdi.

— Bo'ladimi? — so'radi u qandolatfurushga ikki chaqa uzatib.

— Insof qiling, mulla aka!

Guppi kam berganini o'zi ham bilardi, qandolatfurushning uzatilgan kaftiga yana bir chaqa tashladi.

— Qulluq, mulla aka!

Guppi boshqa tag'in bitta ikki chaqalik olib, bolaga berdi:

— Mana bunga o'nta shirmoyi olib, qo'shib tugasizda, keyin meni qora qilib qozixonaga borasiz, tuzukmi?

Guppi, «tuzukmi?» deganini bolaga ruxsat olish uchun qandolatfurushga qaratgandi. Uning roziligi bilan yana bolaga yuzlandi.

— Agar meni yo'qotib qo'ysangiz, qozixonaga kirib tashlab chiqavering, tuzukmi?

Bu safargi «tuzukmi» so'rog'i bolaga qaratilgandi. Undan ham rozilik olgach. Guppi qo'lini orqaga qilgan-cha yo'lga tushdi.

Bir tomonida handalag-u, sabzi-piyoz-u, ertagi ko'k olmagacha, bir tomonida esa kosib hunarmandning mol-lari yoyilgan qatordan ketarkan, diqqatini sariq kir xalta ustiga terilgan yigirmatacha pichoq tortdi. Bir-bir yarim qarichli xonaki pichoqlar ichida bitta xanjar ajralib turardi. Uning oq po'latdan qilingan uzun tig'i, yo'g'on das-tasi, sopiga kiydirilgan mis halqachalari yaraqlab ko'zni olardi.

Muhsin guppi cho'nqayib, xanjarni oldi. Tig'ini tir-noqqa urib, sopini silab uzoq qaradi.

— Nech pul? — so'radi Guppi. Baland bo'yli, chayir pichoqni tosh bilan qo'lidagi suyakni yo'narkan, gup-pining aftiga qaramayoq javob berdi.

— Chorak tanga.

— I-i! Buncha osmondan kelasiz?

Pichoqchi indamay suyak yo'nishda davom etar, qorayib ketgan yuzidan tajangligi sezilib turardi.

— Bitta temirga o'lgan ho'kizzi suyagini tiqib... Pul topish ham oson bo'b ketibdi-da!.. Tig'i ham o'tmasgina ekan...

— Nimasi o'tmas?! — deya pichoqchi Muhsin guppi-ga qaragandi, xanjar uning qo'lidan tushib ketdi. — Tig'ni tushunasizmi o'zi?

Pichoqchi engashib xanjarni oldi. Yonida turgan oti-ning dumidan bitta tolasini shart yulib osmonga otdi-da, xanjarni bir siltab tolni ikkiga bo'ldi. Xanjar uning qo'lida o'ynab ketgandek edi. — Buni tig' deydi! Ana ularni pichoq deydi! Sizga o'shalar mos!

Muhsin guppining kayfi chog'ligidan bunaqa mayda kinoyalar ta'sir etmasdi. U pichoqchini battar qizitmoqchi bo'ldi-da, jilmayib gap qotdi:

— Men yarim tanga beray, siz yoniga bitta kichkina pichoq qo'shing! Kichigini bolalar o'ynar, bunisida xotin-xalaj sabzi to'g'rar.

— Ho-ho-o! Katta turasiz? — pichoqchining bit ko'zlari yanada kichraydi. Ayting, hammasini bir xaltaga solib uyingizga oborib beray?!

Pichoqchining vajohatidan Muhsin guppi ildam turib indamay jo'nab qoldi.

— Ho'v, taqsir! — baqirdi orqasidan pichoqchi. — Qaysi qishloqdansiz? Bunaqa aqlli kallalar qattan chiqishini bilib qo'yaylik?!

Guppi qo'l silkib qadamini tezlatdi. Bir oz nari ketib, asta hiringladi-da: «Achchig'i tez ekan, qistaloq!» — deb qo'ydi.

Shu soniyada uning oldidan bozorboshi va misrang soqolli mirshab it quvg'an gadoydek hovliqib, karvon-saroy tomon o'tib qolishdi. Muhsin guppi ular ketidan qaragandi, karvonsaroyning baland peshayvonidagi g'ivir-g'ivir harakatga ko'zi tushdi. Yasangan to'ralar, qilich taqqan navkarlar ko'rindi. Peshayvonga gilamlar, ko'rpachalar to'shaldirdi.

Atrofdan, «qadam ranjida», «bek kelarmish», «xalqni so'rmish», degan mish-mishlar eshitildi.

Muhsin guppi hovliqib, o'sha tomon yurganda ortidan bolaning ovozi eshitildi:

— Amakijon, men keldim.

Muhsin guppi o'girildi. Qandolatchi bola uning non qo'shib bog'langan doka tugunini uzatib turardi.

— I-i! Bay qozixonagacha edi-yu? — dedi jilmayib Guppi. — Yur ketimdan.

— Boshqa yoqqa ketyapsiz-ku! Oling tuguningizni!

— I-i! Qistaloq, bekni ko'rmaysanmi? Yur!

— Otamdan ruxsat tegmagan. Urishadilar.

— Qaytimni bermaysanmi? — mug'ambirlik qildi Muhsin boy.

— Voy, anuvlani! Xizmat haqqim-chi? — Bola qo'lidagi bir chaqalikni orqasiga yashirdi.

— Ha, qistaloq! Bor bo'lmasa qozixonaga tashlab qo'y! Laylaklik Muhsin boy bervordilar, hali zamon o'zlari ham kirarkanlar, degin!

Bola, «xo'p, bo'ladi, amaki!» degan cha g'oyib bo'ldi.

Bekning «qadam ranjidasi»ni eshitgan besh-oltita bekorchi tomosha maydonga to'planib qolgandi. Muhsin guppi tezroq borib joy olmasa tomoshadan maza qilmasligini tushundi. Qozikalon ham shu yerga kelishi aniq. Shuning uchun qozixonaga borishni keyinga surib, maydonchaga shoshildi. Peshayvon bilan orasida yigirma-o'ttiz qadamcha joyni chamalab, belidan yana bitta chit belbog'ni bo'shatib, yerga to'shadi. «Bismillo» deb o'tirib oldi-da, atrofdagilarga karillab korchalonlik qildi.

— Qani qatorimda cho'klaring! Oldinroq o'tsanglar baribir yasovullar surib tashlaydi.

Peshayvondagi tayyorgarlikka anqayib turganlar biri ildam, biri ikkilanib, biri narsa to'shab, biri to'shamay, uning yon-verisiga tappa-tappa o'tirishdi.

## ***QADAM RANJIDA***

**O**radan besh-olti soniya o'tar-o'tmas, karvonsaroy biqinidagi xarsang yotqizilgan tor ko'chadan taqalangan tuyuqlarning chaq-chuqi, otlarning kishnashi eshitildi. «Po'sh-po'sh» degan cha semiz-semiz to'rt sarboz,

ketma-ket quyundek bo‘lib qirq chog‘lik xipcha, novcha navkar-yasovullar kirib kelishdi. Ko‘chani to‘g‘oni ochilganu undan otliqlar oqib chiqqanga o‘xshardi.

Yasovullar ildam-ildam piyodalanib, otlarni sayis-larga topshirishdi-da, peshayvonni o‘rab tizilishdi. Muhsin guppi marrani to‘g‘ri tanlagan ekan. Qirq yosh-lardagi yasovulboshi uning oldidan o‘tarkan, tomoshata-lablarni orqaroqqa surishni ham mo‘ljalladi-yu, niyatidan qaytdi.

Bu paytda meva-cheva qatoridagi yakkam-dukkam oldi-sottini hisoblamasa bozor huvillab qolgandi. Tijorat ahli do‘konlarini ochiq qoldirgancha karvonsaroy choy-xonasining atrofiga yig‘ilgandi. Hatto zargar do‘konlari ham eshigiga chizimcha bog‘lagancha tashlab kelingandi. Pattachi bilan mirshabgina har ehtimolga qarshi, bozor ichkarisiga kirmay, bir chekkada ko‘z-quloq edil-ar. U paytlarda sotuvchisi bo‘lmagan rastalarga birov kirmasligi odat edi. Bolalarga ham bemahal bozor ichidan o‘tmagan, qo‘qqis birovning narsasi yo‘qolib qolsa: «Bu yerdan kim o‘tuvdi — palonchining bolasi o‘tuvdi», degan gap chiqadi, deb ta‘lim berishardi.

Atrofdagi tomlar, boloxona, devorlar odamga tiqilib ketdi, ba‘zilar yakkam-dukkam daraxtlargayam chiqib olishdi. Bekning qaddi-qomati-yu, savlat-saltanatini ko‘rish har kimga ham nasib etavermasdi.

Muhsin guppi saroydan olib kelishgan kungurador suyanchiqli kursining shundoqqina ro‘parasiga — peshayvonning qoq o‘rtasiga qo‘yilganini ko‘rib, sevin-ganidan yuragi hapriqib ketdi. Axir, bekka shundoqqina yuzma-yuz o‘tiradi. Ayvongacha o‘ttiz, ayvon chekkasi-dan kursigacha yana o‘n, bor-yo‘g‘i qirq qadamdan bekn-i ko‘rib turadi! «Bugungi kunimdan o‘rgilib ketay!» derdi Guppi ichida.

Guppinig o‘zigina emas, olomonning bari xursand edi. Hozirgi zamonning tomoshaga to‘ygan odamlari buni his etishlari qiyin. Biroq bek berayotgan tekin tomosha — dor o‘yin, kurash, yallachilarni, bekning o‘zini ko‘rish, uning haqiqat qilishiga shaxsan guvoh bo‘lish u zamon odamlari uchun bayramning o‘zginasi edi.

Hademay olomon guvillab ayvondagilar tipirchilab qolishdi. Tor ko'chadan yana tuyoqlarning chaqa-chuqi eshitildi-da, tig'iz saflangan yasovullar va yasangan to'ralar qurshovida bek chiqib keldi. O'ttiz yoshlardagi, andak to'lisha boshlagan-u, biroq qomatining orastaligi buzilmagan, oq yuz, to'q jigarrang soqolli, chag'ir ko'zli chiroyli yigit edi u.

Bek otdan epchil sakrab tushdi. Zinapoyalardan ham yengil qadamlar bilan uchib chiqib kursining oldiga keldi-da, xalqqa ta'zim qildi. Bu Muhsin guppidan boshqa hammaga xush yoqdi. Chunki Guppi, bekning otdan vazminlik bilan birovlar tomonidan qo'ltiqlangan holda tushishini, peshayvonga ham bitta-bitta to'ralar qurshovida salobatli chiqishini istab, kutib turgandi. «Bu obro' bo'lardi! Undan keyin xalqqa ta'zimi nimasi? Bir nazar tashlab, bosh irg'ab qo'ysa bo'ldi-da!» Guppi shunday o'ylardi.

Ta'bi tirriqlangan ko'yi peshayvondagi kazo-kazolar orasida qozikalonni ko'rgach, yana birdan ochilib, ketdi. O'zining do'sti o'sha yerdaligidan mag'rurlanib, ko'ryapsanlarmi, degandek yon-veriga qarab qo'ydi.

Ta'zimdan keyin uzoq umr tilovchi duolardan iborat bir guvillash ko'tarib bosilgach, bek farmonbardorga qisqagina nimadir dedi. Peshayvondagilarning hammasi joyiga o'tirdi.

Shundan so'ng odamlar yana bir mo'jizaga guvoh bo'ldilar. Bu tor ko'chadan chiqib kelgan jangovar fil edi. Boshdan-oyoq maxsus sovut kiydirilgan, ustiga muhoraba uchun mo'ljallangan ko'shk qo'ndirilgan fil ayqirib o'yin tushib chiqib keldi. Olomon qo'rquv va hayratdan lol qolgandi.

Bekning odamlarni karaxt qilishga mo'ljallangan tomoshasi boshlangandi. Tayyor turgan jarchi — filbonlar yordamida ko'shkka chiqdi-da, bozor maydoni uzra uning kuchli ovozi yangradi:

— E-ey-y! Odamlar-u odamlar! Tog'dan tushgan, bog'dan kelgan odamlar, shardan' chiqqan odamlar! Tog'dan bol obkelganlar, cho'ldan mol obkelganlar,

<sup>1</sup> Shahardan demoqchi.

bog'dan gul opkelganlar! Olohning yerdagi soyasi shahanshoh Muhammad Xorazmshohning viloyatimizdagi beklari Arslonbek ibn To'g'rubek ibn Do'nanbek hazratlari bugun raiyatdan hol so'rashga qaror qildilar.

Kimda-kim begunoh xo'rlangan, jabrlangan, ta'qibga olingan, quruq tuhmatga qolgan bo'lsa — bugun butun mushkullari qushod bo'lg'ay!

Do'nanbek janoblariga o-olqishla-ar!

«Olqish! Olqish! Olqish» Inshollo!» deb guvilladi olomon. Jarchi davom etib, bekning marhamati ila, dorbozlar, yallachilar hunar ko'rsatishini, polvonlar o'rta tushajagini e'lon qildi. Bironta ham polvonning sovrinsiz qolmasligini, baxti kulganlar bekning nazariga tushib, navkarlikka olinishlarini uqtirdi.

Jarchi bu gaplarning kashtasini keltirib, orasiga hamdu sanolar qo'shib uzoq gapirdi. Bozor maydonining salkam yarmini, atrof imoratlarning tomu boloxonalarni, timlarning ustini egallagan besh mingdan ziyod odam, o'rta bo'yli semiz jarchining gavdasiga xos bo'lmagan baland ovozini bemalol eshitar va va'da qilinayotgan tekin tomoshalarni intiq kutar edilar. Shu asno, boya aytilgandek, meva-cheva rastasida siyrak savdo ham davom etardi. Undan tashqari, olomon o'rtasida turtinib-surtinib aqcha ishlayotgan ikkita suvchigina g'imirlab yuradi.

Oqarib ketgan ko'k yaktakli bir suvchi «obi xudoyi», «obi xudoyi» deganча Muhsin guppining orqasidan o'tib qoldi. Guppi o'girilib ishora qilgandi, «chashmai Qopqaning obizamzamidan» deganча, meshidan sopol piyolaga suv quyib berdi. Muhsin guppi bekdan ko'zini uzmagani ko'yi suvni sipqorib, piyolani qaytardi. Meshkobchi tutam-tutam oqarib, ola-chipor bo'lib qolgan soqolini qashib, Guppining ensasiga yashil ko'zlarini tikib turdi. Guppidan sado chiqmadi. Odamlar «o't-o't» deyisha boshlagach, meshkobchi Guppiga qaray-qaray o'zicha so'kina-so'kina nari ketdi. Agar Guppi uning ko'zlarini ko'rganda, qo'rqqanidan ancha chaqa bervorgan bo'lardi.

Nafsilamrini aytganda, Guppining aybi yo'q edi. Chunki «obi xudoyi»ning taomili-xudo yo'liga odam-

larning tashnaligini qondirish. Lekin bitta chaqa tashlasa yoki aqalli, yuziga fotiha tortib, «rahmat, xudodan qaytsin», deb qo‘yganda asakasi ketmasdi. Yashil ko‘zlari qo‘rqinchli, olachipor soqolli ta‘magir obixudoyichiga Guppining bu ishi malol keldi.

Tomosha boshlandi. Biz jarchi sanab o‘tgan tomoshalarni tasvirlab o‘tirmay, qissaning boshida, Shokir qizilning choyxonasida qoldirgan ikkita chapanimizga qaytamiz. Karvonsaroy ro‘parasiga joylashgan bu pastak choyxona derazasidan maydondagi voqealarni kaftdagidek bo‘lmasa-da, harholda bimalol ko‘rish mumkin edi. «Och qoringa qo‘shiq naxojat» degan naql Tarasha bilan Abdi oppoqqa qarab aytilgandek edi. Bu odamlarga hamyonning quruqligi qorin ochligidan battarroq ta‘sir qilardi.

«Qadam ranjida» shu bois ularga yoqmadi. Boz ustiga bironta mijozning axtarib qolishidan umidvor edilar.

Ahmad tarasha derazaga tirsaklangancha maydonni loqayd kuzatar, tomoshaga onda-sonda ensasi qotib qarab qo‘yar edi. Abdi oppoq esa devorga bir kiftini suyagancha ko‘zlarini yumib olgandi.

Bu ikki odam bir-birlarini yaxshi bilishardi-yu, ko‘rganda ko‘ngil ochiladigan do‘st emasdilar. Gaplashadigan gaplari ham yo‘q edi. Shuning uchun ertalab kelganlaricha, bir-ikki choynak bo‘shatib, indamay o‘tirardilar.

Choyxonaga olachipor soqolli meshkobchi kirib keldi. Choyxonachi bola to‘ldirib qo‘ygan xumlardan meshiga suv solarkan, chapanilarga qarab-qarab qo‘ydi. Nimagadir taraddulanayotganini, lekin botinolmayotganini Abdi oppoq nim yumuq kipriklari orasidan ko‘rib turardi. Meshkobchi g‘imirlab Ahmad tarashaning oldiga bordi. Meshining og‘zini uzoq bog‘ladi. Tarasha esa derazaga tikilgani uchun meshkobchining kirganidan be-xabar edi. Meshkobchi kalta yo‘talgandan keyin Tarasha unga o‘girildi. Meshkobchini ko‘rib, gap borligini fahmladi. Shoshilmay va indamay besh-oltita mayiz, bir bo‘lak non qolgan laganni meshkobchiga surdi... Sopol choynakdan sopol piyolaga choy quyib uzatdi-da, unga ko‘z tikdi.

Meshkobchi choyni ichib, nonni olib bir tishlam tishladi. Choyxona kimsasiz bo'lsa ham bo'yni og'riyotgandek aftini bujmaytirib atrofga asta alangladi. So'ng ming'illadi:

— Yuz tilla.

Tarasha meshkobchi choy ho'pladi. Bu katta pul edi. Lekin Tarashaning tashida o'zgarish sezilmadi. Meshkobchiga qarab o'tiraverdi.

— Beshtasi menga, — dedi suvchi o'sha-o'sha tovushda. — Gapir! — dedi Ahmad tarasha do'q aralash past ovozd.

— Qosim qaroqchi shu yerda, — meshkobchi iyagi bilan maydonga asta ishora qildi.

Ahmad tarasha «hah» deb tizzasiga urdi. Meshkobchiga labini qimtib, jahl bilan uzoq tikildi. So'kmoqchi bo'ldi-yu, lekin:

— Bor! Obi xudoyingni tarqat! — deb derazaga o'g'rildi.

Meshkobchi Abdiga qaradi. Abdi oppoq hamon mudrardi. Meshkobchi yo'taldi.

— Tillani o'zing olaver! — deya suvchiga «in'om» qildi Abdi ko'zini ochmay:

— Menga beshtasi yetadi, — dedi meshkobchi xunuk ishshayib.

— Iplos! — dedi tishini g'ijirlatib Abdi va ko'zini ochdi. — Yo'qol!

Meshkobchi dik etib turdi-da, meshini qo'ltiqlagan-cha chiqib ketdi.

Meshkobchi aytgan yuz tilla o'sha paytlarda mashhur bo'lgan Qosim qaroqchining boshi evaziga shahar savdogarlari tomonidan belgilangan mukofot edi. Ikkala chapani ham sotqinlikni o'zlariga ep ko'rmadilar. Meshkobchining o'zi esa bunday ishni gardaniga olishga yuragi dov bermasdi.

Choyxonaga yana sukunat cho'kdi. Biroq u uzoq cho'zilmadi. Derazaga qarab o'tirgan Ahmad tarasha: «I!» deb o'rnidan qo'zg'aldi. O'g'irlikka kirgan bola uzoqda bog' egasini ko'rib qolgandek, hamon tashqariga tikilardi. Keyin yana, «I!» dedi-da, dik etib turib, so'ridan tushdi.



Abdi oppoq ko'zini ochdi.

— Latta isi keb qoldi! — Tarasha po'ng'illab unga izoh berdi. — Senga tegmaydi, o'tiraver!

Tarasha chiqib ketdi. Choyxonada ko'zini yumgan-cha Abdining o'zi qoldi. Chunki choyxonachi ham, bolasi ham tomoshaga ketishgandi.

Ahmad tarashaning maydonga qarab. «I-i»lab chiqib ketganining boisi quyidagicha edi.

Bu paytga kelib dorboz, masxaraboz va yallachilarning tomoshasi tugagandi. Davraga tushgan yigirma chog'li polvon ham xursand. Biriga gilam, biriga buzoq, biriga hamyon tegib, birontasi ham sovrinsiz qolmagan, ikkita eng zo'ri esa saroy xizmatiga taklif etilgandi. Nihoyat, «qadam ranjida»ning eng qizig'i — ra'iyatning arzini so'rash boshlangandi. Buni yana fil ustiga chiqqan jarchi boshlab berdi:

— Ey bandai mo'minlar! Qani, kimda-kim o'zining haqqi-huquqini poymol etgan zolim ustidan, quruq tuhmat yog'dirgan haromxo'r ustidan, podshoga ichgan halollik qasamini buzib, haromga yuz tutgan qozi, mirshab, zakotchi, kotibdan arz-dodi bo'lsa, chiqsi-in! Bek janoblariga aytsi-in!

Olomon ichida shuvur-shuvur boshlandi-yu, ammo hech kim chiqmadi.

Jarchi yuqoridagi murojaatini ikkinchi, uchinchi bor qaytardi. Shunda, odamlar dengizining bir chekkasida kichkina to'lqin ko'tarilib, oldinga siljiy boshladi. Qandaydir bir to'da urinib-surinib peshayvon tomon o'tayotgandi. Shovqin, g'ala-g'ovur kuchaydi. Hademay, xuddi to'lqinga o'xshab siljiyotgan to'da oldingi qatorga yetdi. Sayoz sohilga to'kilgan to'lqinchadek, odamlar maydonchaga to'kildi.

To'da bir xotin va uning to'rt bolasidan iborat edi.

Shokir qizilning choyxonasida o'tirgan Ahmad tarasha xuddi mana shularga ko'zi tushgan paytda «i-i»lab chiqib ketgandi.

Olomon guvillab oldinga bosdi. Birinchi va ikkinchi qatorda o'tirganlar ham toptalishdan qo'rqib, oyoqqa qalqishdi.

Ayol, o'rnidan turib ketgan Muhsin guppining shunday oldida edi. Bolalarning kattasi — o'n uch yoshlardagi o'smir qulog'ini ushlagancha ovoz chiqarmay yig'lardi. Buyoqqa chiqmayman degan-u onasi quloq cho'zma qilib, bosh-ko'ziga shapatilab olib chiqqani yaqqol ko'rinar edi. Qizil chit ko'ylak, qizil duxoba do'ppi kiygan o'n bir va sakkiz yoshlardagi qizaloqlarning yuzlari ham oftobdanmi, orlanishdanmi qip-qizarib ketgandi. Ular bir onalariga, bir bekka qarab, mung'ayib turardilar. Besh yashar kenjatoy o'g'il esa onasining qo'lidan tushgach, gilosdek chiroyli ko'zlarini qilich-qalqonli yasovullardan uzmay, mahliyo bo'lib qolgandi.

Mullaga o'xshagan nuroniy yuzli yosh mulozim peshayvon chekkasidan turib yumshoq ovozda ayoldan so'radi:

— Kimsiz? Qaerdansiz! Nima arzingiz bor? Qisqa bayon eting!

O'ttiz yoshlardagi ozg'in bu xotin xuddi otasiga o'pka qilayotgan erka qizdek shang'illay ketdi:

— Men, jarmahallalik Arofidin baqqolning qizi bo'laman. Ariqboshi mahallasiga, Hofizxo'ja o'g'li Ahmadga nikohlanganman. Ahmad tarasha deyishadi.

— To'xtang, — dedi mulozim va bekka qaradi. Bek asta bosh silkigach, mulozim ta'zim qildi va ayolga o'girildi.

— Xo'p. Arzingizni ayting!

— Dardim ko'p. Mana, besh yil kechdiki, shu bolalarning otasi bizdan xabar olmaydi. Chorbog' qarovsiz. Mahrimga tushgan besh tanob boqqa qarab bo'lmaydi.

— Qisqaroq qiling! — dedi mulozim.

— Xo'p. Shu chorboqqa mardikor olib chiqib ishlat-sam, kelib urib haydaydi, meni ham, bolalarini ham uradi. Akang, ukang kelib yordamlashsin, deydi.

— Muddao? — dedi mulozim.

— Muddaom shuki, bolalarning otasi kelib birga tursin yoki taloq xatimni bersin! Bo'lmasa...

— Bas! Bolalarning otasi qaerda?

— Cho'nqir ko'chada bir katakdek hovli olgan, yaqin. O'zi shu bozorda yuradi yo uyida bo'ladi. Axir

qachongacha akam, ukam qarashadi? Ularning ham o'zining tirikchiligi bor, bola-chaqasi...

— Bas! — deb xotinning gapini bo'ldi mulozim va bekka o'girildi. Bek yana bilinar-bilinmas bosh irg'adi. Mulozim ta'zim qilib ayvon chetidagi boshqa mulozimga, unisi esa jarchiga imo qildi. Yana jarchining ovozi eshitildi.

— Hofizxo'ja o'g'li Ahmadxo'ja bormi? Bo'lsa chiqsin! Qo'rqmasin! Hukm adolatli bo'ladi. Xaloyiq, yon-veringizga qarang! Ko'rsangiz — ko'rsating!

Turgan gap hech kim chiqmadi. Jarchi yana baqirmoqchi bo'ldi, xotin uning oldini oldi:

— Uyidan opkeling! — dedi. — Shu bozorning biqinida. Odam qo'shing, mana, oboradi!

Xotin shunday deb katta o'g'lini oldinga turtdi.

— Uzoq emasmi? — so'radi mulozim.

— Shundoq timdan keyin ikki yuz qadam! — Xotin ishonmay qolishlaridan qo'rqib juda qattiq baqirardi. — Xudo ursin, yaqin!

Yana bosh irg'ash, imo-ishoralar to'liqini pastdan yuqoriga borib, qaytib keldi. Natijada ikki yasovul otlandi. Ulardan biri o'smirni azot ko'tarib orqasiga mingashtirgach, ot qo'yib ketishdi.

Xalqdan hol so'rash davom etdi. Mulozim past va muloyim ovozda savol berar, jarchi karnaydek ovozda uning aytganini takrorlardi.

— Ra'iyatning emin-erkin turmushiga zomin bo'layotgan narsa yo'qmi?

— Birorta mahallaga o'g'ri-qaroqchi oralagani yo'qmi?

— Bozorda qadoq toshni chegirishganini hech kim ko'rmaganmi?

— Baqqol, attor, sarrof, dallol, zargarlar tomonidan noinsoflik qilinmayaptimi?

— Qozi, mingboshi, ellikboshi, mirshablardan arz-dod qilguvchi yo'qmi?

Jarchi so'roqlarning har bittasidan so'ng uch-to'rt nafas poylar, olomondan avj olgan g'ovur-g'ovurdan bo'lak sado chiqmasdi.

Yana boyagidek ta'zim-u bosh irg'ash, imo-ishoralardan so'ng jarchi oxirgi savollarni berdi.

— Demak, shaharning to'rt dahasi tinch? Demak, ahli ra'iyatning turmushiga ziyon-zahmat yetkazish yo'q?

Jarchi besh-olti nafas kutdi-da, bekning buyrug'ini eshittirdi:

— Muhammad Xorazmshohning viloyatmizdagi ustunlari Arslonbek ibn To'g'rubek ibn Do'nanbek janoblari buyuradilar: zargarlardan bir kishi dorga osilsin!

Olomonning bir tekis g'ala-g'ovurini «uvv» degan xitob bosib ketdi. Bu mamnuniyat ifodasini bildirardi.

Zargarlarning qallobliklari, xotin-xalajni yo'ldan urishlari haqidagi mish-mishlarning xalq orasida keng tarqalgani, ularning boy-badavlat yashashi natijasida tug'iladigan ko'rolmaslik ham mamnuniyat hisobiga katta ulush qo'shgandi. O'sha paytlarda oxirida zargarlardan birining jazolanishi bilan tugaydigan «xalqni so'rash»lar o'xtin-o'xtin takrorlanib turardi.

Buyruqdan keyin peshayvon ostida zargarlarning oqsoqoli bilan mulozim o'rtasida besh-olti daqiqalik muhokama boshlandi. Oqsoqolning nimagadir qarshilik bildirayotgani (albatta farmonga emas), mulozimning esa so'zida qat'iy turib olganligi aniq sezilardi.

Gap jazoga mustahiq kishi ustida borardi. Oqsoqol mulozim aytgan nomzod o'rniga boshqasini o'tkazmoqchi edi. Lekin mulozim bu taklifning «yuqoridan» tushganini sha'ma qilgach, oqsoqol indamay qoldi.

Mulozim oqsoqolni «ko'ndirib» jarchiga bosh irg'adi. Oldindan tayinlab qo'yilgan shekilli, jarchi darrov e'lon qildi.

«Bek janoblarining buyruqlariga binoan timning kunbotishi tarafidagi do'kon egasi Barot zargar qallobligi, birovning haqiga xiyonat qilgani uchun dorga osiladi!»

Allaqachon oqsoqol bilan yonma-yon o'tirgan zargarlar to'dasini o'ragan navkarlar, bechora (shunday deyishga majburmiz)ni xuddi ilgaritdan tanigandek, darrov ushlab olishdi. Barot zargar oltmishlar nariberisidagi, moshguruch soqolli, bo'yi pastroq, rangiro'yi qipqizil

sogʻlom odam edi. Maydonchaga chiqqanda kutilmagan bu balodan tili kalimaga kelmay, ixrab qoldi. Qalt-qalt titrab, suyab turilmasa yiqilgudek edi. Qoʻlini bek tarafga majolsiz koʻtarib, «ing-ing» qilib gapirolmadi.

Unga bir oz suv ichirishgandan keyin tili aylana boshladi.

— Begim! Gunohdan qoching! Begunoh bandaning qoni tutmasin!

Bek qimir etmadi. Ikki jallod arqon otib oʻtkazib dorbozlarning tomosha doridan jazo dori yasadi.

— Rastada mendan halol zargar yoʻq! Begunohman!!! Gunohim yoʻq!!! — deya baqirdi zargar.

Lekin koʻz oldida sirtmoq chayqala boshlaganda birdan hushidan ketdi. Jallod uning yuziga suv purkay boshladi.

Shu payt Ahmad tarashani qidirib ketgan navkarlar qaytib kelishdi. Bolani onasining yoniga xuddi qoʻgʻirchogʻdek yengil qoʻyishib, topisholmaganini aytishdi. Nuroniy yuzli mulozim bekning oldiga borib qisqa maslahat oldi. Soʻng uni jarchiga anglatdi.

— Xaloyiq! — dedi jarchi. — Shu yerga yigʻilgan ahli jamoaning oldida, bek janoblariga bir zaifa oʻzining jufti haloli ustidan arz-dod aytdi. Aybdor qochgani bois ushbu arz sharʻan hal etish uchun qozikalonga topshiriladi. Mabodo, arzgoʻyning koʻnglida qozikalongning taftish-u hukmi jindek norozilik paydo etsa, huzuri muborakka istagan paytda kirishi ruxsat etiladi. Ushbuning tasdigʻi uchun zaifaga vakolatnoma beriladi. Haqiqatparvar bek janoblariga olqishlar boʻlsin!

Xaloyiqning: «Olqish!» «Olqish!» deb guvillashi ostida Ahmad tarashaning xotinigaga vakolatnoma topshirildi.

Bu paytda zargar oʻziga kelib oʻrnidan turgandi. Sallasi chuvalib yerda qolsa-da, uni olmadi. Taqir boshida yongʻoqning yarmichalik qizil shish borligi hammaga koʻrindi.

— Tahorat olishni istaydilarmi, taqsir? — soʻradi jallodlardan biri undan. Bu savoldan keyin zargarining eshishi yana oʻziga keldi.



— Voydod, musulmonlar! Bu qanday bedodlik? Begunohdan begunohga osilsa odam! Musulmonlar! Axir nimaga qarab turibsizlar? Erta-mettan har bittangni shunday osishi mumkin bu o'zboshimcha zolim!

Guvillash tinishi bilan zargarning nidosi eshitildi:

— Bek!! Haromxo'r zargar osilishi lozim bo'lsa — G'ayniddin zargar osilsin!! Tilloga mis aralashtirishda unga teng keladigan topilmaydi!

— Tuhmat!— dedi xaloyiq ichidan G'ayniddin zargar.

— Qo'shasan! Sen osilishing kerak! — dedi Barot zargar chiyillab.

— Begim o'zlari biladilar!— baqirdi G'ayniddin zargar.

— Biringni olib biringga uradigan! — chinqirdi olomon ichidan yana kimdir.

G'ayniddin zargar dam ko'karib, dam qizarib turgan yeriga o'tirib qoldi-da, odamlarning hushtaklari, «qoch-qoch!», «qochib qol!» deb mazax qiluvchi baqiriqlari ostida qayoqqa ketayotganini ham bilmay emaklay boshladi. Emaklab ketarkan: «Xudo xayringlarni bersin, yo'l beringlar! Xudo xayringlarni bersin, o'tib olay!» deb ingrardi.

Barot zargar quturib, tap tortmay to'ppa-to'g'ri beka qarab baqirardi.

— Zolim! Seni shahanshoh adolat qiladi deb yuborgan! Begunoh jabrdiydalarning ohi yetib borar! Og'zingdan qaro oqoning kelsin!

Bek o'rnidan turdi. Ohista yurib peshayvon chetiga yaqinlashdi. Maydonga shunday jimlik cho'kdiki, bu yerda ming-ming odam borligiga aql bovar qilmay qoldi.

— Bo'yningga ol, qallob! — Bek shunday deb dor ostiga bilaguzuk otdi. Bilaguzuk zargarning oyoqlari ostiga kelib tushdi.

— Qo'limni yechinglar! — dedi zargar siltanib. Qo'llari yechilgach, engashib bilaguzukni oldi. Birdan qo'llari shalvirab, boshi quyi egildi.

— Bo'yninga ol, haromxo'r — dedi bek boyagidan balandroq ovozd.

Zargar ko'kka qaradi. O'limdan qocholmasligini tushundi.

— Yo tangrim, dargohingga qabul et! Gunohkor bandangman. Tirikchilik vajidan jezni, misni tilloga oshno qilganman. Lekin illo insof bilan!

Shu gaplarni ayta turib Barot zargarning nigohi pastga tushib bekka qadaldi.

— Bek! Insof bilan qilganman! Pirimning arvohi haqqi, insof bilan! Beayb yolg'iz tangrimning o'zi!

Ana shunda hech kim kutmagan voqea sodir bo'ldi. Bek kiyikdek chaqqonlik bilan odam bo'yidan baland ayvondan sakrab tushib, o'shandek to'kis va yengil qadam bosib ko'z ochib yumguncha zargardan ikki qadam berida to'xtadi. Bilaguzukni beringlar, de-gandek qo'l uzatdi. Yonida hozir-u nozir bo'lgan navkarlar bilaguzukni zargardan olib unga uzatishdi.

— Ey qallob, qari ko'ppak! — dedi u bilaguzukni qo'lida tutganicha. — Elga o'z kekirdaging bilan bo'kirib tan olsang, qoningdan kechishim mumkin!

Shu gapdan so'ng Barot zargar tangri bilan yuz ko'rishishga tayyorlangan mag'rur insondan birdan pastkashga aylandi qoldi. O'zini yerga tappa tashlab ingragancha bekning oyog'ini o'pmoqchi bo'ldi. Bek chaqqon tisarilib peshayvonga qayta boshladi. Barot zargar tumshug'i bilan yerga urilgan boshini ko'tardi-da, tiz cho'kkancha atrofga baqira boshladi:

— Men qallobman! Tilloni misga qo'shib, birovlarining haqqiga xiyonat qilgan qari ko'ppakman! Ey musulmonlar! Tup denglar basharamga! Piriga xiyonat qilgan kofirga! O'zimni oq deb, podshohimning suyuqli noibi bo'lmish bek janoblariga bo'hton qildim!.. Yarmi mis bo'lgan bu mollarimni qishloqlarda sotganman.

Jindek bo'lsa-da rahmi kelib turgan olomon, zargarining o'lmasligini bilgach, la'natlab masxaralay boshladi.

Jarchi yangi hukmni eshittirdi:

— Barot zargar birovning haqqiga xiyonat qilgani uchun o'ng qo'li kesilishi lozim edi. Ko'z oldingizda muborak zotga tuhmat qilgani uchun o'limga loyiq edi.

Olomon uzra: «O'ldirilsin!» «Osilsin!» degan xitoblar eshitildi. Jarchi davom etardi.

— Lekin aybiga iqrор bo‘lgani uchun, qariligini nazarga olib, bek janoblari uni o‘limdan xalos etadi. Barot zargarga yigirma besh darra urilsin! har bir kal-takdan so‘ng o‘zining qallob va o‘g‘riligini o‘zi aytib tursin! O‘zini o‘zi malomat qilsin! Aks holda dorga osi-lajak!

Hukm o‘qib bo‘lingach, bek o‘zining eng yaqin mulozimlarini ergashtirib bozordan xaloyiqning olqishi ostida chiqib ketdi. Peshayvonda qolgan to‘ralar, mir-shabboshi, qozikalon hukmning ijrosini kuzatishlari lozim edi.

Jalldolar bo‘zarib ketgan zargarni taxtaga tortib bog‘-lashdi.

Barot zargar har darrada: «Men o‘g‘riga bu ham kam!»: «Voy, men muttahamning jazosi shu!» «Voy jonim! Men kazzobga xudoning jazosi bu!» deb baqirar, olomon esa kulardi.

Hozirgi o‘quvchilarga bu kulgi g‘ayritabiiy bo‘lib tuyulishi mumkin. Lekin u paytda bunday elaro ochiq jazolar tez-tez takrorlanib turganidan odamlarning ko‘ngli qattiqroq bo‘lgan. Ikkinchidan, muttaham va kazzobni xalqning ko‘z oldida jazolanishi — haqiqatning ro‘yobga chiqishi edi. Haqiqat esa sitamgar qalblarga hamisha sevinch bag‘ishlab, chekayotgan azoblarning bir kunmas bir kun nihoyasiga yetishiga ishonch tug‘diradi. Va nihoyat, aytganlarimizning baridan tashqari, kunda-lik bir xildagi tirikchilik tashvishidan zada bo‘lgan yurak-larga bu jazo g‘aroyib tomosha ham edi. Bek ana shu-larning hammasini bilardi.

Barot zargar keyingi zarbalarda tavbaga o‘tguncha ancha «voy-voy»ladi. Uning tavbasini kutib turgan jal-lod: «Bo‘ling, tavbangizni qiling! Aks holda dorga osila-siz!» — deb do‘q urardi. Shunda zargar yana o‘zini ma-lomatlashga tushardi.

Zargar uchun bu jazo o‘limdan ham qattiq edi. Zeroki, u hamma zargarlarning sirini ochdi. Keyinchalik albatta ulardan ko‘radiganini ko‘rardi, eshitadiganini eshitardi. Ikkinchidan, do‘st-dushman oldida o‘zini eng yomon so‘zlar bilan haqoratlard. Endi istagan odam



uning o‘ziga-o‘zi yog‘dirgan haqoratlarni yuziga solishi mumkin, zargar uchun ona shahrini tark etishdan boshqa iloj qolmasdi.

Shunday bo‘ldi ham, kaltak zahmlari bitgach. Barot zargar Kumushkentdan ko‘chib ketdi.

«Qadam ranjida» shunday tugadi. Muhsin gupping ta‘bi jindek tirriq bo‘ldi. Ayniqsa, zargar kaltak yeyayotgan paytda olomondan chiqqan: «Birovning moliga xiyonat qiladigan, yerini, suvini tortib oladigan zamindorlarni ham shunday qilish kerak!» degan qichqiriqlar unga yoqmadi. Qozixonona tomon asta ketarkan: «Odamlarda mehr-shafqat qolmabdi o‘zi. Tavba qildim! Tavba qildim!» deb takrorlardi.

Bozor bir pastda yana g‘ala-g‘ovur bo‘lib, qaynagandan qaynadi. Muhsin guppi yo‘l-yo‘lakay qirqta ko‘fta kabobni<sup>1</sup> sixi bilan laganga qo‘ydirdi. Uni kabobpazning bolasiga ko‘tartirib qozixonaga kirganda kun qoq peshingaga kelgan edi.

## VAKOLATNOMA

Nasriddin Afandi mirshablar bilan qozixonaga kirib kelganda, qozikalon bilan Muhsin guppi kabobni yeb, ustidan boya biz ko‘rgan bo‘xhadagi shirinliklar bilan choy ichardilar.

Balki yana yeyilar deb, bir chekkaga surib qo‘yilgan besh-o‘nta kabobni esa pashsha talay boshlagandi. Ikki hamsuhbat xo‘r-xo‘r choy ichish asnosida onda-sonda uni qo‘rib qo‘yishardi.

Suhbat juda maroqli kechmoqdaydi. Ochiqib qaytgan qozikalonga Muhsin guppi o‘zining bo‘xchasi va bir lagan kabobi bilan juda yaxshi ko‘rinib ketgandi. Nasriddin Afandining asali, mirshablar haqidagi hango-masi esa qozini rosa kuldirib, hazmi taomga xizmat qildi. Muhsin gupping aqlu zakovatini maqtab, qotib-qotib kularkan, shunday luqmani tashladi:

<sup>1</sup> *Ko‘fta kabob* — mayda qiymaga danakdek-danakdek dumba tiqilgan kabob.

— Rostdan ham Nasriddin Afandini laqillatdingizmi, a? Oxirgi eshitgan latifam uning kimgadir suv tashitib, bog‘ini sug‘organi edi.

Muhsin guppi yalt etib qoziga qaradi. Ammo qozining aftidan bu sarguzashtning «jafokashi» ro‘parasida o‘tirganini xayoligayam keltirolmaganligi sezildi.

Shunday bo‘lsa-da, Muhsin guppi qizishib ketdi:

— Ha! Siz ham odamlarni laqillatish faqat Nasriddinning qo‘lidan keladi deb o‘ylaysiz-da?! Mana, hozir ikkita mirshabingiz keladi! Men ularga haqini to‘layman. Qolganini ularning o‘zidan eshitasiz! Xo‘pmi?!

Do‘stona zarda bilan aytilgan shu gap tugashi bilan ostonada mirshablar ko‘rindi.

Guppi «ana!» deb yubordi-yu, mirshablar orqasida Nasriddin Afandi ham borligini ko‘rib andak kapalagi uchdi. Qozi ham bundan bir oz mulzam bo‘ldi. Chunki qozi bo‘la turib, firibgarlikdan, boz ustiga mirshablar aralashgan firibgarlikdan zavqlanib o‘tirgandi.

Kirganlar katta tanobiy xonaning chekkasida turib salom berishdi. Qozi bir kekirib, «baloga qoldirmasangiz yaxshi edi», deb qo‘ydi-da, alik oldi. «Qo‘rqmang, sizning hech bir aloqangiz yo‘q!» dedi Guppi ham asta g‘o‘ng‘illab.

Qozi o‘rnidan turib Nasriddin Afandi bilan juda iliq so‘rashdi. Guppining bundan battar jahli chiqdi. Ayni choqda u ham shundoq qilishga majbur edi. Aks holda chelakda suv tashish hangomasi uch berib qolishi mumkin edi.

— Juda sezgirman-da, boy aka, — dedi Nasriddin juda samimiy ravishda Guppiga. — Shu yerda bo‘lsangiz kerak-ov, deb ko‘nglimdan o‘tkazib kelayotgandim.

— Ha endi, qozikalon bilan eski qadrdomiz-da, — deya bazo‘r jilmaydi Muhsin guppi.

— Keling, Nasriddinboy. Qanday shamol uchirdi? — Qozikalon Nasriddinni ko‘rib, chin dildan bir zavqlansa, uning chuv tushishiga guvoh bo‘lajagidan ikki zavqlanardi.

— Bu, — deya salmoqlab boshladi Nasriddin gapni cho‘zmaslik niyatida.— Bizning musulmonobod zamonada o‘g‘rilar jazolanishi shart-a?

— Albatta, albatta! — dedi qozikalon katta gavdasiga yarashmagan chaqqonlikda joyiga o'tirib, dasturxon chetlarini pashsha talayotgan osh-ovqatning ustiga yoparkan. — Birinchi karra qo'lga tushgan o'g'ringing o'ng qo'li kesiladi, ikkinchisida chap qo'li!

Qozining javobidan mirshablar tipirchilab qolishdi.

— Bizni boshqa narsaga chaqirgandiz-ku, Nasriddin aka! — deyishdi barobar.

— Nega qo'rqasizlar? — hayron bo'lgandek gap qotdi ularga Nasriddin. — Asalni gumdon qilgan sizlar emas-ku, to'g'rimi?

— To'g'ri, to'g'ri, bizlar emas! Bizlar emas!

Qozi, jim bo'llaring degandek ishora qildi-da, Nasriddinga yuzlandi:

— Xo'sh, Afandim, o'zi nima gap?

— Ha, gapiring, gapiring! — deya luqma tashladi Guppi o'ta qiziqsingandek va o'zini hech narsadan xabari yo'qdek ko'rsatib.

— Mayli, lo'ndasini aytaman, — dedi Nasriddin Afandi qo'lini siltab. — Men bozorga ikki xum asal olib kelayotgandim. Bu mirshablar yo'lda to'xtatib, asal o'zimmiki ekanligini tasdiqlovchi hujjat talab qilishdi. Asalimni bularning oldiga qo'yib, oqsoqoldan hujjatni olib kelsam, og'zi boyloq xumlarim bo'sh! Bog'log'ini yechgandim ichidan bir gala pashsha uchib chiqdi...

— E, qiziq bo'пти-ku! — Guppi qixillab kuldi.

— Qirq bitta! — dedi Nodir mirshab.

— E, pashsha qursin! — dedi qozi pashsha qo'rib.

Shu uch luqmadan keyin Nasriddin Nodir mirshabni ko'rsatib davom etdi.

— Bu kishining zehnlari juda o'tkir ekan, qirq bittaligini darrov sanab qo'yibdilar. Men, turgan gap, mirshablarni o'g'ri qildim. Lekin bular asalni pashshalar yegan, deyishdi. Podsholikning odamlari shunday degandan keyin ishonmay ilojim yo'q, ishondim!

— Ha, qirq bitta pashshayam yeyman desa anchamuncha narsani yeb qo'yadi! — dedi Nodir mirshab aqlli gap aytayotgandek ko'zlarini lo'q qilib.

— To‘g‘ri! Qirq bitta! Balki ko‘proq hamdir? Lekin menga qirq bittasi ham yetadi. Endi, qozikalon, siz menga shu ikki mirshab guvohligida, shu qirq bitta pashshani jazolashga ruxsat beradigan vakolatnoma yozib berasiz!

Nasriddinning bu gapidan keyin sardoba yonida mirshablar qanday kulishgan bo‘lsa xuddi o‘shanaqa kulgi boshlandi. Unga xuddi boyagidek Nasriddinning o‘zi ham qo‘shildi. Faqat, hali uch kishi kulgan bo‘lsa, hozir besh kishi edilar. Hammasi dumalab, qornini ushlab, «pashsha...» «vakolat» deb, davomini aytolmay, qihillab qolishardi.

— Obbo, Nasriddin-ey! Obbo tushmagur-ey! Ba‘zan xo‘p soddasiz-da! — dedi nihoyat qozi tili zo‘rg‘a aylanib. — Ha, vakolatsiz shunday o‘ldiravermaysizmi?

— Shunday qilsam ham bo‘laveradi, — dedi Nasriddin o‘sha-o‘sha jilmaygan ko‘yi. — Lekin odamlar jinniga chiqarishlari mumkin...

Yana uzoq kulgi bo‘ldi. Nasriddin ham jilmaygancha kutib turib, mavridi kelgach, davom etdi:

— Undan keyin, bu qog‘ozingiz xotiningga ko‘rsatish uchun kerak. Uni eshitgansiz. Otasi Shohboboning sevimli ellikboshisi bo‘lgan. Ellikboshining dovrug‘i hali ham so‘nmagan. Shu xotinga asalni ikkita mirshabning tumshug‘i tagida pashsha yeb ketipti desam, quruqdan quruq ishonadimi? Yo‘q, mirshablarga to‘nkaydi. Mirshablarning orqasida yana birov bor, deydi-da, Urganchdagi qarindoshlariga xabar qiladi. Mirshablarni qo‘yavering! Kuppa-kunduz kuni odamlarni mirshablarga tunatib qo‘yibsang deb, sizga-da, begimizga-da gap tegadi. Xo‘sh, vakolat bo‘lsa-chi? Men uni xotiningga ko‘rsataman, ko‘zining o‘ngida bir-ikkita pashshani o‘ldiraman, tamom-vassalom! Hammayoq tinch, olam guliston!

Nasriddin Afandining da‘volaridan keyin ikkala mirshab va kutilmaganda Muhsin guppi uning yonini olib gap uqtira boshlashdi. Muhsin guppi ham gapirar, ham kishi bilmas qosh qoqib qozini ko‘ndirishga urinardi. Xullas, Nasriddindan ko‘ra mirshablar bilan Guppining tazyiqi tufayli, ikkilanayotgan qozi ham rozi bo‘ldi-da, qalamni olib, dovotni oldiga surdi.

Mirshablar bilan Gupponing taz'yiqiga sabablar turlicha edi. Nodir va Sodir tezroq besh tillani qo'lga kiritib, tezroq sardobaning oldida qolgan o'ljalari tomon oshiqardilar. Gupponing o'lar-tirilariga bois shu ediki, agar vakolatnoma yozilsa-yu, Nasriddin Afandi uni ko'rsatgudek bo'lsa, firibi yana kuchayar va hujjatlashgan bo'lardi. U o'zining nayrangi mumkin qadar ovoza bo'lishini juda-juda istardi.

Qozi do'rillagan ovozda yozganlarini qaytarib, vakolatnomani yarimlatgan paytda, «assalomu alaykum» deb, qozixonaga Abdukarim kirib keldi. Uning salomiga Nasriddindan bo'lak hech kim alik olmadi. Qozi g'o'ng'illab vakolatnoma yozardi. Guppi ensasi qotib teskari o'girildi. Mirshablar esa bir seskanishdi. So'ng ikkovi asta Abdukarimga yaqinlashib: «Bor, chiqib tur, navbati bilan kelasan!» deb shivirlab tashqariga turtkilashdi. Lekin Abdukarim bir siltanib joyida qoldi.

— Mirshablar to'g'ri aytyaptilar, bo'tam, tegirmon navbati bilan! — dedi qozi ko'zlarini qog'ozdan uzmay o'ziga-o'zi gapirgandek.

— Meni ishim ham hozirgi ishga bog'liq, — dedi Abdukarim.

— Unday bo'lsa, mayli, — javob qildi qozi gapga tuzuk ahamiyat bermay yozuvda davom etarkan.

Noiloj qolgan mirshablar Guppini chekkaga tortishdi:

— Asalini shuning idishlariga solganmiz. Tezroq aqchasini bering!— deyishdi tishlarini g'ijirlatib.— To'polon chiqaradi!

Muhsin guppi istehzoli kuldi:

— Menga shunisi kerak-da! Qancha ko'p to'polon ko'tarsa, shuncha yaxshi!

— Kerakmas aqchangiz, mirshab aka! — dedi ularning gap so'zlarini eshitib turgan Abdukarim. — Hech narsani bilmaganimda, boshidayoq to'laganlarida olardim. Endi olmayman!

— Nega? — hang-mang bo'lganicha so'radi Sodir mirshab.

— Nasriddin akamga firib bermoqchiliginglarni sezib qoldim. Hammasini hozir aytaman!



Gapini tugatar-tugamas mirshablar rostakamiga yoqasiga yopishib qozixonadan chiqarib tashlamoqchi bo'ldilar. Lekin qozining sharaqlatib muhr bosgani mirshablarni chalg'itdi. «Ana, bitdi!» dedi qozi. So'ngra engashgan ko'yi qovog'i ostidan kulib qarab qog'ozni uzatdi:

— Mana, Nasriddinboy!

Nasriddin vakolatni olish uchun borayotgandi, qozi hiringlab qo'ydi-da:

— Shoshmang! Avval o'qib beray, — deb, yo'g'on ovozda o'qiy boshladi: «Vakolat. Berildi shul haqdakim, ushbuni ko'rsatuvchi mulla Nasriddin Afandi, asallarini yeb ketgan qirq bitta o'g'ri pashshani qaerda va qachon ko'rishidan qat'iy nazar jazolashga mutlaq huquq bor. Kimda-kim bu ishda unga mone'lik qilaturg'on bo'lsa, ul kimsa-da, haromning homiysi sifatida, bamisoli o'g'ri kabi, o'ng qo'li kesilishga mahkumdir.

Sha'ran muvofiqdir, deb: qozikaloni shahri Kumushkent Sadriddinxo'ja Idrisxo'ja o'g'li.

Imzo. Muhr».

— Mana, mulla Nasriddin, endi pashshalaringizni o'ldiravering, — kuldi Muhsin guppi.

Nasriddin qoziga bir qarab qo'yib, qo'lidan hujjatni oldi-da, Abdukarimning oldiga keldi. Unga engashib past ovozda tayinladi.

— Meni deb aqchangizdan kechganingiz uchun rahmat! Endi yordamingiz kerak! Shu qog'ozni opchiqib, yaxshilab yashiring!

Abdakarim gapirmoqchi bo'lgan edi, Nasriddin og'iz ochirmay keskin va sirli qilib ta'kidladi:

— Shu qog'oz bularning ta'zirini beradi. Yaxshilab yashiring. Birov topadigan bo'lmasin! Keyin o'zimga qaytarasiz!

Abdakarim hujjatni olib chiqib ketdi.

— Xo'sh, ana endi pashshalarni qirishga kirishamiz,— dedi Nasriddin orqaga qaytarkan.

— Kirishing-kirishing! — dedi Muhsin guppi mazax ohangida. Shu soniya u sirni ochmoqchi bo'ldi. — Bilasizmi...

Guppi shunday deyishi bilan qo‘qqisdan quloq chakkasiga shapaloq tushdi. Tuyqusdan kaltak yegani uchun Guppi hatto «voy» deyolmay gindiraklab borib ag‘darilib tushdi. Qozi va mirshablar hayronu lol qolib: «Hoy-hoy, bu nima qilganingiz?» deyishdi.

— Bu birinchi pashsha! — deb javob berdi Nasriddin va hamon og‘zini ochib turgan Nodir mirshabni ham qulochkashlab soldi. — Bu — ikkinchi pashsha!

Nodir mirshab, «voy, jag‘im», deganча engashib qolgandi. Nasriddin Sodir mirshabga yuzlandi. Sodir mirshab qochdi. Nasriddin Afandi orqasidan yetib olib: «Bu uchinchi pashsha!» deganча ketiga bir tepdi.

Voqeaning bu yo‘sin, teskarisiga aylanib ketishini kutmagan qozi so‘rida o‘tirgan joyida: «Chatoq ish bo‘pti-ku!», «Qiziq ish qilib qo‘yibmiz-ku!» deb g‘o‘l-diradi.

Ikkala mirshab sal o‘zlariga kelib qilichlarini «shig‘« etib qinidan chiqarishdi.

— Qani tegib ko‘ringlar-chi! O‘g‘ri pashshaning himoyachisi sifatida qo‘llaringni kesishadi! — dedi Nasriddin qo‘rqish o‘rniga asta bostirib borib.

Zarba yeganlarning uchchalasi: «Bu nima degan gap, qozikalon?! Ko‘z oldingizda shunday ish bo‘lyapti. Buyuring, zindonga solishsin!» — deb qoziga zorlanishdi. Nasriddin Afandi yana payt poylab turib, Muhsin guppini ikkinchi marta tushirib qoldi. «Voydod! Agar menga yana bitta pashsha qo‘nsa o‘lib qolaman!» — deb baqirdi u.

Shu payt Abdukarim qaytib keldi-da, ostonadan turib e‘lon qildi:

— Boplab berkitib qo‘ydim. Nasriddin aka!

— Yashang! — dedi Nasriddin. So‘ngra qoziga yuzlandi: — Qani, qozikalon, beriroq keling-chi! Bitta pashsham sallangizga o‘tirib qolibdi!

Nasriddin shunday deganча so‘riga chiqa boshladi.

Qozi ikki qo‘lini oldinga chiqarib so‘rining to‘riga tisarilarkan: «Hoy, hoy, Nasriddinboy! O‘ylab ish qiling! Sharmanda qilmang!» deya yalinaradi. «Qimirlamang, qimirlamang, uchirib yuborasiz!» deb, Nasriddin uni



so'ri bo'ylab ta'qib qila boshladi. Qozi qo'lini boshi uzra silkitib, keyin yana oldinga chiqarib muhofazalanib: «Ana haydavordim. Uchib ketdi. Bu boshqa pashsha!» deganicha so'rida gir aylanib chekinardi. Nasriddin baribir unga yetib, qulochkashlab gardaniga bir urdi. Lekin qozikalon baquvvat odam bo'lgani uchun «hiq» dedi-yu, bildirmadi. Nasriddin yana bir qulochkashlamoqchi bo'lgandi, qozi chaqqonlik qilib uning qo'lini ushlab, o'zini quchoqlab oldi.

— Sizni o'g'ri deb jazolash kerak! O'zingiz yozgan vakolatga qarshi chiqyapsiz! — derkan, Nasriddin qozining quchog'idan chiqmoqchi bo'lib siltana boshladi. Qozi Nasriddinni quchog'ida mahkam qisganicha qimir-latmas: «Insof qiling!» «Insof qiling! Sharmanda bo'l-may!» deb yalinardi.

— Mayli, qo'yvoring, — dedi Nasriddin qozining «quchog'ida» turganicha, hozircha qozini dushman qilmaslikka qaror qilib. — Lekin ana ularning boshidagi pashshalarni urishga qarshi bo'lmaysiz!

Qozi: «Meni urmaysizmi? Menga qo'ngan pashshani o'ldirmaysizmi?» deb qayta-qayta so'rab tasdiqlatib olgandan keyin uni qo'yib yubordi.

Nasriddin so'ridan tusha solib mirshablar bilan Gup-pini navbatma-navbat quvdi. Lekin ular ham hadisini olvolishgani uchun ustalik bilan chap berib, qozixonaning ichida gir aylanishardi. Ko'chaga qochishardi-yu, Nasriddin orqamizdan chiqib battar sharmanda qilishi mumkin, degan fikr ushlab turardi.

Bu ahvolni kuzatib turgan Abdukarim esa qotib kular: «Obbo, Nasriddin Afandi-ey! Yashang! Bopladingiz! Soppini o'zidan chiqardingiz!» — deb maza qilib luqma tashlab qo'yardi.

Nihoyat, qozikalon pastga tushib, yana Nasriddinni ushladi-da, yalinib-yolvorib tinchitdi.

— Keling, mulla Nasriddin, bir to'xtamga kelaylik! Axir hamma pashshalaringiz qozixonaga yig'ilib qolmangandir?!

— Ie! — dedi Nasriddin qizishib. — Asalimni yegan pashshalarni siz taniysizmi, menmi?!

— Nima, hammasi bizning boshimizga qo‘nadimi? — yig‘lamsiradi Muhsin guppi.

— Qo‘nsa mendan so‘rab qo‘nadimi? O‘zi biladi-da!

— Sal insof qiling-da, axir! — Muhsin guppi shilq etib burnini tortib qo‘ydi.

— To‘g‘ri-da, insof ham kerak! — ma‘qullashdi mirshablar.

— Ho‘y! — dedi Nasriddin uchchoviga qarata. — Men insof nimaligini tushunmayman! U ariqning boshiga o‘tirib olib, yoshu qari ko‘z tikib o‘tirgan ekinni quritish emasmi? Dehqonni xonavayron aylash, yerini tortib olish, bevatan qilish emasmi? Yoki sardobani oldida qaroqchilik qilib, o‘tgan-ketganni shilishmi, a?

Mirshablar indashmadi, ko‘zlarini lo‘q qilib yerga tikishdi. Muhsin guppi qo‘l silkib o‘rnidan turib ketdi. Nasriddin irg‘ib borib, uning bo‘yniga yana bir tushirdi.

— Mana bu beshinchi pashsha! — dedi birinchi marta jahli chiqib. Nasriddinning avvalgi shapaloqlari sharmanda qilish niyatida bo‘lsa, keyingisi g‘azab bilan urilgandi. Chunki Muhsin guppi — qozi, mirshablardan farq qilib, otdan tushsa-da, egardan tushmagan, batamom mag‘lub bo‘lganligini tushunishni istamasdi.

— Voy! Bu qanday bedodlik, hech narsa qilolmasam, a?— dedi Muhsin guppi qoziga qarab yolvorgancha.

Qozi alal-oqibatda o‘zi ham sharmandai sharmisor bo‘lishi mumkinligini o‘ylab, uning gapiniyam eshitmadi.

Ko‘zi Abdukarimga tushdi.

— Siz nima qilib turibsiz? — so‘radi undan.

Bu so‘roqni shunday dag‘dag‘a bilan aytdiki, Abdukarim dovdirab, chiqib ketgudek holga keldi. Yaxshiyamki, Nasriddin Afandi joniga ora kirdi.

— Bu kishi men tarafdin guvoh! — dedi u qoziga qasdma-qasd dag‘dag‘a qilib.

— Ha, ha, men guvohman,— dedi dadillanib Abdukarim.

— Asalni qanday o‘g‘irlashganini, qaerga yashirishganini ko‘rganman. Mening xumlarimga solib qo‘yiship-

ti. Mirshablaringiz zo‘ravonlik qilib tortib olishdi xumlarimni.

— Qani, beringlar xumlarining badalini, — buyurdi qozi mirshablarga o‘qrayib.

— Bering! — Sodir mirshab o‘z navbatida buyruqni Guppiga o‘tkazdi.

Guppi o‘tirgan yerida voy-voylab: «Mayli, bersam bera qolay. Qaerdan bilibman, ishning bunaqasiga aylanishini», deb qo‘lini hamyonga yubordi.

— E, o‘la qolsangiz bo‘lmasdimi? — achitdi Sodir mirshab. — Boshida tashlab o‘tish kerak edi! Rostdan ham «guppi» deyishgancha bor ekan! Past! Ahmoq!

Sodir mirshab Guppiga gapira turib, birdan Nasridinning oldiga tiz cho‘kdi-da, ko‘ksini ochib, boshini egdi:

— Uring, Nasriddin aka! Hamma pashshangizni shu boshimda urib o‘ldiring! Sizga qarshi Guppi bilan sheriklashgan shu ahmoq boshimda o‘ldiring!

Nasriddin unga bir soniya qarab turib nari ketdi.

Sodir mirshab shart turdi-da, qo‘lini qilich sopiga yuborib, Guppiga yuzlandi. Uning ko‘zlari sovuq yiltirardi:

— Bering tezroq!

Guppi shosha-pisha ikkita oq tangani olib unga uzatdi. Sodir mirshab Abdukarimga yaqinlashdi.

— Olmayman, deb aytdim-ku, — dedi Abdukarim undan chetlashib.

— Ol buni, xumpar! Ikkita oq tanga! Ko‘chada yotmaydi! — Sodir mirshab do‘q bilan tangalarni Abdukarimga tutqazishga urindi.

Bu tortishuvni qozi to‘xtatdi.

— Bas! — dedi u baqirib, — hozir vakolatnomani hal etaylik! — Qozi Guppiga yuzlanib, do‘qini davom ettirdi: — Buyoqqa kelib o‘tiring! Jim turasiz! Nasriddin Afandi bilan men gaplashaman! Bular nima deb shart qo‘ysalar, ko‘nasiz! Kim qo‘yibdi sizdaqa ipirisqi zamin-dorga Nasriddin Afandi bilan bellashuvni. Ajab bo‘pti! Xo‘b bo‘pti! O‘zingiz pishirgan osh, qanaqasiga xohlasangiz, shunaqasiga ichasiz! — Xo‘sh, mulla Nasriddin

Afandi! — qozi tuyqustdan jilmayib Nasriddinga yuzlandi.— Naqdini gaplashaveraylik. Vakolatnomani Muhsinboyga nimaning evaziga topshirishingiz mumkin?

Nasriddin bir zum o‘ylab turdi-da, e‘lon qildi: — Yuz tilla evaziga!

Guppi «voh» deb o‘rnidan turib ketdi.

— Yuz tilla! — ko‘zlari chaqchayib, boshini ushlagancha voy-voylab qozixonaning u boshidan-bu boshiga borib kela boshladi.

— Men bu tillalarni, — davom etdi Nasriddin vositachi sifatida qoziga qarata, — Muhsinboyning o‘ziga qaytib beraman. Faqat u keyingi o‘n yil mobaynida yerlarini tortib olgan jami odamlarini, jami qarzdorlarini chaqiradi. Menga bitta-bitta aytib turadi, men ularning qancha qarzi borligini to‘layman. Undan keyin o‘q ariqdagi xo‘jayinchiligidan ham kechdim deb, qishloq ahli yig‘inida e‘lon qiladi. Qarabsizki, yuz tillasi ikki-uch kunda o‘ziga qaytib boradi! Olam guliston!

— Ajab savdo! — dedi qozi sevinib. — Juda mardona savdo! Ofarin! Siz ham ofarin deng!

Qozi so‘nggi jumlani o‘rtada halokuning itiday yurgan Muhsin guppiga qaratdi. Nigohini ham qaratarkan, «iya!» deb yubordi. Uning ketidan qaragan boshqalar ham «iya!» deb yuborishdi...

Muhsin guppi chiqib qochgan edi.

— Ushla! — baqirdi qozi mirshablarga qarab.

Ikkala mirshab yugurib chiqib, uch-to‘rt daqiqadan so‘ng shalpayib kelishdi. Ular Muhsin guppini topisholmagandi.

— Sen ablahlarni zindonga buyuraman! Shundoq bir axmoq odamning nayrangiga uchib yuribsanlar! Sardobaning boshida senlarga pishirib qo‘yganmidi? — baqira ketdi qozi sho‘ppayib turgan mirshablarga.

— Qozikalon, qozikalon! — dedi Nasriddin qozining o‘zini chetga tortayotganligini anglab. — Bularingizni keyin urishaverasiz. Vakolatnomani gaplashaylik. Uni juda donolik bilan yozgansizki, agar bek janoblari o‘qigudek bo‘lsalar, martabangizni yanada ko‘tarib, o‘zlariga maslahatgo‘y qilib olarmikinlar, deyman-a?

— Buning ahmoqligini qarang! — dedi qozi gapni burib. — Qochib qayoqqa borarding, deng?! Rostdan ham guppi ekan! Shu aqli bilan sizdek zukko odamga tosh otmoqchi bo'lganini qarang!

Nasriddin betoqat bo'lib o'rnidan turgandi, qozi har ehtimolga qarshi o'zini orqaga tashladi. Lekin Nasriddinning urish niyati yo'q edi.

— Mayli, boyni keyin topib tergayverasiz. Lekin u qulog'ingiz bilan ham, bu qulog'ingiz bilan ham eshitib qo'yinglar! Men pashshalarimni bozorning qoq o'rtasidami, to'yu tomoshadami, huzuri oliyadami o'ldiraverishga haqqim bor!

— Xo'p-xo'p, xo'p-xo'p! — derdi qozi. — Men o'zim shu ishni ko'nglingizdagidek amal bo'lishiga kirishaman!

Nasriddin Abdukarimga imladi-da, boshini baland tutib chiqib ketdi.

Oraga uzoq jimlik cho'kdi. Uchovlon nima qilishni, nima deyishni bilishmasdi. Mirshablar sho'ppayib, yelkaları osilgan ko'yi turishar, qozi esa qovog'i uyulgancha yerga tikilgandi.

Nihoyat, qozi mirshablarga o'qraygancha gap qotdi:

— Yerning ostidan bo'lsa ham, osmonning ustidan bo'lsa ham topib kellaring o'sha ahmoqni! — dedi ijirg'anib. — Asal-u xumlarni ega-egasiga topshirib, ji-im yuringlar!

Mirshablar: «Ho'p bo'ladi, taqsir! Xo'p bo'ladi!» degancha bu yerni tark eta boshlashdi. Ammo... ularga qozixonadan chiqib ketish nasib qilmadi...

## ***YANGI FITNA***

**H**a, mirshablar qozining oldidan chiqishga ulgurmadilar. Ostonaga yetganlarida ularni ikki yoqqa surib o'qdek otilib Muhsin guppi qaytib kirdi.

— Xohlasangiz zindonga buyuring! Xohlasangiz darra urdiring! Lekin u shaytonga yuz tilla bermayman! Shartlariga ko'nmayman! Bitta kelgindi tufayli sharmanda bo'laymi?!

Muhsin guppi kira solib bu gaplarni qatorlashtirarkan, ta'na-dashnomlarning oldini olgandi.

— Sharmanda bo'b bo'ldingiz, — luqma tashladi Sodir mirshab.

Muhsin guppi unga javob bermay to'g'ri so'rining oldiga bordi-da, uchta hamyonchani chiqarib qo'ydi.

— Mana! — dedi u, biri kattaroq, ikkitasi kichikroq qizil duxoba hamyonlarni ko'rsatib. — Bunisida ellik tillo, boshqalarida esa yigirma besh tillodan.

Qozikalon bilan mirshablar yuz tilloning uchga bo'linib kimga mo'ljallanganini tushunardilar-u Guppi-ning maqsadi nimaligini bilmasdilar.

Guppi hamyonlarni qaytadan qo'lga olib tarqatib chiqdi:

— Bu ellik tillosi sizga — qozikalon, bu yigirma besh-taliklari sizlarga. Menga vakolatnomani o'sha kelgindidan olib beringlar! Faqat pulni unga bermanglar! Iltimos, sharmanda qilmanglar shu kelgindining oldida!

Hozirgina hech ikkilanishsiz to'g'ri yo'lga tushib turgan podsholikning uchala kishisiga pul o'z kuchini ko'rsatdi. Qo'llariga bitta qo'rg'on sotib olsa bo'ladigan pul tushgandi. Qozi qo'rg'onni o'ylab, dili entiksa-da, ichidagini sirtiga chiqarolmay:

— Yuz tillani Nasriddinga berib qutulmasangiz bo'lmaydi, Muhsinboy! Ikki o'rtada mening yuzim qora bo'lib qoladi, — dedi.

— To'g'ri, — Sodir mirshab hamyonchadan besh tillani ajratib oldi-da, qolganini so'riga qo'ydi. — Besh tilla mening haqim.

Nahotki, shu odamning qo'lidan bitta hujjatni olishga kuchi yetadigan ikkita yigit topilmasa?!

— Toping o'zingiz, — dedi Sodir mirshab haqini beliga tugib.

— Axir men yuz tilla beryapman! — Muhsin guppi birdan o'zgarib, muloyim avrashga o'tgandi. — Yigirma besh tilla-ya! Kattakon yer sotib olib zamindorlik qil-sa bo'ladi. Ishqilib o'sha kelgindining aytgani bo'lmasa bas!

Podsholikning uchala odami yana qattiq sarosimaga

tushish-di. Sirasini aytganda qo‘llaridagi pul unchamuncha emasdi. Muhsin guppi zarbalarini davom ettirdi.

— Qozikalon, axir siz boshini qay teshikka tiqishni bilmay yurgan qalang‘i-qasang‘ilarning ming-mingini bilasiz. Bitta tillaga bajarib berishadi. Men shaharni bilmayman, bo‘lmasa sizlarga yalinib o‘tirmasdim...

Guppini gapi shu yerga kelganda, qozi peshonasiga shap etib urgancha xitob qildi:

— Ahmad tarasha!

— Aqlingizdan aylanay! — Guppi shunday deb qozini quchoqlab o‘pmoqchi bo‘ldi. — Xuddi o‘zi! Boz ustiga ajrimini bek sizga topshirdilar.

Qozi Guppi quchog‘idan o‘zini opqochdi-da, hammani so‘riga imladi.

\* \* \*

Savrinisa mita tushgan guruchini ertalab yoyib qo‘y-gandi. Yig‘ib ola qolay deb, xumchaga yarmini solib ulgurmagan edi hamki, eshikdan eri kirib keldi. Savrinisa dik etib turib peshvoz chiqdi. Nasriddinning yuzlari horg‘in, lekin ko‘zlaridan nim tabassum arimagan edi. Savrinisa ana shu tabassumni ko‘rgan zahoti butun charchoqlari, Jurjondan uzoqda yashayotganidan tug‘ilgan alamlari bir zumda tarqab ketardi.

— Yaxshi keldingizmi? Damingizni olib turing, choyga o‘t yoqvoraman.

— Ha, bir oyoqni uzatay. Bozorda toza hangoma bo‘ldi.

— Tinchlikmi?

— E, butun podshohlikning o‘g‘risi bugun bizga yig‘ilgan ekanmi, birov hamyonini oldirgan, birov qopini, birov xumini.

— Voy, tavba! o‘zingiz tinchmisiz?

— E, birinchi bo‘lib biz oldirdik-da xumlarni!

— Voy! O‘zingizga ziyon yetmadimi? Qanday qilib?

— Bilmay ham qobman. Abdukarim bilan gapga alahsib bir vaqt qarasam, hech vaqo yo‘q!

— Kelgan balo-qazo o‘shanga ursin.

Nasriddin obdastada yuz-qo'lini yuvdi. Artindi. Xotini esa xurjunga Abdukarim qo'yarda-qo'ymay solib yuborgan handalakni eshikning yonginasiga bo'shatdi.

— Hoy, — dedi Nasriddin qumg'onga o't yoqa boshlagan xotiniga. — Eski bir charm qopchiq bo'lguchiydi. O'shani ober-chi!

Nasriddin supaga chiqib yonboshladi. Xotini qopchiqni topib chiqib, changini qoqib-suqib uzatarkan, hazilomuz gap qotdi:

— Ha, g'animatga uchradingizmi? O'zingiz-ku chuv tushib kebsiz?

— E, qo'yaver.

Savrinsa yana o'choqqa unnadi. Nasriddin qozidan olgan vakolatnomani qo'ynidan chiqarib yana bir o'qib maroqlandi. So'ng surnay qilib o'radi va qopchiqqa soldi. Xotiniga bir qarab olib asta o'rnidan turdi-da, bo'g'otning ostidagi teshikka tiqib qo'ydi.

## TO'YDAGI VOQE'A

**E**rtasi kun Nasriddin Afandining qo'shnisi Mutal bobonikida sunnat to'yi edi. Turgan gap, bunday kunda hovlidan suv oqib turmasa, to'y to'ydek o'tmaydi. Guppi esa o'zimning hovlimdan suv oqmasa dimiqib ketaman deb, ariqni bog'lashga ruxsat bermayotgandi.

Ertalab Nasriddin Mutal boboni ergashtirib ariq boshiga bordi. U yerda kelishilgan bo'yicha Abdukarim yetagida yetib kelgan Guppinning malaylari Tursunali bilan Alimsho hozir edilar. Yana o'n-o'n besh chog'li tomoshatalablar ham yig'ilgandi.

— Muhsinboy kelishni ravo ko'rmadilarmi? — so'radi Nasriddin.

— Yo'q, — dedi Abdukarim.

— Bizni o'zlarining nomlaridan yubordilar, — dedi Alimsho qoshlarini chimirib.

— Juda yaxshi. Bo'lmasa, menda o'zlari biladigan vakolatnoma ham borligini aytgandirlar?

— Xo'sh? — dedi Alimsho, garchi Guppi aytmagan bo'lsa-da, o'zini xabardor ko'rsatib.





— Ana shu vakolatnoma bo'yicha bu ariqdagi suv endi qishloqniki hisoblanadi. Ko'nmagan odamning quloq-chakkasiga chuchvara qaynatishim mumkin!

Nasriddinning gapi yig'ilganlarni hang-mang qilib qo'ydi.

— Yo'g'-e?! Yo'g'-e?! — dedi Alimsho.

— Ha! Xo'jayiningiz bunga ishonmagandi, qozi-kalonning oldida uch-to'rt tarsakining mazasini tatib ko'rdi.

— Yo'g'-e?! Yo'g'-e?!— dedi Alimsho. Qolganlarning, ayniqsa Tursunalining og'zi lang ochilib qolgandi. Odamlar orasidan bir-ikkita zavqli qiyqiriq ham eshiltildi.

Yig'ilganlar baribir Nasriddinning gaplariga ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilmay turardilar.

— Xo'sh! — dedi u Alimshoga kesatiq bilan. — Nega bo'lmasa xo'jayiningiz kelishga qo'rqdi. Tarsakimni yedi! Gapim rost. Mana, Abdukarim ham guvoh.

— Kalomullo ursin, men guvohman! — dedi Abdukarim va qozixonona esiga tushib qotib-qotib kularkan, gapirolmay qoldi. — O'zlari ham, Muhsin boyni aytaman, ontarilib-ontarilib tushdilar. Bitta o'zlarimas, mirshablar ham yedi, qozikalon ham yedilar...

Yig'ilganlar Abdukarimning kulgisiga jo'r bo'lishdi.

— Xo'sh! — dedi Nasriddin Mutal boboga qarab. — Qani, oching suvni arig'ingizga qarab.

Mutal bobo kulgining zo'ridan yoshlangan ko'zlarini arta turib, yig'ilganlarga qaradi-da:

— E, juda zo'r kelsa Guppidan bir so'kish eshitamanda! — deb suv ochishga kirishdi.

Tursunali, «nima qilay?» degandek Alimshoga qaradi. Alimsho esa Nasriddin Afandining na faqat Kumushkentdagi bek, balki Jurjondagi saroy bilan ham aloqasi borligini eshitgandi. Boz ustiga tarsaki yeb sharmisor bo'lishidan juda qo'rqardi.

— Qani, biz boy akam bilan bir maslahat qilaylikchi, — dedi ming'illab. Keyin Tursunalini ergashtirib pildiragancha jo'nab qoldi.

Qahqaha avjga mindi. Odamlar suvniyam unutib, Nasriddin bilan Abdukarimdan qozixonadagi voqeani

surishtirishga tushib ketishdi. Bu yerdagi quvonchli hangoma esa Alimsho bilan Tursunalini ancha joygacha quvib bordi.

Ikkovi Muhsin guppining oldiga borib voqeani aytib berishdi. Poyintar-soyintar, hovliqib gapirisharkan, Muhsin guppi goh gezarar, goh qizarardi.

— Xo‘jayin, nima qilay? Borib ariqni ochib yuboraymi?

Guppi anchagacha indamay turdi-da, so‘ng sulhparvar ohangda to‘ng‘illadi:

— Ariqni qo‘ya tur. Boshqa zaril ishlaring yo‘qmi? Bugun to‘y ekan, mayli, ra‘iyatga yomon ko‘rinmaylik.

Alimsho bilan Tursunali og‘izlarini ochib qolishdi.

— Bor, otni egarla!— dedi Guppi Tursunaliga. Tursunali ketgach, Alimshodan sekin so‘radi. — Hujjatni ko‘rdinglarmi?

— Yo‘q, — dedi Alimsho nafasi ichiga tushib. Chunki Guppining bu savoli Nasriddinning gaplari to‘g‘ri ekanligiga tasdiq edi.

— Bor, devoningni olib chiq! — dedi Guppi unga, miyasida bir reja tuzib.

Alimsho she‘r devonini hamisha yonida olib yurardi, darrov uni chiqarib berdi. Bu gapning ustiga Tursunali otni yetaklab chiqdi.

— Men buni bugun kotiblarga beraman. Yigirma nusxa ko‘chiringlar deyman, — dedi Muhsin guppi devonni hazar qilgandek olarkan. — Bugun hamma to‘yda bo‘ladi, senlar esa Nasriddinning uyiga kirib vakolatnomani qidirasanlar!

— Q-qanaqa vakolat? Q-qaerda qidiramiz? — so‘radi Alimsho o‘g‘rilik bilan teng bo‘lgan bu topshiriqdan yuragi chiqib.

— Qozixonaning vakolati-da! — jerkidi Guppi jahl bilan. — Bundoq nay qilib o‘ralgan. Qog‘oz darrov chiqadi-ku! Uch-to‘rtta kitobi bor, o‘shalarning ichini qaranglar. Taxmon, tokchalarni titinglar! Ha, darvoqe! Menikida shuncha xizmat qilasanlar. Haqlaringni bera-man deb esimdan chiqadi. Hozir berib qo‘yay.

Guppi hamyon titkilab ikkita kumush tanga chiqarib ulashdi.

— Gap shu! — dedi otga o‘tirib qamchi bosarkan.

Tursunali-ku mayli. Alimsho kuchli ikkilanishda qolgandi. Ammo Guppi uning nozik joyidan — devonidan ushlab noiloj ahvolga qo‘ygandi.

Ikkita malayining oldida jahlini bosib turgan Guppi ot yeldirib qishloqdan chiqqach, bor ovozda so‘kinib ketardi. Shu ahvolda u yana yuz tilla sarf qilsa ham vakolatni olishga qaror qilgandi. Bugun Nasriddin Afandining uyi titilishidan naf chiqishiga unchalik ishonmagani uchun qozikalon bilan tuzilgan rejani tezlatishga qaror qilgandi.

### **TARASHAGA ISH TOPILDI**

**U**ch kundan beri Ahmad tarasha mirshab yoki qozixona odamlarini ko‘rsa yo‘lini teskari solib yurardi. Bekning amridan keyin qozikalon uni bunchalik hafsala bilan qidirtirishini u hech xayoliga keltirolmasdi. Qani endi hozir besh-olti tangasi bo‘lsa-yu, boshqa shahar yoki qishloqqa ketib, uch-to‘rt oy yo‘q bo‘lib ketsa.

Shu kunlarda Tarasha har qanaqa ish qilishga ham tayyor edi. Hatto eng so‘nggi chora — Qosim qarochigiga yollanishgayam jon-jon deb rozi bo‘lardi.

Ahmad tarasha oshib-toshib yotmagan bo‘lsa-da, o‘ziga to‘q oilaning yolg‘iz farzandi ekanligidan taltayib ketgan, qunt talab qiladigan ishni eplolmaydigan bo‘lib o‘sgandi. Bora-bora bu nuqson pattalab shohona hayot haqidagi puch xayollar tuzog‘ini to‘qigandi. Oila tashvishi, bola-chaqa boqish — ko‘ngli shohona saroy, bog‘i eramlarni qumsaydigan Tarasha uchun jahannamning o‘zginasi edi.

Shu xayol va tashvishlar changalida battar qotib ketgan Tarasha qandaydir ilinjda Shokir qizilning choyxonasidan uzilolmasdi. Hozir ham yo‘lda o‘tiradigan gadoyvachchadan xabar oldirib, choyxonadan o‘ttiz qadam narida o‘tiradigan ikkinchisini esa qorovullikka qo‘yib kirib kelganda shu kezlarda hamtovog‘iga aylangan Abdi oppoq o‘sha yerda edi. Xuddi o‘tirgan joyiga

yopishtirilgandek tasavvur tug'ildi Tarashaning xayolida.

— Senga qoyilmasman! — dedi Abdi oppoq Tarasha uning yoniga kelib cho'kkach. — Qo'rg'oning bor, bola-chaqang bor. Tinchgina yashamaysanmi? Men-ku, bilimadim qaysi gunohim uchun Xudo urib qo'yibdi, bo'lmasa bunaqa qilib yurmasdim.

Ahmad tarasha bir qarab qo'yib javob bermadi. Abdining bu gapi chapani zotida kamdan-kam bo'ladigan bir-birining ishiga aralashish edi.

— O'g'limni oyoqqa qo'ysam ketardim qalandar bo'lib, — davom etadi Abdi. — Shu o'g'lim deb yuribman.

Oraga sukunat cho'kdi.

— Menga bola-chaqa tashvishi yoqmaydi, — dedi nihoyat Ahmad tarasha sekin. Chapanilarning nigohlari uchrashganda ikkovining ko'zidan beqiyos qayg'u aks etardi. — G'ujurlashib yurganini yoki ular uchun egilib ishlashni o'ylasam... o'zimning janozam a'lo ko'rinadi... Xullas, shunaqaman-da!

Tarasha qo'l siltadi. Keyin yana jimlik cho'kdi.

— Lekin yilida uch bo'lmasa ham ikki kirib sariq'idan tashlab turaman. Tushgan-tushganda. Manjalaqi aytgandek, juda qoramni ko'rsatmay ketganim yo'q...

Choyxonada ko'k yaktakli olachipor soqolli meshkobchi paydo bo'lishi bilan Ahmad tarashaning gapi og'zida qoldi. Kirgan-chiqqandan ogoh bo'lib hushyor o'tirgan Tarasha — meshkobchi kira solib unga bir ko'z tashlaganidanoq, ish borligini sezdi.

O'ylaganidek, meshkobchi nariroqda turib imo qildi.

— Bir kishi qozixonada sizni so'rayapti. Qozikalon, qo'rqmasin, deb aytdilar, — dedi meshkobchi ikkinchi gapini tezlikda ilova qilib.

Lekin bu ilovasi kor qilmadi. Pastak shiftga tegmasin deb boshini engashtirib turgan Ahmad tarasha qo'llarini beliga tiradi.

— Puchakmas,— dedi shoshib meshkobchi.— Boshim garov! Topib shuni ayt deyishdi.

— Mani kozixonalik ishim yo'q!

Tarasha g'azabini bosganicha shunday deb joyiga qaytdi.

— Darmon doringdan olchi! — dedi Abdiga ko'zlari yonib qaraganicha.

— Muni sho'rvasi pishsin, keyin. Shokir, ovqating bo'p qoldimi? — Abdi bir varakay ikki kishiga murojaat qildi.

Meshkobchi ko'zini uzmay turardi. Ahmad tarasha unga qarab pichirlab so'kingandan keyin chiqib ketdi.

Choyxonachi tumshayib keltirib qo'ygan sho'rvani ichib, ustidan bir kaft ko'knori kepagini otib, huzurga berilishganda bo'sag'ada yana meshkobchi paydo bo'ldi.

Shuni aytish kerakki, giyohvandlikka keyingi paytlarda ayniqsa Ahmad tarasha ro'ju qo'ygandi. Abdi oppoq esa uni onda-sonda, ovqat bilan iste'mol qilardi.

Meshkobchi ko'ringach, Ahmad tarasha teskari o'girildi. Meshkobchi uning nazar tashlashini uzoq kutgach, turishi befoydaligini tushunib, asta o'zi yaqinlashdi. So'ringning chekkasiga omonat o'tirib, uyoq-buyoqqa qarab oldi-da, bir tilla tangani chiqarib sholchaga qo'ydi, so'ng uni asta laganning tagigacha surib, Tarashaga ko'rinadigan qilib qistirdi.

Ahmad tarasha ko'zlari chaq nab bir tangaga, bir atrofga, bir meshkobchiga qarab o'yga toldi. Tejab-tergasa bu tanga uch-to'rt oylik tirikchiligiga yetadi. Uchchovi miq etmay xiyla cho'zilgan jimlikdan so'ng Tarasha pulga asta qo'l yubordi. Meshkobchi yengil nafas oldi. O'rnidan turib, Tarashaga engashgan ko'yi: «Laylak qishlog'i, Muhsinboy. Bugun», dedi-da, chiqib ketdi. U juda sekin gapirgani uchun shunday yonginasi-da o'tirgan Abdi oppoq ham hech narsa eshitmadi.

Ahmad tarashaning kayfi birdan choq bo'ldi. «Shokir», deb choyxonachini chaqirdi. O'n-o'n besh kundan beri Ahmad tarashaning yemak-ichmagi qarzga edi. Choyxonachi tumshayganicha kelganda Tarasha boyagi tangani tashladi:

— Mana bundan insof bilan haqqingni ol! Oqshom bunga (Abdiga imladi) bitta osh damla! hozir ikki tugun doringdan keltir.

— E, otangizga rahmat! — dedi choyxonachi ko‘zlari yonib tangani ushlab uyoq-buyog‘ini ag‘darib ko‘rarkan. — Bizning qo‘lga ham bunaqasi tusharkan-ku!

Bir ozdan so‘ng choyxonachi qaytib kelib besh-oltita kumush tanga bilan ikkita tuguncha qo‘ydi. Uning bo‘yagi tundligidan asar ham qolmagandi.

Ahmad tarasha tugunlarning birini olib, Abdiga hayrma‘zurni ham nasiya qilib chiqib ketdi.

Abdi oppoq yolg‘iz qoldi.

Abdi oppoqning haqiqiy otini ham, nasl-nasabini ham hech kim bilmasdi. Kumushkentga olis tog‘ qishlog‘idan ikki yarim yashar o‘g‘lini yetaklab kelganiga mana roppa-rosa bir muchal vaqt o‘tgandi. Aftidan o‘zining yurtida jangovarlikda mashhur bo‘lsa kerak, birovdan g‘azabi qaynaganda bir-ikki marta: «O‘v, men toqchi urug‘idanman!» deb qo‘yganini odamlar eshitishgan.

Ikki-uch yashar bolasi bilan odam bekorga begona yurtga bosh olib kelmaydi. Abdi shahar chekkasidan kichkina hovli sotib olganda, qo‘ni-qo‘shnilar orasida shu savolga javob olishni istovchilar anchagina topildi. Lekin Abdidan: «Xotinim o‘lgan. Undan keyin yurtim ko‘zimga yomon ko‘rindi», — degan gapdan bo‘lagini ololmadilar.

Xotini juda go‘zal bo‘lganini, o‘g‘lini tashlab bir boyvachcha bilan qochganini, ularni topib boyvachchani o‘ldirganini, xotinini esa uch taloq qilib tashlab kelganini hech kimga aytmasdi. Inchunin, o‘g‘liga ham. Halol, serhunar, ayniqsa, kuchli yigit bo‘lgani uchun tez orada elga qo‘shilib ketdi.

Uning favqulodda kuchliligini qo‘shnilar bir kuni qo‘shni mahalladan quturgan buqa qochib kelganda bilishgandi. Buqa yo‘lda bir-ikkita odamni ezg‘ilagan, mahalla «qoch-bekin» bo‘lib turgan paytda, Abdi oppoq to‘g‘ri buqa qarshisiga chiqib kelgan, buqaning ikki shohidan ushlab «yo, pirim!» deganicha yerga yiqitganda, halloslab-hansirashgan egalari yetib kelguncha shunday ushlab turgandi.

Buqa bog‘lanib, Abdi oppoq o‘rnidan turganda odamlar unga boshqacha qaray boshlagandi. O‘rtadan sal

balandroq, bir oz to'lishgan gavdasida shuncha kuch borligiga lol qolishgandi.

Kumushkentda bir pirsiyonning maktabi bo'lguchi edi. Unda ta'lim oladigan o'rtamiyona boylarning bolalari har tomondan mukammal kishi bo'lib yetishardilar. O'n ikki yoshda bu maktabga kirgan o'spirin o'n yetti yoshida ham harbiydan, ham arabu forsiydan, ham mirzolikdan, ham siyosat davlat tuzilishining shajarasidan xabardor bo'lib chiqardi.

O'g'li o'n ikkiga yaqinlasharkan, Abdi oppoq shu maktabni orzu qilib qolgandi. Ittifoqo bir kuni uning oldiga bir savdogarvachcha kelib, sevgan qizini opqochib, boshqa shaharga, tayinli joyga qo'yib kelishni iltimos qildi. Ish ko'ngildagidek amalga ohsa ellik tilla berishiniyam qistirdi. Maktab ilinjida yurgan Abdi oppoq obdan surishtirib, qiz ham roziligini, faqat ota-onalar o'rtasidagi mojaro tufayli baxti qarolik yuz berishi mumkinligini aniqladi. So'ng bu ishni juda ustalik bilan amalga oshirdi.

Qarabsizki, o'g'ligayam pirsiyonning maktabi eshiklari lang ochildi qo'ydi. Uning o'zi odamlar nazdida birdan o'zgardi-qoldi. Ustachilikni tashladi, otidan tashqari molholini sotdi, tomorqasiga qaramay qo'ydi. Aslida Abduning ko'ngli dunyodan sovuganiga ancha bo'lgandi. O'zini bazo'r ushlab yurardi, o'g'lidan ko'ngli to'lgach esa tashlab yubordi-qo'ydi. Karvonga qo'riqchi sifa-tida yollanib bir Bag'dodga, bir Dehliga borib kelgandi, oradan uch yilga yaqin vaqt o'tib ketdi.

Bu yilni u Kumushkentda o'tkazishga qaror qilgandi. Bir tomondan, charchagan, ikkinchi tomondan, o'g'lini ko'rib turish istagi tufali bahorda karvonboshilardan kelgan «sovchi»larga rad javobini bergandi.

Hozirgi kunda esa hemirisizligidan tashqari, pirsiyonning maktabiga haq to'laydigan vaqti ham o'tib borayotgandi.

Xullas, u Ahmad tarashadan ham ko'proq aqchaga zoriqqandi. Shu sababli Shokir qizilning choyxonanishiniga aylangan ekan, har kuni ikki-uch mahal bozordagi boshqa choyxonalarga ham ko'rinib, uchragan tanishlariga o'zining pakkasini tayinlab qaytardi.

**AHMAD TARASHA ISH BOSHLADI**

**A**bdukarim yangi qo'rg'onidagi chala bitirgan charxpalagini sinash uchun ishga tushirgan, hali oxirgi mixlar qoqilmagan, novlari ham omonat o'rnatilgan charxpalak bir ariq suv bera boshlagandi.

Abdakarim yaqinda qazilgan ariqlardan sho'x yugur-gilab ketayotgan suvga mahliyo bo'lib ekinzorning nari-gi chekkasiga borib qolganini sezmay qoldi. So'ng behu-da isrof bo'lmasin deb, suvni yangi bedazorga burdi.

Ha, bu yerda hamma narsa yangi va Abdakarimning o'z qo'li bilan yaratilgan edi. U kamdan-kam odamga nasib qiladigan maroq bilan suvning oqishini kuzatib, go'zal orzularga cho'mdi.

Shu payt ikki yuz qadamlarcha orqada qolgan uy tarafdin xotini chaqirayotganini elas-elas eshitdi. Azbaroyi maza qilayotganidan qimir etmadi. Lekin oldiga yetti yoshlardagi qizchasi yugurib keldi-yu, uning baxtli daqi-qasiga chek qo'yildi.

— Adajon, oyijonimga uch kishi do'q uryapti!

Zuhra qizcha bu gapni beqiyos vahima bilan shunday ohangda aytdiki, hushi boshidan uchgan Abdakarim ket-monni ola solib uyiga yugurdi.

Xotini Zubayda chaqaloqni bag'riga bosganча bir chekkada dag'-dag' qaltirab turar, ayvon taxmonidagi ko'rpa-to'shaklar ag'dar-to'ntar qilingandi. Bularning bariga kuloh kiyib, yuzining yarmiga mato bog'lab olgan uch kishi sababchi edi.

Bosqinchilarning baland bo'yli bir qotmasi allanarsalarni baqirib so'kinganча ichkaridan katta xumda-gi moshni bir o'zi ko'tarib chiqdi-da, shunday hovli sahniga ag'dardi.

— Hoy, musulmonlar, sizlarga nima kerak? — so'radi Abdakarim qo'rqqanidan tutilib-tutilib.

Bosqinchilar Abdakarimni ko'rib, tintuvni qo'yishdi-da, cho'qmolarini qo'lga olishdi. Uchchovining belida xanjar osig'liq edi.

Mosh ag'dargani Abdakarimga yaqinroq keldi. Bu — qovog'igacha kuloh bostirilgan, yuzi tang'ilgani uchun



faqat yashil ko‘zlari ko‘rinib turgan Ahmad tarasha edi. Sirasini aytganda, agar yuzi ochiq bo‘lganda ham Abdulkarim uni tanimasdi.

— Ha, tovlamachi, vakolatnoma qani? — baqirdi Ahmad tarasha.

Abdulkarim hech narsani tushunmadi.

— Qanaqa vakolatnoma?

— Ho! — dedi Ahmad tarasha o‘rtoqlariga qosh qoqib. — Yuz tilloli vakolatnomani ham bilmaydi-ya! Pashsha! Nasriddin Afandining pashsha haqidagi vakolatnomasi! Bilib qo‘y, mol-joning, bolang kerak bo‘lsa topib berasan!

Ahmad xanjarini chiqardi-da, Zuhra tomon yo‘naldi. Qizcha otasidan keyin yetib kelib, onasining yaqinida barmog‘ini og‘ziga tiqqancha turgandi.

Tarashaning harakatidan Zubayda chinqirib qiziga, Abdulkarim esa ketmon bilan Tarashaga otildi. Lekin urish-so‘kishning hovasini olgan qaroqchi uning hamlasiga chap berib, sheriklari yordamida birpasda bog‘lab tashlashdi.

— Ayt, qaerda?— dedi Tarasha yerda yotgan Abdulkarimni tepib.

Abdulkarim ingrab, javob berolmadi.

Uning ahvolidan Zubayda va Zuhra baqirib yig‘lab yuborishdi. Bundan cho‘chigan chaqaloq ham ularga jo‘r bo‘ldi.

— O‘chir ovozingni! Itvachchalariningnikini ham o‘chir! — baqirdi Tarasha Zubaydaga qarata. Gapi kor qilmagach, Abdulkarimning bo‘yniga xanjar qadab qo‘shimcha qildi. — Hozir so‘yib tashlayman eringni!

Bechora ona-bola qo‘llari bilan og‘izlarini berkitishdi.

Tarasha yana Abdulkarimga o‘tdi. «Ayt!», «Kimga berib qo‘ygansan?», «Qaerga yashirgansan?», «Nasriddin Afandidami?» degan so‘roq va qistovlarni takrorlarkan, ora-sira tepib qo‘yardi.

Ona-bolaning bo‘g‘iq ho‘ngrashi, chaqaloqning bi-g‘illashi, Tarashaning do‘qlari olis-olislarga taralardi. Lekin tushdan keyingi jazirama kunda uzoqda kichkina



bo'lib ko'rinayotgan sardoba chinorlaridan bo'lak bu to'polonga sado berishi mumkin bo'lgan qimirlagan qora ko'rinmasdi. Mabodo bironta o'tkinchi ko'ringanda ham yordam berishdan ojiz bo'lardi.

Tarasha tepishdan charchab, Abdukarimda rostdan ham vakolatnoma yo'qligini tushundi. Lekin o'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas degandek, hamma choralarni sinashi lozim edi. Sheriklariga Zubaydani ushlab turishni imo qilib, Zuhrani bo'yni, yelkasi aralash changallab o'ziga tortdi-da kattakon xanjarini uning bo'g'ziga to'g'riladi. Qizcha ko'zlari shokosasidan chiqib ketgudek big'illab, baqirib tipirchiladi-da, hushidan ketdi. Tarasha esa parvo qilmay Abdukarim bilan uning xotiniga qarab baqirdi:

— Aytlarig, hujjat qaerda, bo'lmasa bolaning joniga jabr qilasan!

— Ayting! Bering o'sha hujjatni bilsangiz! — baqirardi xotin jonholatda.

— Bilmayman! Ko'rganim yo'q qozixonadan keyin! — titrab-qaqshab ishontirmoqchi bo'lardi Abdukarim.

Tarasha qizchani yerga qo'ydi-da, boshqa yo'lga o'tdi. Bir quchoq pichanni o'zi olib, sheriklarini ham shunday qilishga undab, charxpalak tomon yurdi. Uchala bosqinchi kattakon xoda tirab aylanib suv chiqayotgan charxpalakni to'xtatishdi. Keyin qaytib, biri Abdukarimni suyadi, biri yana pichan oldi. Tarashaning o'zi esa xokandozga cho'g' solib oldi. Bu paytda Zubayda yig'lab-siqtagancha Zuhraning yuziga suv sepib, atrofida parvona bo'lardi.

— Mana, qara! — dedi Tarasha Abdukarimni charxpalakka qaratib yotqazishgach. — G'irromlik bilan yuz tillani tortib olmoqchi bo'lgan kishining jazosi shu.

Ahmad tarasha gapini tugatib charxpalak tagiga taxlangan pichanga o't qo'ydi. Ho'l shimib ketgan chig'irni batamom yoqishga kamlik qilishini sezgach, Tarashaning sheriklari ro'zg'orga g'amlangan o'tindan keltirib tashlay boshlashdi. Tarashaning o'zi esa Abdukarimga: «Ayt! Topib ber!» deb hamon zug'um qilardi.

Bog'langancha yotgan Abdukarim esa ingrab yig'lar: «Hoy musulmon! Bilmayman! Ko'rganim yo'q. O'tni o'chiringlar! Xonavayron bo'ldim!» deb zorlanardi.

Namiqib ketganligiga qaramay, yarim-yorti yonib bitgan ulkan charxpalak suvga qulab tushdi. Yerdan qolgan novning va ustunlarining bo'laklari yarim-yorti tutab yotardi.

Charxpalak haqiqatan ham katta edi. Balandligi o'n-o'n besh qadam kelardi. Chunki u suv olayotgan jarning o'zi chuqur va kengina edi. Abdukarim toki qirg'oqqa olib keladigan uzun novlarni yasaguncha ham ozmuncha yog'och va mehnat sarf qilmagandi.

— Bu kaltaklar, chig'irig'ning<sup>1</sup> yongani hali holva, — dedi ko'zlari sovuq yiltirab Tarasha. — Agar vakolatnomaning kimda va qaerga yashirib qo'yilganligini bilib bermasang, joningdan umidingni uzaver! Bolalaringdan ayrilasan! Xonu-moningga o't qo'yaman!

Tarashaning ko'zlari aytganlarini oppa-oson bajo etishini zuhurlantirib turardi.

— Bilib qo'y, — dedi u dag'dag'asining oxirida sekin va mudhish ovozdagi. — Mening uchun odam pashshachalik gap! Eshitdingmi?

Mehnatiga, o'tgan alamlariga yosh boladek uvlab, ko'zini charxpalakdan uzmayotgan Abdukarim bosh irg'ab qo'ydi. Shu daqiqada u qozixona mojarosiga aralashib qolganligiga o'zini ich-ichidan so'kardi.

Tarasha bilan sheriklari Abukarimni yotgan holida tashlab, otlanib ketdilar. Uvlab yotgan Abdukarim anchagacha ularning ortidan qarab yotdi.

Xotini shosha-pisha uni yechib olgach, Abdukarim o'rnidan turdi-da, oqsoqlanib, bukchayib belini ushlaganicha charxpalakning oldiga bordi. Yum-yum yig'lab, ko'zlarini tikkancha anchagacha turdi.

— O'zingiz tuzukmisiz? — so'radi Zubayda buning aksi bo'lishidan juda qo'rqib.

— Zuhra qalay?

— Ko'zini ochdi. Lekin gapirmayapti.

---

<sup>1</sup> Chig'ir — charxpalak.

— Yaramaslar,— dedi Abdukarim tishlarini g'ijirlatib.

Keyin xotiniga ingranib, eshak keltirishni va mingashtirib yuborishni so'radi. Xotini tushunmay angraygandi. «Hasandan xabar olay!» dedi.

— Voy, o'lmasam! — dedi Zubayda mol boqqani ketgan to'ng'ichi esiga tushib.

Eshakni olib keldi-da, erining minishiga ko'maklashar ekan, yana umid bilan so'radi:

— Bolaga tegishmas?

— Bu yaramaslarning qo'lidan har balo keladi. O'ldi-raman!— dedi Abdukarim biqinini ushlagancha ingranib.

Lekin Abdukarimning yo'lga chiqishiga hojat bo'lmadi. To'rtta qo'y va sigir-buzoqni oldiga solgancha Hasanning o'zi kirib keldi. Bolaning ko'zlari dahshatli savoldan ola-kula edi. Yonidagi bo'ribosar «Nima bo'ldi?» degandek tashvish bilan «Vof!» dedi.

\* \* \*

Mutal bobo nevarasining sunnat to'yi kuni Guppi tomonidan Nasriddinning uyini ham tintuv qilish haqida gumashtalariga buyruq berilgani o'quvchilarga ma'lum. Bu buyruq a'lo darajada bajarilgandi. Butun don-dun idishlardan ag'darilgan, ko'rpa-to'shak, kitoblarning tit-piti chiqarib tashlangandi.

Nasriddin xotining oh urishlariga qaramay, to'g'ri keldi-da, bo'g'ot teshigiga qo'l solib vakolatnomaning joyida ekanligini ko'rdi. Savrinisa esa darrov sham yoqib sandiqlaridagi bo'xchalarni yechib, sanab chiqdi. Hamma latta-puttasi joyida edi. Bu esa Nasriddin «o'g'rilar»ning asosiy maqsadini to'g'ri tushunganligini tasdiqlardi. Ertasiga Nasriddin har ehtimolga qarshi bo'g'ot teshigini yaxshilab suvadi-da, kechgacha nima qilish kerakligini o'yladi. To'g'risini aytganda, butun qishloq hol so'rashga kelaverib o'ylatgani ham qo'ymadi.

Muhsin guppinig taslim bo'lishni istamayotganligi aniq. Faqat qozikalon qaysi fikrdaligi noaniq edi. U ham Guppiga qo'shilib olganmikin?

Bu savol kech qorong'uda Abdukarimning kirib kelihi bilan o'zining ahamiyatini yo'qotdi. Bechora deh-

qonning ingranib, og'riq azobidan aftlarini burishtirib aytayotgan hikoyasini eshitarkan, Nasriddin joyida o'tirolmasdi. Abdukarim esa gapining oxirini vakolatnomani qozikalonga qaytarib berish haqidagi iltimos bilan tugatdi.

Nasriddin dik etib o'rnidan turdi-da boyagina suvagan teshikdan vakolatnomani olib Abdukarimga uzatdi:

— Mang, oling! Agar yana kelishsa, qo'llariga tutqazing! Boylar bilan, arboblar bilan teng kelib bo'lmas ekan, deng! Xohlasa, dehqonlarni bevatan qiladi! Xohlasa, kulini ko'kka sovuradi! Biz esa indamay qo'l qovushtirib turamiz, deng!

Abdukarim o'zini vakolatnomadan olib qochdi.

— Men o'zimni o'ylaganim yo'q! — dedi u og'riqlarini ham unutib. — Bo'larim bo'ldi, chig'irim yonib ketdi, endi uni tiklashga qurbim yetadimi-yo'qmi, noma'lum. Men sizdan xavotirdaman. Sizga biron zahmat yetkazishmasin deymen!

Nasriddin birdan «Alining alamini Validan olayotganini» tushunib, achchig'ini bosdi.

— Menga jin ham urmaydi, — dedi u hujjatni olgan joyiga yana yashirib. — Kelib aytganingiz yaxshi bo'ldi. Endi sizning ham bitta tukungizga birov tegib ko'rsin-chi! Men qozikalonning gapiga uchib yurib, shu kasofatga qoldirdim sizni! Qo'rqmang, chig'iringizni ham shu ko'ppaklarga tuzattiramiz! Lekin qaerda deb so'rashsa, mana shu joydaligini aytavering, — dedi Nasriddin bo'g'otini ko'rsatib.— Ha, aytmoqchi, hozir qo'rg'oningizga qaytasizmi, kech bo'p qoldi-ku?!

— Yo'g'-e! Kelingiz o'lsam ham qolmayman dedi. Hammamiz kelganmiz. Ertaga qaynilarimdan bir-ikkitasini olib qaytamiz! — Abdukarim shunday deb ketish taraddudida qo'zg'oldi. Nasriddin uni eshikkacha kuzatarkan, yana ko'nglini ko'tardi:

— Yaxshi. Lekin endi hech xavotir olmang! Endi men ularni boshqacha ohangga solamanki... o'zlari bosh urib kelishadi!

Ertasi kun azonlab Nasriddin darg'azab kayfiyatda shaharga jo'nadi. Dushmanlarining bosqinchilikka

borgani, uni deb Abdukarimning zahmat chekkani, qizchasining gapirolmaydigan bo‘lib qolgani Nasriddinni shu ahvolga solgandi.

Hozir borib qozikalonni, mirshablarni chunonam sharmanda qilsinki!

Bozorning o‘rtasiga olib chiqib uradi. Bek saroyining ichiga olib kirib uradi. Shunday ta‘zirini beradiki, o‘zlari Guppining oyoq-qo‘lini bog‘lab keltirishadi! O‘zlari bosh bo‘lib Laylakdagi qarzdorlarni Guppining iskanjasidan qultirishadi!

Nasriddin ana shunday xayollar bilan Kumushkent bozoriga kirib keldi. Shaxd bilan qozixona tomon ketarkan, Sodir mirshab va Nodir mirshab ko‘rinib qolar-mikin deb atrofni kuzatib borardi. Ular ko‘rinmadi-yu, ammo g‘uj-g‘uj odamlar ichida unga tikilgan yashil ko‘z yilt etib ko‘rinib ketdi. Nasriddin darrov alanglab shu ko‘zning egasini qidirdi. Yo‘q, ular yashiringan edilar. «Menga shunday tuyulgandir», degan xayolda qozixonaga o‘tdi.

Qozixona berk edi. Semiz, damqisma kasalidan pi-xillab gapiradigan barzangi xizmatkor eshik oldini supurardi.

— Qozikalon yo‘qlar, qachon kelishlari noma‘lum, ishingizni menga tayinlab ketavering, oqizmay-tomizmay yetkazaman! — dedi barzangi.

Nasriddin uning aftiga qarab yolg‘on gapirayotganini sezdi. Nima qilishini bilmay atrofdagi g‘uj-g‘uj odamlarga ko‘z yugurtirdi-yu, haqiqatan ham kimdir uni kuzatayotganini sezdi. O‘sha ko‘zlar yana yilt etib o‘tib ketgandi. Nasriddinning miyasiga nimadir «zing‘« etib urildi-da, birdan hushyor tortdi. «Demak, uni kuzatishyapti. Demak, darvozadan kirgandayoq qozikalonga xabar yetib kelgan! Demak, hatto, uni ham Abdukarimning kuniga solishlari mumkin! Demak, ish yiriklashib ketibdi!»

Nasriddin yilt etgan ko‘zlarning egasini topish uchun chumolining inidek g‘ivirlagan bozorni kuzatarkan, shunchaki so‘radi:

- Qaerga ketgan ekanlar qozikalon?
- Saroyga, — dedi xizmatkor yolg‘ondan. Bu bilan

u ham maqtanmoqchi, ham po‘pisa qilmoqchi edi. Nasriddinning achchig‘i yana yuziga tepdi.

— Yaxshi! Bo‘lmasa aytib qo‘ying! Men qozikalon bilan bitadigan ishimni bekning oldida ham gaplashaveraman!

Nasriddin o‘zini ta‘qib qilgan ko‘zning egasini topolmadi. Qozixonadan uzoqlasharkan, o‘ziga yasovul topish kerakligini his qildi. Yo‘q, u qo‘rqmasdi. Qilich, tayoq, qamchi urish saboqlarini yaxshi bilar va hech bo‘lmaganda ikki kishini dabdala qilib tashlashi mumkin edi. Biroq ko‘pchilik kelsa-chi?

Ehtiyot choralari zarar qilmaydi. Dushman oldida mulzam bo‘lmaslik kerak.

Nasriddin masalani darrov hal qildi: zaharni zahar kesadi, yollanma odamga yollanma bas keladi. Faqat uning topgani nomard bo‘lmasligi lozim!

Nasriddin shunday deb o‘ylashi bilan uzoqdagi olachipor soqolli obi-xudoychiga ko‘zi tushdi. To‘g‘ri meshkobchiga qarab yurgandi, kuzatuvchilar esiga tushdi. Shuning uchun yo‘l-yo‘lakay ikki-uch odam bilan savdolashti. Keyin boshqa obi-xudoychini topib, undan suv ichib, uzoq chaqchaqlashdi. So‘ng yana bozor oralab, olachipor soqolli meshkobchiga yaqinlashdi.

— Mening bir jurjonlik savdogar do‘stimga tanqorovul kerak. Nomard bo‘lmasin. Meni bilasiz-a! — dedi Nasriddin kulib turib.

Meshkobchi Nasriddining kulgisi niqob ekanligini tushundi. Suv quyarkan, xuddi chaqchaqlashayotgandek gapirdi.

- Bilaman. Men bilmaydigan narsa kam.
- Yashang! Menbop bo‘lsin.
- Xuddi sizbopi bor-u, hozir yo‘lga yurmaydi-da!
- Ayting, ko‘ndirish o‘zimga tan.

Nasriddin yo‘l yurish shartmasligini atay gapirmadi. Suv haqidek qilib, asta chaqa uzatganidan keyin suhbat avjlandi. Ular shu ahvolda yana uch-to‘rt og‘iz gap otishdi. Keyin Nasriddin so‘radi:

- Tuya ko‘rdingizmi?
- Iya! Qanaqa tuya?



Bu luqmalar ham niqob o'rnini o'ynagani kuchli qah-qaha ostida aytildiki, chetdan qaraganda, odamlar taqdiri hal bo'layotgani hech bir bilinmasdi.

Nasriddin meshkobchidan uzoqlashdi.

## NOZLINISA

Nasriddin meshkobchi bilan gaplashib bo'lib, ikki-uch soat bozorda ko'rinmay qoldi. U yana paydo bo'lganida faqat o'ta ziyraklik bilan kuzatgan odamgina ketidan, kishi bilmas qilib bir qalandar surgalib yurganini ko'rishini mumkin edi. Kattakon kulohini ko'zigacha bostirgan, sap-sariq patak soqoli yuzining pastini berkitgan bu kimsa gavjumlikka qarab goh yigirma-o'ttiz qadamcha yaqinlashar, goh yuz-ikki yuz qadamcha qolib ketarkan, bari bir xuddi bog'lab qo'yilgandek Nasriddinning ketidan qolmasdi. Qalandar — ham Nasriddinning, ham Abdulkarimning muhofazasini bo'yniga olgan odam edi. Bu qo'riqchi Nasriddinga juda qimmatga tushsa-da, kayfi chog'ligini buzmadi. Chunki qalandar bilan kelishayotgandayoq pul topishning yo'lini o'ylab qo'ygandi. Hozir shu rejasini amalga oshirish uchun yo'l oldi.

Kumushkent hokimi Do'nanbek o'ttiz yoshga kirgan bo'lsa-da, hali uylanmagan edi. Umri saltanatning chekka joylari — Hindiston va Rumda<sup>1</sup> o'tgan bu jangchining o'rdadagi tanish-bilishlari oraga tushib, nihoyat Jurjonga chaqirishdi. Ma'muriymi yoki harbiymi bir lavozim, shuning bilan birga uylanish uchun hukmdor bir odamning qizini, o'sha yuqoridagi orqayinlari yordamida izlab yurganda to'satdan saroyda o'zgarish yuz berib, uning homiylari shohning e'tiboridan tushdi. Aloha, uni yana Jurjondan chetlatishib, asli tug'ilgan joyi bo'lmish Kumushkent viloyatiga jo'natishdi.

Kumushkentga kelgach, Do'nanbek Jurjonga qaytish, Jurjondagi qoyilmaqom zotlarga kuyov bo'lish niyatidan

<sup>1</sup> Rum — hozirgi Turkiya.

kechmagandi. Kumushkentda Nozlinisani uchratdi-yu, Kumushtkentdan uylanib keyin Jurjon lavozimlariga oʻrmasa ham boʻladi deb, niyatining yarmini oʻzgartirdi. Ayniqsa, Nozlinisadan rad javobini olgach, shu kunlarda otashin muhabbat oʻtida yonib yurardi.

Doʻnanbekning ishqiy tushgan Nozlinisa Kumushkentdagi eng boy oilaning yakka-yolgʻiz qizi edi. Uning otasi Baroqxon katta zamindor va savdogar boʻlib, Bagʻdod, Pekin va Jurjonda qoʻsha-qoʻsha qoʻrgʻonlari bor edi. Nozlinisadagi dimoq-firoq ham shunga yarasha edi. Doʻnanbek bilan Nozlinisa hozircha murosaga kelolmayotgan boʻlsalar-da, Jurjonda yashash istagining kuchliligida bir-birlariga oʻxshar edilar. Ana shu mutanosiblik Doʻnanbekning murodiga yetishida katta toʻlgʻanoq boʻlayotgandi. Nozlinisa xayollar ogʻushida oʻzini shahzodalar, juda beriroq boʻlsa Jurjondagi sarkarda yoki boshqa biron oliy tabaqaning yonida koʻrardi.

Qizining qistovlari bilan ikki yil muqaddam Baroqxon Jurjondan uy sotib olgan va ular u yerda olti oy yashab ham qaytgandilar. Olti oy ichida juda koʻp ziyofatlar, sayllar uyushtirildi, imkoni bor qadar yuqoriroq nasabdagi mehmonlar chaqirib, ularning orasiga kirishga harakat qilindi-yu, ammo Nozlining orzusi darajasidagi odamlar ularni nazarga ilmadi. Baroqxon qizining tantiqligiga koʻnib Jurjonda qolsa, itning keyingi oyogʻi boʻlib yurishini tasavvur qildi-yu, Kumushkentga qaytdi. Lekin Nozlinisaning yuzidan oʻtolmay. Jurjondagi unchalik katta boʻlmagan boloxonalik uyi, ikki tanob hovlisi boʻlgan qoʻrgʻonchani sotmagandi.

Doʻnanbekning ishqiy ana shu Nozlinisaga tushgandi. Nozlinisa esa Kumushkentdagi bironta yigitni gaplashishga arziydi deb hisoblamasdi. Yakkash bekka jindek ragʻbat bildirganining boisi uning Jurjon koʻrganligi, uch-toʻrt marta boʻlsa-da oʻrdaga kirib-chiqqanligi edi. Jurjon, Jurjondagi voqealar, aslzodalarning munosabatlari haqidagi mish-mishlar Nozli uchun mutaassib dindorlarga paygʻambarlar haqidagi rivoyatlardek, yosh bolaga pahlavonlarning sarguzashtlaridek sehrli kuchga ega edi. Ogʻzini ochgancha soatlab eshitishi mumkin edi.

Jurjon tafsilotlari tufayli Nasriddin Afandi ham Nozlinisaning o'rtog'iga aylangandi. Nasriddinni mehmonga chaqirib, dugonalari va kanizlari davrasida Jurjondagi bayramlarning o'tishi, shoh va shahzodalar, vazir-u sarkardalar, shohning onasi Turkon xotin, boshqa malikalar, namoyishlarda yigirma bitta mamlakatning bayrog'oi pastga tushirilib o'tishi haqidagi hikoyalarni mahliyo bo'lib tinglardi.

Ana shu suhbatlar asnosida Nozlinisaning aslida bekni yoqtirib qolganini, ammo otdan tushsa ham egardan tushmaslik qabilida ish tutib, hamon bekni azoblash, uni yanada ko'proq yalintirish, har turli qiliqlar bilan jahlini chiqarishni yaxshi ko'rishini Nasriddin sezib qolgandi.

Hozirgi o'ziga zarur bo'lgan pulni topishda ana shu munosabatdan foydalanmoqchi edi.

— O'rtoqjon, menga aqcha kerak. Yordam beradilarmi? — so'radi jilmayib Nasriddin Nozlinisaning dugonalari chiqib ketgach.

Nozlinisa gap-so'zsiz barmog'idagi uzuklardan birini yecha boshladi.

— Yo'q, yo'q! — Nasriddin uni to'xtatdi: — Menga bekni garovda yutib oladigan aqcha kerak. Shunga yordam bera oladilarmi?

— U garovda boy bersa bekning rosa jahli chiqadimi?

— Juda, juda! Soqolini yulib tashlashi mumkin.

— O'lsin! Nima yordam kerak?

— Yo'q, avval ayting-chi! Shaharning kazo-kazolari oldida, menga ichish uchun buloqdan bir kosa suv olib kelishga o'rtoqjonimning bo'yni yor beradimi?

— O'rtoqjon yuz-qo'lingizni yuvish uchun quyib turishi ham mumkin.— Nozlinisa bir oz o'ylab turib so'radi. — Shunda rosa achchig'i chiqadimi?

— Juda, juda chiqadi-da. Endi bitta gap so'rasam maylimi?

Nozli mayli deganday qaradi.

— Nega o'rtoqjonim bekning hadeb achchig'ini chiqarishni yaxshi ko'radi-yu, xursand qilishni xohlamaydi?

Nozlinisa chimirilib yuzini burdi. Nasriddin bu go'zal qizni singlisedek yaxshi ko'rib qolgandi. O'ta tantiq va takaburligi bilan baxtsiz bo'lmasa deb qo'rqardi. Nozliga bekdan ko'ra yaxshiroq umr yo'ldoshi chiqmasligiga ishonardi.

— Bek yaxshi odam...

— Qo'rqaman, — dedi Nozli Nasriddinning gapini bo'lib. — Hamisha shunday qolarmikin? Nega shu paytgacha uylanmagan? Bu haqdagi o'zining gaplariga ishonmayman.

Ishonavering, oddiy suvorilikdan shu martabaga erishgan...

— Maqtang-a, maqtang! — dedi Nozlinisa. — Agar yana bitta maqtasangiz, sizni u oraga qo'ygan deb o'ylayman!

Nasriddin qip-qizarib ketib, har qanday saroyda ham bir gapning ostidan ikkinchi gapni izlashlarini o'yladi. Ammo Nozlini u darrov kechirdi.

— Achchig'ini qistatadigan gap nima edi? — davom etdi Nozlinisa o'zining fusunkor tabassumi bilan Nasriddinning ko'nglidagi g'uborini tozalab.

— O'rtoqjon, siz ertaga sahar bilan peshinning o'rtasida Bog'ibalanda sayrda yursangiz va hamisha Qo'sh darvozadan ogoh bo'lib tursangiz. Ertaga payshanba, bek darvoza va shahar devorlarini ko'rikdan o'tkazadi. Qo'sh darvozaga kelganda Bog'ibalandda yurganingizni ko'rsa bas.

— Xo'sh, keyin-chi? — so'radi Nozlinisa ikki bar-mog'i bilan iyagini ushlagancha qiziqsinib.

— Bekni ko'rgach tushib kelasiz. Darvoza oldida bu-loq bor...

Nozli qiyqirib kulib chapak chaldi-da, qolganini gapirtirmadi. Bekning achchig'ini chiqarish unga juda yoqardi.

Ertasiga bek shahar qo'rg'onini aylanarkan. Nasriddin unga Qo'sh darvozaning oldida «tasodifan» yo'liqdi.

Qo'sh darvozadan yuz qadamlarcha narida Bog'ibaland boshlanardi. Turli-tuman dov-daraxtlarga chulg'an-

gan bu baland xushmanzara tepalik shaharning sayrgoh va tomoshabog'i bo'lib, unda asosan badavlat odamlar istirohat qilardilar. Tepalikda hamisha g'ir-g'ir shabada esib turar, unga ko'tarilgan odam shaharni va shahar tashqarisini olis-olislargacha ko'rib turardi. Bu yerga bir-biridan ko'rinmaydigan qilib o'n-o'n beshtacha so'ri va besh-olti choqli imorat ham qurilgandi. Yog'in-sochinli kunda istagan odam tunab qolaversoa bo'lardi.

Bek Nasriddin bilan hol-ahvol so'rashib turgan paytda, tepalikdan qiy-chuv qilib bir to'da otliq zodagon qizlar tushib kela boshlashdi. Yig'ilganlar hammasi bu qizlarning erkatoyi Nozlinisa ekanligini darrov bilishdi. Bekning rangi bir bo'zarib, bir qizarib turgan joyida qotib: «Shu sohibjamol bir kulib qararmikin?!» deb shivirlab qo'ydi.

Nasriddin Afandi tomog'ini bir qirib oldi.

— Xohlasam, — dedi u bekka va yon-verisidagi uchto'rt kishiga eshittirib. — Shu sohibjamol menga buloqdan suv olib beradi.

Bek istehzo va qahr bilan o'girilib, so'kib yuborishdan bazo'r o'zini tiyib qoldi. So'ng yana Nozlinisa tomon qararkan, ovozi xirillab gap qotdi:

— Sizni hurmat qilamiz. Lekin juda ot surib ketmang. Xo'ja Nasriddin!

— Bek janoblari bilan bahs boylashim mumkin! — dedi Nasriddin jilmayib.

Bek tutoqib ketdi:

— Mana shu butun usti boshim bilan otimni tikaman-da, qolgan darvozalarni yayov ko'raman!

Nasriddin bekning qizil shoyi mursagiga, to'qasi tilla kamariga, otiga ko'z yugurtirib, jilmaydi:

— Bo'pti! Lekin bek janoblari Nozlinisaga bo'lgan hurmatlarini o'zgartirmasligi shart!

— Mulla Nasriddinning o'zlari nima tikadilar? O'zlari? — dedi bir mulozim qiyshanglab. Uning bu gapidan keyin kulgi ko'tarildi. Chunki bekning saruposiga teng biron boylikni topish amrimahol edi.

Nihoyat kulgi bosildi.

— Bahsning bu pallasiga bir yil davomida bekning



sodiq qullari bo'lish majburiyatini tikaman! — javob berdi Nasriddin.

— Ma'qul! — baqirib yubordi bek quvnoq jazavada va qo'lini uzatdi.

Arg'umoq mingan qizlar bu paytda ancha yaqinlashib qolgandilar. Otlarini goh kalta-kalta yeldirib, goh yo'rg'alatib, o'ng-so'lg'a haydab, qiy-chuvlashib kelardilar.

Nozlinisa bek va uning qurshovini ko'rgach, boshini mag'rur ko'targancha, go'yo ko'rmay o'tib keta boshladi.

— Assalomu alaykum, begoyim, — dedi Nasriddin viqor bilan.

Nozlinisa avval otning jilovini tortib asta to'xtadi. Keyin xiyla vaqt o'tkazibgina boshini burdi. Nasriddinga ko'zi tushib, o'zigagina xos go'zal tabassum qildi.

— Oh, siz shu yerdamisiz? Bir chekkada qolib ketgan o'rtoqjoningizdan hol so'ray ham demaysiz?

— Aybdorman, begoyim! Ammo hozir juda chanqadim. Qo'lingizdan bir suv ichsam degandim...

— Mening qo'limdan?— qoshlari ko'tarilgancha kullib so'radi Nozli.

— Ha, buloqdan bir kosa suv keltiring!

— Xo'p bo'ladi, Afandim! — Nozli otidan yengil sakrab tushdi. Anvoyi atrlar taratib, ohudek chiroyli bosib, bek bilan Nasriddinning oldidan buloq tomon o'tdi. Buloq boshida turadigan mis jomni ikki-uch chayib tashlab, to'ldirib suv olib keldi.

Nasriddin suvni shoshilmay icharkan. Nozli bilan bekni kuzatdi. Qiz bek tomon aqalli bir marotaba ham qaramadi. Bek esa ehtirosli ko'zlarini undan uzmasdi.

— Yanami? — so'radi Nozli kosani olib noz bilan.

— Bas! Qondim!

Nozli kosani qo'yish uchun burilganda hamda qaytib oti tomon ketayotganda Nasriddinga jilmayib qarab o'tdi.

— Baxtli bo'ling, begoyim! Niyatingizga yeting! — dedi Nasriddin. Nozli tekis odimlab otiga yetdi-da, chaqqon mindi. Yana bir karra Nasriddinga jilmayib qarab otini yo'rttirib ketdi.



Bu voqeadan hamma lol va garang edi.

— Yutdingiz, Afandim! — dedi bek nihoyat ma'yus kulib va avval kamarini yechib uzatdi.

— Begim!— Nasriddin qo'l ishorasi bilan uni to'xtatdi. — Ana shu sarupo va otingizga o'zingiz qancha narx belgilaysiz?

Bek savolga yordam so'ragandek mulozimlarga, so'ng yonidagi chuhrasiga<sup>1</sup> qaradi. Yosh bu navkar Nasriddinning niyatini tushunib. «Ellik tilla!» dedi.

— Menga shu kerak, — dedi Nasriddin. So'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib davom etdi: — Shohona sarupo, otingiz, boz ustiga men tomondan shartga qo'yilgan kamina ham sizniki.

Bek mamnun jilmayib, kamarni taqdi-da boyagi yosh navkarga im qoqib Nasriddin bilan qolishni buyurdi. Keyin mulozimlarini ergashtirgancha Bog'ibaland tomon ot choptirdi-da, yuz ellik qadamlarcha borib, keskin to'xtadi. Nasriddinning yonidagi chuhra uning oldiga yelib bordi. Bek unga ikki og'iz gap aytdi-da, Bog'ibalandni aylanib ko'zdan yo'qalayotgan mulozimlarining cho'ziq to'dasi ketidan ot qo'ydi.

Chuhra buloq oldiga kelib mis jomni oldi-da, shoyi qiyiqchaga avaylab o'radi. «Yuring, Afandim! Ertaga namozi shomni beknikida o'qirkansiz. Bazmga taklif qildilar!» degancha saroy tomon yo'l boshladi.

— Bosh ustiga, — dedi Nasriddin Afandi bazmga taklifdan sevinishni ham, kuyinishni ham bilmay.

## ***NASRIDDIR AFANDINING ACHCHIQLANISHI***

**B**ekdan yutib olingan ellik tilla qalandarga to'lanadigan puldan anchagina ortib qolardi. Nasriddin bu pulni ham Muhsin guppi va qozikalonga qarshi sarf qilishi kerak edi. Ikki tillani Abdukarim uchun ajratib, ertalab Muhsin guppinkiga keldi.

---

<sup>1</sup> *Chuhra* — podsho, xon, sulton va oliy tabaqa kishilarining shaxsiy qo'riqchisi.



Guppi kecha shaharda qolgan ekan. Buni aytib chiqqan Alimsho bilan Tursunali ham uyini tintuv qilganlaridan uyalib tik qarolmasdilar, ham shapaloq tushib qolishidan xavotirlanib hushyor turardilar. Chunki bu paytga kelib Nasriddinning pashshalari duv-duv gap bo‘lib ketgandi.

— Birodarlar, — dedi Nasriddin ular kutmagan do‘stona ohangda. — Abdukarimning yonidan yer ochib, imorat solish uchun, bu yerdagi chordevorlaringni sotsanglar yana qancha aqcha kerak bo‘ladi?

Bironta nayrang borligidan xavfsiragan ikki hamtovoq bolaxonaga ko‘zi tushgan sahroyidek angrayishdi.

— Ha, nega hayron bo‘lasiz? Gapiringlar!

— O‘zi bo‘larkanmi? — po‘ng‘illadi sal o‘ziga kelgan Alimsho.

— Ha, qiyin, — dedi Nasriddin yanada mehribonchilik bilan. — Lekin bekorga Guppi degan laqabni olmagan bir to‘nkaning yuvindi... malayi bo‘lgandan ko‘ra yaxshi emasmi? Sarmoya mendan. Yangi yer ochgan kishi podshohlikning farmoniga ko‘ra besh yil soliqdan ozod. Bu yoqda hovlini sotasizlar. Xo‘sh, insof bilan aytinglar, qancha kerak?

Alimsho bilan Tursunali bir-birlariga qarashdi. Tursunali qo‘ynidan non olib chaynashga tushdi.

— Menga to‘rt tilla yetib ortadi, — dedi u nonni yutib, to‘porilik bilan. — Uylanib ham olardim.

Nasriddin savol nazarida Alimshoga qaradi. Alimsho o‘zini ko‘p qiynamay:

— Menga ham shu-da! — dedi.

Nasriddin hamyonini ochib sakkiz tilloni ajratdi. Ularga berarkan, barmog‘ini bigiz qilib uqtirdi:

— Bitta shart! Hoziroq Guppinkidan ketib, ertaga Abdukarimning yonidan kapa tikasizlar. Bo‘ptimi?

Birinchi marta tilla tanga ushlagan ikki malay anchadan keyin javob qilishdi.

— Ma‘qul! Ma‘qul!

Nasriddin Afandi eshagini burib yo‘lga tushdi. Alimsho bilan Tursunali hamon eslari og‘ib turisharkan, Nasriddin nariroqqa borganda unga qaydandir chiqib kelgan qalandar ergashganini ko‘rishdi.

Yo‘l-yo‘lakay Abdukarimga ham pul tashlab o‘tgani-ga qaramay. Nasriddin shaharga ancha barvaqt — sahar bilan peshinning o‘rtasida yetib keldi.

U shaharga kirishi bilan olacha chopon kiygan bir barzangi kimsa darrov otlanib qozixona tomon yeldi. Boshqa ikki kishi esa unga soyadek ergash-di. Bu ikki kishidan bittasi Ahmad tarasha edi. Ha, endi u bemalol qozikalon bilan muloqot qilar va undan Nasriddinni pana joyda biqinini ezib, vakolatnomasidan ayirish vazifasini olgandi. Chunki Abdukarimni silkitib ko‘rgan. Nasriddinning uyini tintuv qilgan g‘anim taraf vakolatnomani Nasriddin o‘zi bilan birga olib yuradi, degan qarorga kelgandi.

Tarashaning bir sherigi bilan dum bo‘lib olganini esa qalandardan bo‘lak hech kim, hatto Nasriddining o‘zi ham sezmasdi. Unga shipshitib qo‘yay desa, qalandar o‘zini oshkor qilishi mumkin ediki, bu qaytaga ko‘proq zarar bo‘lardi. Bir gapni aytish kerakki, Nasriddinning barvaqt etib kelgani g‘anim taraf uchun kutilmagan voqea edi. Kecha shaharda bo‘lgani uchun, ular uni bugun kelmas, kelsa-da, peshindan so‘ng kelar, deb o‘ylaganlari sababli kozikalondan boshqasi g‘aflatda qolgan edi. Shuning uchun Nasriddin qozixona tomon oshiqib, gilam bozoridan o‘tarkan, uzoqdan Guppiga ko‘zi tushib o‘zi ham shoshib qoldi.

Guppi avvaldan dallol yollab olgan shekilli, ikkovlashib bir turkmandan gilam savdolashishar va savdolari eng qizigan payt edi. Chetdan qaragan odamga Guppi bilan dallol gilam egasini talayotganga o‘xshab ko‘rinardi. Dallol, «bor baraka, xo‘p deng!» deb, turkmaning bir qo‘lini sug‘urib olgudek silkiib, bir yoqqa tortsa, Guppi xuddi o‘shanday deb, gilamdan ikkinchi yoqqa silkiib tortardi. Turkman bechora beto‘xtov silkitishayotgandan na og‘zi bilan «yo‘q» deya olar va na boshqa ishora bilan. Na qo‘lini, na gilamini bo‘shata olardi. Juda charchab taslim bo‘larmidi-yo‘qmi noma‘lum, lekin shu paytda jaranglagan shapaloq ovozi, ketma)keti-ga esa: «Ha, padaringga la‘nat, tutildingmi?» degan so‘kinish eshitildi-yu, turkman silkinishdan to‘xtadi.

Shapaloq yegan Guppi munkib ketib emaklab qolgandi. Hech narsa tushunmagan odamlar hang-mang edi. Lekin boyni: «Hoy, insof qiling», deb tisarilayotganini, Nasriddinning uning ustiga bostirib borayotganini ko'rib, o'z-o'zidan kulgi ko'tarildi.

— To'xtang, to'xtang, yana bittasi o'tiribdi, — derdi Nasriddin odamlar orasidan turtinib Guppini ta'qib etarkan. Lekin Guppi shunday chaqqonlik bilan turib qochdiki, buni ko'rgan olomonning qahqahasi avjiga chiqdi. «Nima gap, Nasriddin Afandi, bir musulmonning otasini la'natlab urdingiz, u indamay qochdi? deb so'rashdi kulgi orasida odamlar.

— E, men uning otasini emas, pashshani so'kdim. Uning gardaniga o'tirgan pashshani o'ldirdim!

Qahqaha yana avjiga chiqdi.

— Asalimni yeb ketgan o'g'ri pashshalarni ko'rgan joyimda o'ldirishga huquq beradigan vakolatnomam bor. Buni haligi odam biladi!

— Rahmat, Nasriddin Xo'ja! Sal qoldi — gilamimni tekinga sug'urib olay deyishdi!

Bu gilam egasi edi. U og'rib ketgan yelkasini uqalarkan qo'shib qo'ydi:

— Iloyo shunaqalarga o'tirsin pashshalaringiz!

— Qani endi menda shunaqa hujjat bo'lsa! O'zim bilardim-a! — dedi kimdir orzu bilan.

Nasriddin Afandi u odamning dardini so'ramoqchi bo'ldi-yu, ishi zaril ekanligi esiga tushdi. Shuning uchun qalandarga kishi bilmas bir qarab olib, qozixonona tomon yurdi. Omadi kelgan ekan, meva bozoriga burilishda o'ttiz-qirq kishi tomoshatalab bo'lib turgan mojaro ustidan chiqdi. Buni qarangki, mojaroning bosh sababchisi Nodir mirshabgning o'zlarida! Nasriddin odamlarni yorib asta o'rtaga o'tdi. Nodir mirshab besh-olti qop narsa ortilgan arava qo'shilgan eshakning jilovidan ushlab olgandi. Aravaning egasi bo'lsa kerak, tojik yigit jilovni uning qo'lidan chiqarishga urinib fig'on qilardi:

— Bomayman qozixonaga! Tekshirsang shu yerda tekshir! Agar bo bitta qurut chexsa turshakimning ichiga, hammasi sizga!

Olomon aralashib, insofga chaqirgan shekilli, Nodir mirshab hammaga qarata gapirdi:

— O'tgan safar bundan turshak sotib olib, hammamiz yurak burug'i bo'ldik. O'lay dedik! Yur, buyoqqa!

— Bomayman! Turshakni sotib olmagon! Pulini bermagon! Shu uchun yurak buruq bo'lgon!

— E, san hali tuhmat ham qilasanmi? Naqd ikki mirini olib-a? Olmadim deb, meni sharmanda qilyapsan! Yur buyoqqa!

Shu payt yaxshi kiyingan o'rta yoshlardagi bir odam gapga aralashdi.

— Hoy, birodar,— dedi u aravaning egasiga.— Podsholikning kishilarini izza qilish yaramaydi. Sizni dorga emas, qozixonaga tortyapti. Boring, hammasini tushuntiring!

— Shu yerda tekshirsin. Mana siz guvoh! Yakta qurut chexsa man kafel! — dedi tojik yigit. — Uyoqqa bording, tamom! Bud-shud ketdi! Bomayman!

— Hoy, hoy, hoy! Qozixonani yomonotliqqa chiqarmang, mirshabni ham pul to'lamagan dedingiz. To'lagandir, esingizdan chiqqandir?

G'ala-g'ovur boshlandi. «Mirshab bozorda pul chiqararkanmi?», «Joni chiqar!» degan xitoblar eshitildi.

— Kim! Kim shunaqa dedi? Buyoqqa chiq qani? — Nodir mirshab g'o'ddayib atrofga yeb qo'ygudek ko'z yugurtirayotgandi:

— Men! — dedi Nasriddin Afandi, garchi u aytmagan bo'lsa-da.

— Buyoqqa chiq!

— Hozir! Hozir! Faqat ketib qolmang! — Nasriddin shunday deb davraga tushdi-yu, aravani aylanib o'ta boshladi. Nodir mirshab birdan: «Ie!» dedi-yu, jilovni tashlab, o'zini olomon ichiga urdi.

Olomonga bu tilsimotdek edi. Oddiy odamni ko'rganda mirshabning ura qochishi hech qachon bo'lmagandi. Ba'zilar uni kiyinib olgan bek deb o'ylashdi. Lekin bir-ikki kishi «Nasriddin, Nasriddin Afandi» degandan keyin qotib qolgan olomonga jon kirdi. Nasriddin sehrli bir qiyofa kashf etdi. Hamma kelib uning qo'lini siqar, etak va yenglaridan ushlab-ushlab qo'yishardi. Uni hazrati Xizrga o'xshatayotganlar ham yo'q emasdi.

Nasriddin odamlarning qo'lini qisarkan, bunday fikrning tug'ilmasligi uchun pashshalarni o'ldirishga vakolatnoma borligini aytishga majbur bo'ldi. Keyin qo'shimcha qilib: — Birodarlar, pashshalarimning qiziq xususiyati bor. Nuqul g'irromlik, haromilik qilayotganlarning ustiga qo'nishadi! Shuning uchun qozikalondan tortib mirshabgacha hozir ko'rganingizlardek mendan qochib qoladi.

— Sizdan HAMMA qo'rqar ekan-da! HAMMA ni urish qo'lingizdan kelar ekan-da? — degan kuchli kesa-tiq eshitildi.

Bu boyagi yasangan kishi edi. Bu g'alamis odamning HAMMA degan so'zini Bek va shohga tiqayotganini Nasriddin tushundi. Sekin u tomonga bora boshladi.

— Siz bu gapingiz bilan HAMMA ni g'irromlik, haromilik qiladi demoqchimisiz?— so'radi unga mos zaharxanda va tahdidona ohangda.— Qani, qimirlamay turing-chi, yoqangizda bitta pashsham o'tirganga o'x-shaydi.

Kulgi ko'tarildi. Yasangan kishi ko'zlari chaqchayib tisarila boshladi.

— Hoy! Yo'qoling! Saroyga yaqinman men!

— Qimirlamang, uchirvormang! — deb Nasriddin ta'qib etdi.

— Qani, qani? Yo'q pashsha! Haddingizdan osh-mang!

Yasangan kishi yelkasiga, bo'yniga shapatilab, «pashsha haydagancha» o'zini olomonning ichiga urdi. Borib otiga minib olgach, do'q ura boshladi.

— Ko'rsataman senga, bezori! Podsholikning odamlarini bebro' qilganing uchun miyangning qatig'ini chiqaraman! Yolg'onchi! Qozikalon sendan qo'rqarkan-mi?! Qani, yur, oldiga boramiz! Dumingni qisib qolar-san?!

Nasriddinning miyasiga bir fikr kelib taqqa to'xtadi.

— Yur! — davom etdi yasangan kishi. — Mana shu jumlani mo'minning bari borsin! O'zining laqma qilina-yotganiga bir guvoh bo'lsin!

Bu narsa ertalabdan beri achchiqlanib yurgan Nas-riddinning rejalariga ayni mos edi. Endi u qozikalonning

yuz-xotirini yig'ishtirgan va sharmanda qilishni niyat qilgandi. Boz ustiga, hozirgi mojaroni saroyga yetkazishi aniq bo'lgan bu oliftaning u yerga ko'proq gap olib borishini istardi.

— Birodarlar!— dedi u yig'ilganlarga qarata.— Kimniki imkoni bo'lsa biz bilan yursin! Nasriddin Afandi yolg'onchimi, yo'qmi — ko'radi!

Olomonning talaygina qismi taklifga qo'shildi. Hazil-huzul, qiyiqriqlar ostida qozixonaga qarab oqishdi. Yo'l-yo'lakay Nasriddin bilan yasangan kishining gap talashlari davom etgani esa vaziyatni yanada qizdirar, yangi-yangi hangomatalablarni oqimga qo'shardi.

Shunday qilib, qozixonaga ellik-oltmish kishilik olomon yetib keldi. Bozorning gavjumligida unchalik bilinmagan bu oqim qozixona oldida yaxlitgina bo'lib nazarga tashlandi. Kepchik xizmatkorning ko'zi chiqib ketdi.

Turgan gap, qozi yo'q edi.

— Hammani qo'yib, qozi o'zini urdirib qo'yarkanmi? — dedi istehzo bilan kepchik xizmatkor olomon boshidagi Nasriddinga.

Nasriddin g'olibona suratda oliftaga o'girildi. U miq etmas, nafasi ichiga tushib ketgandi.

Kechagina Nasriddin bilan kepchik xizmatkorning bahslari niqobli, pardali iboralarda ro'y bergandi. Bugunga kelib esa gap tarqalib, yashirishning hojati qolmagan. Kepchikning ochiq-oydin gapirishiga sabab ham shu edi.

— Aytib qo'ying, hurmatli Sadridinxo'ja qozikalonga,— dedi Nasriddin baqirib. — Bitta pashsha bilan qutulib ketaman deb xomtama bo'lmasinlar! Xohlagan joyimda, xohlagan paytimda gardanlariga qo'ndirishim mumkin!

— Odam degan kechirimli bo'ladi-da, afandim! Qozikalon hurmatli odam. Bitta hazillariga ota go'ri qozixonami?— dedi kepchik murosaga chaqirmoqchi bo'lib.

Nasriddin qizishdi.

— Meni aldab kalaka qilsalar mayli, a? Abdukarimga o'xshagan bir kambag'al dehqonni xonavayron qilsalar, qizchasi qo'rqqanidan gapirolmaydigan bo'lib qolsa mayli, a? Bitta hazillariga shuncha qurbon! Ho!!

Kepchik indamay turib qoldi. Masalaning bu tomonini eshitgan olomonda ham kulgi, hazil-mutoyiba yo‘qola boshladi. Bu vaziyatni ko‘rgan yasangan kishi otiga qamchi urib jo‘nadi.

— Hoy, to‘xtang! Pashshangizni ko‘rib qo‘yay!

Nasriddining bu xitobidan keyin yana kulgi ko‘tarildi.

Kun tikkadan sal pastga oqqan edi. Nasriddin quyoshga bir qaradi-da:

— Endi bir qorinni aldab qo‘ymasak bo‘lmas, — deb, o‘rtahol hisoblanuvchi Mullaqovoqning choyxonasi tomon yo‘l oldi. O‘n-o‘n besh chog‘lik unga ergashgan odamning sira ajralishni istamay, niyatlari birga tamaddi qilish ekanligi ko‘rinib turardi.

To‘da shovqin-suron bilan Mullaqovoqning choyxonasi tashqarisidagi so‘rilardan joy olganda, ulardan ko‘z uzmay kelgan qalandar qo‘shni — Pirmat pirsiyonning choyxonasiga kirdi. Bir kosa sho‘rva, bir dasta kabob olib zo‘r ishtaha bilan ovqatlanishga tushdi. Bugun kun qiyin o‘tishini allaqachon bilgandi. Chunki Ahmad tarasha boshliq uch kishi ham Mullaqovoqning choyxonasiga kirib ketishganini ko‘rdi.

Oqshom Nasriddin beknikiga ziyofatga boradi. O‘sha yerda yotib qolsa-ku, xo‘p-xo‘p. Kechasi chiqib, biron yoqqa boraman degundek bo‘lsa qalandarning yakka o‘zi uch kishiga bas kelmog‘i lozim edi.

Hozircha esa o‘zining panada qolib, raqiblarini aniq-laganidan bo‘lak yutug‘i yo‘q edi.

Qiziq, u nimasiga ishonarkin?

## ***QOZIKALONNING BUYRUG‘I***

**N**asriddin kun botishiga bir terak bo‘yi qolganda saroyga kirib ketgandi. Oradan bir soatdan ortiqroq vaqt o‘tib kun botdi.

Darvoza oldidagi soqchilar maydondan onda-sonda o‘tib qoluvchi yo‘lovchilarga ahamiyat berishmasdi. Ularning niyati, tezroq kirdi-chiqdi tugasa-yu, darvozani

yopib, tepadagi burjlarga chiqib yonboshlashsa. Har zamonda ular tepadagi sheriklaridan «Sho‘rva pishdimi?» deb so‘rab qo‘yishardi. Chunki burjlardan birida sepoya ostida yoqilgan alanga uzoqdan ham ko‘rinardi.

Sepoyaga esa qozon osilgandi. Zamona tinch, podshohning begiga tahdid soladigan kuch yo‘q edi. Agar zamona notinch, soqchilar esa sinchkov bo‘lishganda, ular saroy oldidagi maydonchada boyadan beri g‘o‘ng‘illab uch-to‘rt karra uyoq-buyoqqa o‘tgan qalandarni albatta bunday qo‘yib qo‘yishmasdi.

*Soyamdan o‘zga yor yo‘q kimsadin yetgan kun g‘am,  
Lek qorong‘u tunlarimga qilmag‘ay toqat u ham.*

Qalandar shu baytni takrorlab xoh saroyning u tarafiga o‘n-o‘n besh daqiqa uzoqlashib ketsin, xoh bu tarafiga; baribir darvozadan diqqatini qochirmasdi. Har bir kirayotgan yoki chiqayotgan qora ko‘z ostida edi.

Soqchilar sergaklik qilishganda qalandardan tashqari yana uch kishi saroy eshigini kuzatib turgani ma‘lum bo‘lardi. Bulardan biri: qotma, oftobda kuygandek qopqora yuzli odam — darozligi va ko‘zlarining chaqnashidanoq yarq etib ajralib turar, to‘da boshlig‘i ekanligi sezilardi. Ikki sherigi ham gavdali bo‘lishlariga qaramay, uning oldida ko‘rimsizginaga o‘xshardi.

Ahmad Tarasha boshliq bu uch kishi maydonga kiradigan ko‘chalardan biriga biqinib olgandilar. Qalandar esa sayrini davom ettirarkan, darvoza bilan ishi borligini shunday ustalik bilan yashirardidki, bir tomoni qalandarligi uchun bo‘lsa kerak, Ahmad tarashaning to‘dasi ham shubhalanmasdi.

Hikoya qilinayotgan paytdan sal avval ikki navkar o‘qdady uchib chiqib, bir ozdan so‘ng besh otliq bo‘lib qaytib kelishgandi.

Ular bilan kelganlar qozikalon va uning ikki xizmatkorlari edi.

Maydondagi to‘rt xufiya odam ham qozikalonning kirib ketganini ko‘rishdi. Tarashaning to‘dasi hayajonga tushdi. Ular tarafdin g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir ovoz eshitilib turdi. Qalandar bularning barini sezdi.



Shundan keyin xiyla vaqt o'tdi. Maydonga g'ira-shira qorong'ulik tushdi. Darvozaning ikki chetiga tiqilgan mash'alaga o't yoqilgach, qalandarning uyoq-buyoqqa yurgani ham ko'rinmay qoldi. Allaqaerlardan g'o'ng'illagan ovozi o'qtin-o'qtin eshitilib qolardi.

*Soyamdan o'zga yor yo'q kimsadin yetgan kun g'am,  
Lek qorong'u tunlarimga qilmag'ay toqat u ham.*

Bu baytdan keyin qalandar, «hoy musulmonlar, bugun jinlar qo'ziydigan kun!» deb qo'yardi.

Qorong'ilashayotgan jimjitlikda uning so'zlari vahimali tuyulardi.

Shahar uyquga ketmoqda edi. U paytda odamlar kun bilan turib, kun bilan yotardilar va jin-alvastilarga ishonardilar.

Oradan bir soatcha muddat o'tgach, to'rt xufiya bir seskanib tushishdi. Darvozaxona oldida bo'g'riqib chiqqan qozikalon paydo bo'ldi-da:» «Tezroq!» deb baqirdi. Xizmatkorlari otini opchiqib berishdi.

Qozi shu zahotiyoyq otga qamchi bosgudek jahlda ediyu, saroy hurmati bunga yo'l qo'ymasdi. U hatto otlanishga kirib ketgan xizmatkorlarini ham kutmay yo'lga tushdi.

Soqchilardan to'rt qadam uzoqlashgach, otga qamchi bosib, choptirdi-yu, eng yaqin ko'cha boshiga yetganda bir narsa esga tushib, shartta jilovni tortdi. Ot old oyoqlari bilan ko'tarilib orqaga burildi. Qozi kimgadir qo'l ishora qildi. Shu asno darvozadan qozining ikki xizmatkori chiqib u tomon shoshilishdi. Tashqaridan, qozi xizmatkorlarini eslab to'xtadi, qo'li esa keskin burilganidan siltanib ketdi deb o'ylash mumkin edi. Lekin qozining jilov tortgan joyi qalandardan uch qadam narida edi. Qozining darg'azabligini ham, uning ishorasi bilan Tarashaning dik etib qo'zg'alib tekis, katta qadamlarda yaqinlasha boshlaganini ham qalandar ko'rdi. Darrov biqinib bir eshikka qapishib oldi.

Qozining xizmatkorlari ham, Tarasha ham bir paytda yetib kelishdi.

— U shu yerda. Bo'g'izzlang! — dedi qozi g'azab bilan Tarashaga.

— Labbay, — dedi xizmatkor gapni o‘ziga tegishli deb o‘ylab.

— Ketdik! — dedi qozi xizmatkoriga va ilgariidek shahd bilan ot choptirib ketdi. Xizmatkorlar unga ergashdi.

Mahmud tarasha kutilmagan bu buyruqdan hang-mang bo‘lib qoldi. Uni qalandarning g‘o‘ng‘illagan qo‘shig‘i o‘ziga keltirdi.

— Hey, xudoning bandasi, tun zimistonga aylangun-ga qadar boshpana topsang-chi! — dedi Tarasha. Qalandar javob qilmay uzoqlashdi.

— Ma, uch-to‘rt chaqa sadaqa beray!

Tarasha hamyon jiringlatdi.

— Qarg‘ishimga qolma, gunohkor banda! Bugun jin-lar qo‘zigan kun. Tonggacha haydab chiqaman, — dedi qalandar sheriga monand va o‘ziga-o‘zi gapirgandek uzoqlashdi.

— He, nafasing o‘zingga ursin! — dedi Tarasha sekin.

— Hoy, musulmonlar, bugun jinlar qo‘ziydigan kun, jinlar qo‘ziydigan kun! — Qalandar uzoqlashib xuddi yerga kirgandek g‘oyib bo‘ldi.

Tarasha sheriklari oldiga qaytgach, darvoza oldidagi o‘n-o‘n besh qadamcha joyni hisoblamaganda maydon zimiston bo‘shliqqa aylandi.

Uning bir tomonida qalandar, ikkinchi tomonida esa Tarasha boshliq uch kishi bor deb hech kim aytolmasdi.

Xufton nomoziga azon aytildi.

## ***ZIYOFATDAN QOZI NEGA G‘AZABLANIB CHIQDI?***

**D**o‘nanbekning ziyofatiga shaharning mingboshi-sidan tortib, rais-u<sup>1</sup> imomigacha yig‘ilgandi. Turgan gap, qozikalon ham chaqirilgan va bo‘lishi shart edi. Lekin Nasriddin Afandining ishtirok etishini eshitib, o‘zini

---

<sup>1</sup> Rais deb u paytlarda xalqning va mansabdorlarning turish-turmushini nazorat qilish uchun tayinlangan maxsus mansab egasiga aytilardi.

betob deb aytirib yuborgandi. Mabodo ziyofat ustida yo'qlangudek bo'lsa, bir-ikki og'iz gap bilan vaziyatni yumshatishni imomga va raisga ham tayinlagandi.

Mehmonlar kattagina ariqning bo'yida hamda sharilab yotgan favvoraning atroflarida sohib tashlagan o'n-o'n besh chog'lik so'rilarda to'rttadan-beshtadan bo'lib o'tirardilar. U yer-bu yerlarga yoqilgan fonuslardan atrof charog'on edi. Bog'ning ichkarirog'ida o'rnashgan mashshoqlarning kuy va qo'shiqlari juda ohista eshitilar va gap-so'zga xalaqit bermasdi.

Yaxshi dehqonning xo'jaligida hech narsa chiqitga chiqmay, barisidan foydalanilgani kabi, siyosatchining ziyofatida ham ko'zlangan maqsad ko'p bo'ladi.

Do'nanbekning mehmondorchiligi rasman bek qilib tayinlanganiga yil to'lishi munosabatiga bag'ishlangan bo'lsada, asosiy maqsad-muddao gap terish edi. Dasturxon ustida odamning bo'shshishi, ko'p valaqlashi qadimdan ma'lum. Ertasiga esa bulardan hech bo'limganda yarmisi bekka chaqimchilikka kelishi ham tayin. Ovqat tashuvchi va may quyuvchi malaylarning quloqlari bundan mustasno,

Kechagi ellik tilla yutqizilgan bahsdan keyin bek yana Nozlinisning ko'ngliga qo'l solib, sovg'a-salomlar bilan raisning xotinini yuborgandi. Raisning xotini Nozlinisa tomonidan moyillik nishabi paydo bo'lgani haqida xabar keltirdi. Bu moyillikka Nasriddinning ham ulushi borligi, u haqda iliq gaplar aytilgani ham eshitildi.

Shundan Do'nanbekning kayfi juda chog' edi. O'zining so'risida o'tirgan rais, imom, Nasriddin Afandi va ayniqsa, bo'lajak qaynotasi — Baroqxonga tinmay takalluf qilardi.

Suyuq osh asnosida imomdan tashqari so'rida o'tirganlar bir-ikki piyola may ham ichgandilar. May quyi-layotganda va ichilayotganda imom ko'zini va qo'lini taomga yugurtirib, ko'rmaslikka olardi.

Nihoyat, mehmonlar parranda kabobi-yu dimlangan kiyik go'shtidan ham bir-ikki totinishgandan keyin, bek o'tirgan joyida qomatini rostlab, nariroqdagi chuhrasiga qarab qo'ydi. Bekning chuhrasi ildam yurib kelib, nay

qilib o'ralgan qog'oz berdi. Bek qog'ozni imomga uzatib imo qildi. Imom qog'oz bilan so'ridan pastga tushdi:

— Ahli jamoa! — dedi u yangroq va chiroyli ovozda.  
— Bir nafasga, taomdan uzilmagan holda diqqatinglarni tortmoq istaymiz!!

G'ovur-g'uvur ovoz, mashshoqlarning kuyi tindi.

— Zamona zayli bilan viloyatimizda olamga mashhur Nasriddin Afandim istiqomat qiladilar. Olampanohning viloyatimizdagi ustunlari bo'lmish Do'nanbek hazratlari ul kishining shahardan tashqarida, bir qishloqda yashashlarini jami viloyat sha'niga nomunosib deb hisoblaydilar.

Chor-atrofdan «Olqish! Olqish! To'g'ri!» degan xitoblar eshitildi. Sirasini aytish kerakki, xitoblarning bari ham samimiy emas edi.

— Ushbu hujjat, — imom qog'ozni ko'rsatdi. — Bek hazratlarining boloxonalik uyi, ikki tanob hovlisi bo'lgan bir qo'rg'onchani sotib olganlari haqidadir. Uni Nasriddin Afandiga iltifot etajaklar!

Bu narsa Nasriddin uchun ham kutilmagan voqealigi uchun u angrayib qoldi. Bek purviqor jilmayib, tashakkur kutardi. Rais va Baroqxonlar: «Turing, oling!» deb shivirlashganidan keyin shoshib turdi-da, qo'lini navbatma-navbat peshonasiga, so'ng esa imomning qo'liga tekkazib hujjatni oldi. Bekka ta'zim qilib: «Davlat-u martabangiz ziyoda bo'lsin!» deb joyiga o'tirarkan, shu zahotiyiq qozikalonni eslab qoldi. Qozini chaqirtirib, qasos olishning juda payti kelgandi.

— Bek janoblari, bir qoshiq qonimdan kechib, yana bir erkaligimni ko'tarsalar mumkinmi?

— Mumkin. Siznikini ko'taramiz-da!

Ana shundan keyin qozikalonga chopar ketdi. Nasriddin bekning iltifoti bilan qo'rg'oncha olganini qozi ham hujjatlab berishini so'ragandi.

Bekning muravvat ko'rsatishi o'ziga har lahza zarur Nasriddinning Jurjonga qaytib ketishidan xavotirlanishi edi. Poytaxtning havosini olgan har bir kishidek Nasriddin ham bu joylarda uzoq turolmasligini bilardi.

Ikkinchidan esa, Nozlinisaning moyildek ko‘rinishiga ham Nasriddining hissasi bor deb o‘ylardi.

— Bek janoblariga men eslatgan edim, — dedi imom xijolatga tushib. — Qozikalon anchayin betob bo‘lib, uzrlarini men orqali ham aytib yuborgan edilar.

Bek bir oz qovog‘i solinib, bosh irg‘adi.

Aslida bek qozikalonning tobi yo‘qligi haqidagi uzrni eshitgandi. Lekin tepasida Azroil turmasa, bu taklifdan voz kecholmasligi aniq edi. Qozi albatta keladi, deb o‘ylagandi. Boz ustiga bek, pashsha haqidagi vakolatnomani bilmasa-da, Laylak qishlog‘idagi ikki fuqaroning kelishmovchiligi yuzasidan (Guppi va Abdukarim) qozikalon bilan Nasriddin Afandining o‘rtasida qandaydir hangoma o‘tganini, boyagi bozordagi mash-mashalarni ham hufiyalari orqali eshitgandi. Hech narsadan bexabardek bo‘lib qozikalon bilan Nasriddinning yuzlanishlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rmoqchi edi.

— Begim, siz bilan yana bir garov o‘ynashim mumkin, — dedi Nasriddin kulib turib.

— Yo‘q, siz bilan endi garov o‘ynamayman. Qani, ayting-chi, nima gap?

— Qozikalon meni ko‘rib qochib ketadilar.

Do‘nanbekning qoshlari andak ko‘tarildi:

— Ne vajdan?

— Qozikalonning o‘zlaridan so‘raysiz?

— Yo‘q, ayting! Sabrim yetmaydi.

Nasriddin sekingina gap boshlagandi, bek buyurdi:

— Yo‘q, Afandim. Bular ham eshitsin!

...Pashsha haqidagi hangomani eshitib, so‘ridagilarning bari xo‘p kulishdi. Nasriddin ziyraklik bilan bek va raisdan farqli ravishda imom va Baroqxonning kulgisi zamirida qoziga achinish yotganligini ilg‘ab oldi. O‘ylaganidek, imom bilan Baroqxon kulgini kaltaroq qilishdi.

— Nahot, qozikalon...ga pashshangiz o‘ltirgan bo‘lsa?

— Shunday soddagina nayrangga uchganini qarang!

Bu ikki jumlaning Baroqxon bilan imom jilmayib tursalar-da, achinish bilan aytdilar.

— Umrining oxirigacha askiyadan qutulmas? — dedi rais maroq bilan.

Uning zavqiga bek ham qo'shildi. Lekin shu zahotiyoq ikkovi Baroqxon bilan imomning kayfiyatini sezib qolishdi: «Hamshahar qozikalon kelgindi oldida izza bo'lyapti?!»

— Endi Nasriddin xo'jam, qozikalonni kechirib qo'yasiz! — dedi bek jilmayganicha, keyin yonidagilarga qosh qoqdi. — Biz shuni iltimos qilamiz, shundaymi?

— Axir, u kishi meni kalaka qilmoqchi bo'ldilar?! Sopini o'zidan chiqardim, xolos!

To'rtovlon yana beixtiyor kulib yuborishdi. O'zlarini arang bosishgach, Rais ham «o'zini ko'rsatdi»:

— Hay mayli, bizning iltimos: qozini boshqa quvmaysiz, maylimi?

Bek ham bosh irg'ab, gap tamom degandek qo'lini tovoqqa cho'zdi.

— Bir qoshiq qonimdan keching, sizning oldingizda bir marta isbot etay, — dedi Nasriddin bekka.

Bek savol nazarida bo'lajak qaynatasi bilan imomga qaradi. Ular ko'zlarini olib qochishdi.

— So'nggi marta, faqat sizlar uchun? Bo'lak odam sezmaydi? — dedi Nasriddin hammaga qarata.

O'tirganlar rozi bo'lishdi. Oradagi xiyla vaqt taom bilan o'tdi.

— Ha, aytmoqchi, boya bozorda mirshabni quvib, xohlagan odamni uraveraman deb kerilibsiz! Shu vako-latga suyanganmidingiz? — so'radi bek.

Nasriddin sergak tortdi. Darrov gapga hazil ohang berib, voqeaning aslini gapira boshladi. U gapini tugatar-tugatmas, bog' tarafdin qozikalon ko'rindi.

Qozikalon bekning so'risiga yaqinlashgach, xastaligini aytib, ming uzrlar so'radi. Nasriddin Afandiga xavotirli qarab-qarab, uni yangi uyli-joyli qilayotgan hujjatni rostladi-da, shu zahotiyoq qaytishga ijozat so'radi. So'ridagilar nim kulgularini arang yashirib o'tirardilar. Chunki, qozi alam va xavotirini ming yashirmasin, qarash va xatti-harakatlarida ko'rinib qolayotgandi.

— Ha-a. Bir tishlam go'sht totinmasangiz bo'lmas,— dedi bek hech narsa bilmaydigan ohangda.

— Mayli, — dedi qozi. — Men chekkadagi so‘riga boray? Agar o‘zimni behuzur sezsam, iznsiz ketishga ruxsat bersangiz!

Bek rozi bo‘lib bosh irg‘adi. Qozi o‘zi haqda hech gap yo‘qligiga ishonib endi keta boshlagandi. Nasriddin: «Qozikalon!» deb uni to‘xtatdi:

— Siz bir oz totining, so‘ng oldingizga o‘taman, bir maslahat bor edi!

Qozi kalovlanib, iztirobda so‘ridagilarga boqdi. Lekin ular buni payqashmay, «hafsala» bilan taomga berilgandilar.

— Chirog‘im, mazam yo‘qroq. Ertaga qozixonaga o‘ta qoling? — yalindi qozi juda pachoq ovozda.

— Bir og‘iz gap xolos!

— Ixtiyoringiz! — dedi qozi sir boy bermaslik uchun.

Qozi eng chekkadagi, yo‘lakka yaqin turgan so‘riga borib o‘tirdi-yu, ko‘zini Nasriddindan uzmadi. Oradan bir oz vaqt o‘tgach, Nasriddin Afandining bekdan ijozat so‘raganini, qolganlar esa miyiqalarida kulganlarini, so‘ng esa Nasriddining qo‘l artayotganini ko‘rdi-yu, yonidagilarga: «Uzr, men behuzur bo‘lyapman», deb apil-tapil jo‘nab qoldi.

Jo‘narkan, bekning so‘risidagilar unga qarab kulayotganlariga ham ko‘zi tushdi. Ularning pashsha hango-masidan xabardor ekanliklarini tushundi. Saroydan darg‘azab otilib chiqqani, Tarashaga: «Bo‘g‘izlang!» degani ana shundan edi.

Bir tarafga qalandar, ikkinchi tarafga sheriklari bilan Tarashani yashirgan zimiston jimjitlik bir soatlardan keyin darvozadan to‘rt otliq chiqishi bilan buzildi. Qorong‘ida ish ko‘rishga o‘rgangan ko‘zlar bularning uchta yasovul qurshovidagi Nasriddin Afandi ekanligini darhol ilg‘ashdi.

Ammo Tarasha o‘ylagandek, ular karvonsaroy tarafga emas, qozikalon ketgan tarafga burilishdi. Vaholanki, Nasriddinning karvonsaroy xo‘jasi bilan xujra xususida kelishayotganini Tarasha o‘z qulog‘i bilan eshitgandi-ku! Demak, rejasi o‘zgaribdi-da? Boz ustiga Nasriddin eshak emas, ot mingan edi.

Saroydan chiqqanlar mash'alaning xira yog'dusidan chiqib, ko'chaga burilishganda oldilarida bir qora paydo bo'ldi:

— Bugun jinlar qo'ziydigan kun! Hoy musulmonlar, toat-ibodatingni sarishta qil! — dedi u g'o'ng'illab.

— Hoji Abdusattor, sizmi? — so'radi Nasriddin Afandi ko'p yillik tanishini endi uchratgandek ohangda. Nasriddin xayoliga kelgan birinchi nomni aytgan va so'rog'i bilan yasovulning: «Qoch yo'ldan, qalandar!» degan hayqirig'ining oldini olgandi.

— Labbay, taqdir! — dedi qalandar.

— Mingashing! Uyga obketaman. Sizni bu yurtlarga qanday shamol uchirdi?

— Oy ostidagi Xudoning dargohi biz uchun vatan, Afandim, — dedi qalandar otga mingasharkan.

Nasriddin bekning chuhrasiga izoh berdi:

— Jurjonlik tanishim. Ko'rdingizmi, sherik ham topildi! Endi yigitlaringiz darvozadan qaytaversa ham bo'ladi.

— Ketdik!— dedi bizga tanish bekning chuhrasi sabrsizlik bilan.

Besh kishi to'rt otni yo'rttirib yetib kelishganda darvoza posbonlari burjga chiqib o'tirishgandi. Mabodo bekning chuhrasi shaxsan o'zi kelmaganda ular darvozani hech qachon ochmasdilar.

— Aslida qolaverish lozim edi,— dedi chuhra ta'na bilan.— Sizni bu yo'sinda jo'natib ko'p bexotirjam bo'lamiz!

— Biz kabilarga hamisha Xudo panoh,— dedi Nasriddin. — Boz ustiga bu tanishim bilan o'tdan ham qo'rqmasa bo'ladi.

Darvoza ochildi. Ikki kishi mingan ot darvozaga yo'naldi.

— Xayr! Tangri panoh! — dedi chuhra. — Ulovingizni aytgan joyga yuboraman.

— Otni ham o'sha joyga qaytaraman!

Nasriddin bu gapni allaqachon tushirilgan panjara-ning naryog'ida turib aytdi. So'ng darvoza og'ir g'irchilab yopildi.



— Ko'p qiziq odamlar bor dunyoda, — dedi boyatdan beri miq etmagan suvorilardan biri.

— Goh achinasan, goh havasing keladi, — dedi chuhra unga javoban.

## ***TESHIKSIZ QO'RG'ON BO'LMAS***

**A**hmad tarasha sheriklari bilan halloslab yetib kelgan paytda chuhra boshliq ikkita suvori otlarini orqaga burayotgandilar.

Nasriddin Afandining shahardan chiqqani aniq edi. «Xudoga shukr, qo'lga tushibdi!» shivirladi Tarasha. Navkarlar o'tib ketishgach: «Tezroq, soyga!» deb buyurdi-da, o'zi shitob bilan oldinga tushdi.

Dunyoda oqar suv kirmaydigan bironta ham shahar yo'q. Soyi, daryosi, anhuri shahar uchun hayot-mamot. Hayot-mamot joyi esa albatta eng nozik bo'ladi. Dushman ham aksariyat shaharni suv orqali yoki suvni bo'g'ib oladi. Ko'pchilik jinoyatlarning uchi suvga borib taqalishi bejiz emas.

Atrofini posbon o'ragan bu shahar devori ostidan anhor oqib chiqardi. Suvga tushirilgan temir panjaraning yonida, bir sho'ng'isa, bir emas ikki odam kirib chiqa oladigan teshik bo'lib, muhoraba paytlarida bu yerga lashkar qo'yilardi. Ammo boya aytganimizdek, hozir zamonada tinch, devor ustidagi posbonlar ham aksariyat pinakka ketgandilar. Qolaversa, ularning vazifasi suvga termulish emas, dushman lashkaridan ogoh bo'lish edi. Bir ikki gadoy, o'g'ri, qalang'i-qasang'ilar ularga cho't emasdi.

Ahmad tarasha bilan sheriklari soy bo'yidagi pastqamlik, o'ydim-chuqurlardan panalab borib, suv panjarasiga yaqinlashishdi. Kiyim va yarog'larini yechib temir panjara kataklaridan tashqari qo'yishdi. So'ng bir-bir sho'ng'ib o'zlari ham shahardan chiqishdi. Kiyinib, tayinlangan joydagi otlarini minishdi-da, qamchi bosib yeldirishdi.

**BIR EMAS, IKKI KISHI**

**N**asriddin Afandi bilan Qalandar bir otga mingashib shahardan xiyla uzoqlashishgach, qalandar piyodalandi. Qorong'uga alangladi-da, hushtak chaldi. Uzoqdan otning kishnagani va tuyoq dupurlari eshitildi, xiyol o'tmay o'zi ham yetib keldi. Qalandar uni siypaladi-da, minib oldi.

Ahmad tarasha sheriklari bilan qanchalik yelishmasin. Nasriddinga sardobaga yaqin qolgandagina yetib oldilar. Ular shahardan chiqish, tayin uydan ot olish, so'ng yo'lga tushishga ancha vaqtni boy bergandilar. Bugun ular ikki reja tuzgandilar. Birida Nasriddin biron-ta tanishinikiga tunash uchun yo'l oladi-yu, kimsasiz ko'chada o'g'rilarga duch kelib, bud-shudidan va shu jumladan vakolatnomadan ham ajralardi. Ikkinchisida esa, Nasriddin saroydan barvaqtroq chiqib, qishlog'iga eshak minib qaytishi mo'ljallangandi. Bu reja bo'yicha shahardan uncha olis bo'lmagan yerda Nasriddin biqini ezilib, puli-yu vakolatnomasidan ajralib ketishi lozim edi. Qorong'i tushgach, sheriklar hamma ish shaharda biti-shiga ishonib qo'ygandilar. Lekin Nasriddin Afandi suvorilar qurshovida, tag'in otda chiqdi. Tarashaning boya ham sevinib, ham mubham hayajonga tushgani, bir oz sarosimalanib, qalandarning qo'shilganini ko'rmay qolgani shundan edi.

Ammo reja batamom buzilayozganini chapanilar sardobadan o'tib, Nasriddinga yetishlariga yuz qadamcha qolganda sezishdi. Yangi oy va yulduzlarning xira yog'dusida ulardan xiyla narida o'zlari o'ylaganchalik, bir emas, ikki kishining qorasi ketib borardi.

Tarashaning to'dasi, kelishib olgandek, taqqa to'xtadi. Sarosima va tajanglik kuchaygandi.

Sarosima va tajanglik boya, saroyning oldida turganlarida boshlangandi. Tarasha sheriklaridan ajralib, qozining: «Bo'g'izlang!» degan buyrug'ini, qalandarning: «Bugun jinlar quturadigan kun», degan sovuq karomatlarini eshitib qaytgan, bularni sheriklariga gapirib bergandi. Qalandarning so'zlari ularni vahimaga, ikkila-

nishga solgan bo'lsa, qozining buyrug'i fig'onlarini falakka chiqargandi. Ayniqsa, Tarasha chunonam so'kindiki, agar buni u bafurja bir ahvolda eshitganda qozi-poziligiga qaramay: «Bergan o'n tillangizga odam o'ldirishmi?..» deb so'kvorgan, qo'l siltab ketgan bo'lardi. Ammo xonasi kelmadi. Boz ustiga qozi gapini aytdi-yu, jo'nadi.

O'sha yerda, saroy oldida, Tarasha bilan uning sheriklari bugun tarqalishni, ertaga bamaslahat ish ko'rishni ham muhokama qilishdi. Lekin Tarashaning o'zi: «Bugungi kun ketdi. Endi nimaiki bo'lsa avvalgi o'zimizni rejamizni bajaraylik», deb sheriklarining insu jins oldidagi qo'rquvlarini yenga oldi.

Bu yerda Nasriddinning yonidagi ikkinchi odamning paydo bo'lishi esa ular uchun batamom kutilmagan to'siq edi. Bosqinchilar yana bir oz muhokama qilib, balki qishloqqa yaqin qolganda ikkovi ajralishar, degan umidda ta'qibni davom ettirdilar.

Biroq umidlari puchga chiqdi. Ikki otliq qishloqqa birga kirishdi. Itlarning basma-bas vovullashlari hamda qorong'ulik ularni yutib yuborgandek bo'ldi.

## ***ULARNI YAXSHI BILAMAN***

**Y**arog'ingizni tayyorlang, Afandim! — dedi Qalandar sardobaga yaqinlashgan paytda.

— Tayyor, — dedi Nasriddin xanjar bilan uchiga qo'rg'oshin bog'langan qamchinini ushlab.

— Ularni yaqiningizga keltirmayman-u, ammo har ehtimolga qarshi hozirlik ko'rgan tuzuk-da,— dedi qalandar orqaga bir qarab, o'zining kuch-quvvatini chama-layotgandek. Ammo bosqinchilar orqada qolishgandi.

— Siz ham endi yotavorasiz, — dedi Nasriddin Afandi.— Ular bugun meni nishonga olishgan, Abduka-rimga tegishmas?

— Bilib bo'lmaydi Tarashani. Quruq qaytmaslik odati bor. Abdukarimni yolg'iz tashlash to'g'ri emas.

— Esa, men ham siz bilan qaytaman, — dedi Nasriddin jilovni tortayotib.

— To‘xtamang, to‘xtamang! Indamay ketavering!  
Indamay ketavering! — dedi shoshib qalandar.

Bir oz yurishgach, izoh berdi:

— Men o‘zim uddalaydigan ish. So‘zim — so‘z.

— Axir ular uch kishi. Siz esa dam olmangansiz.

— Ot ustida bir nafas mizg‘ish menga yetarli.  
Tarashaga kelsak, qo‘lidan nima ish kelishini bilaman.  
Ular ham meni bilishadi.

— Xo‘sh? — dedi Nasriddin Afandi yo‘ldan to‘xtamay.

— Lekin o‘zimni tanitmay turib oq basarlayman. Siz xotirjam bo‘ling!

Qalandarning hamma gapida: «Aralashmang, meni yerga uryapsiz!» degan ma‘no bor edi. Keyingi jumlasida esa bu ohang ancha kuchaygandi. Nasriddin buni tushunib, aytganlariga ko‘ndi.

Qalandar Nasriddinni kuzatib qishloqdan qaytib chiqqanda Tarashaning to‘dasi shu yaqin orada ekanligini sezdi. Ular ko‘rinmasdi-yu, chakalak va butalarning orasidan uzuq-yuluq gaplari eshitilardi.

Qalandar yerga tushib, otiga tuyoq tovushi chiqarmaydigan maxsus tayyorlangan «poypoq»ni kiydirib bog‘ladi. So‘ng bosqinchilar ovozi chiqayotgan joyni aylanib o‘tib, Abdukarimning uyi tomon yo‘l soldi. Aslida u Abdukarimning uyi yaqinida pisib, boxabar turmoqchi edi. Lekin sardobaga yetganda to‘satdan xayoliga: «Tarasha Afandining uyiga borsa-chi?» degan fikr kelib to‘xtab qoldi.

Qalandar o‘ylab turib bu gumonidan qaytdi. Chunki Tarashaning shu paytda Nasriddin Afandinikiga borishi g‘irt kaltabinlik edi. Itlarning vovullashidanoq chorak qishloq uyg‘ongandi. Qo‘shnilar albatta yordamga oshiqishadi. Ikkinchidan, gazandalar qalandarni hali ham o‘sha yerda deb o‘ylashadi. Buyoqdaligini ular hali bilishmaydi.

Agar Tarasha tong otishini kutsa, unda shu sardobaga qaytib, tong ottiradi. Eng qulay joy shu yerd edi.

Shunday fikrga kelgach, qalandar otini sardobaning ortidagi butazorning ichiga qo‘yib yubordi-da, qoplon-

dek asta yurib, Abdukarim mirshablarni kuzatgan kovakka yashirindi.

Uning asta yurishi bejiz emasdi. Oradan ko'p o'tmay Tarasha to'dasining baland ovozda bo'g'ilgudek bahslashib kelayotganlari eshitildi. Ayniqsa Tarasha asabiy edi. Uning «darmon dori» qabul qiladigan vaqti yaqinlashayotgandi. Bunday paytda undan har narsa kutish mumkinligini qalandar yaxshi bilardi.

Sardobaga yaqinlashgach, ovozlari pasaydi. Biri kirib xabar olib chiqdi.

— Hech kim yo'q. Yolg'izmiz, — dedi.

Bu Hasan g'o'la degan chapani edi. Bir oyog'i ikki enlik kalta bo'lgani uchun to'lqin kesib suzayotgan qayiqqa o'xshab sho'ng'ib-sho'ng'ib yurardi. G'o'la laqabini esa bo'yi pastligiga qaramay, yelkalari nihoyatda kengligi uchun olgan edi. Bosqinchilar otdan tushib, charchoqdan «uf-uf»laganacha oyoq-qo'llarini uqalab sardoba oldidagi supaga o'tirishdi.

— Ikkovini gumdon qilish kerak edi! — dedi Hasan g'o'la yana bahsni boshlab.

— Yonidagi kim, qanaqa odamligini bilmay-a! Uchchovimizni gumdon qiladigan chiqsa-chi? — dedi Do'rildoq laqabli sherigi, do'rillagan ovozda.

— Meni yakkama-yakkada gumdon qiladigan hali onasidan tug'ilgani yo'q! — maqtandi G'o'la.

— Hoy! — Do'rildoq tutaqa boshladi. — Bizning o'ljimiz elga taniqli odam! Buning ustiga bekning saroyidan chiqdi, bildingmi? Bek saroyidan! Ertaga hamma-yoq tasir-tusur bo'p ketadi!

— Hey, izingni yaxshilab supursang-chi, bekning o'zini ham gumdon qilsa bo'laveradi. Shuni senga aytishim joizmi?

— Menga qara, Tarashadan oladigan bir tangamni odam o'ldirish uchun baylashmaganman.

— Nima uchun baylashgansan?

— Uch-to'rt kun Tarashaning yonida yurib, birovga do'q qilish, birovni bir-ikki sob qolish uchun. Sen ham shu. Bir tangaga menga ustozlarim odam o'ldir deb ta'lim bermagan. Qimmatroq turadi u ish!

— O'rgildim ustozlaringdan.

Bu bahsga Tarasha aralashmadi. Charchoq, asabiylik va omadsizlik tinkasini quritgani ustiga ko'knorining xumori tuta boshlagandi. Hozir bir piyola qaynoq suv bo'lsa-yu, ichiga dorisini ezib ichsa bas, dunyoda bundan bo'lak hech narsa kerak emas edi unga.

Uning ikkala sherigi esa bahslashaverib, janjallashib ketishlariga sal qoldi. Hasan g'ola o'rnidan turib Do'rildoqning yoqasiga yopishayotgan paytda. Tarasha aralashishga majbur bo'ldi:

— O'tir joyingga! — baqirdi G'olaga qarab. — Yo'q, yaxshisi, bitta suv opchiq!

Hech kimga so'z bermaydigandek ko'ringan Hasan g'ola darrov kirib sardobaning zarang kosasida suv keltirdi.

Tarasha shoshilmay yonidan ko'knorisini chiqarib lattaga o'radi-da, keyin piyolaga soldi. Maromida ivitishga sabri ham chidamay ichdi. So'ng sheriklariga uzatdi. Sheriklari ham ichishdi.

— Eh, qani endi bir kosa qaynoq suvga ezsang, — dedi Tarasha orada cho'kkan jimlikni buzib. — Mayli, ichimdagi devni yarim soatga bo'lsa ham aldashga yetar.

Keyin xuddi shu gapni davomidek G'olaga dashnom bera boshladi:

— Sen G'ola — maqtanchoq, kallang ishlamaydigan odamsan! O'ljaning yonidagi kim, buni bilib qo'ysak zarar qilmasdi. Shu, yaxshi ilg'olmadim-u, boyagi qalandarga o'xshab ketgandek ko'rindi ko'zimga. Qalandarning o'zini bo'lsa, ayniqsa ovozini, kimgadir o'xshatayman-ku, hozir miyam g'ovlab ketganidan eslolmayayman. Ikkinchidan-chi, G'ola, bo'g'izla, deb qozi aytdi. Ertaga o'zi shartta tutib oyog'ingdan osmasligiga kafil bo'lasanmi? A?

— To'g'ri, to'g'ri, qozini nayrangi o'-ho'o'o! Ishonib bo'larkanmi? Bizlarning qo'l bilan dushmanini yo'q qiladi-da, keyin o'zimizni tutib dorga...

— Jim bo'! — dedi Tarasha Do'rildoqqa. Keyin masxaralab uning boyagi gapini takrorladi. — «Bir tangaga odam o'ldirmayman, ustozlarim bunaqa ta'lim bermagan!»

Do‘rildoq pusib qoldi, Tarasha davom etdi:

— Men aytsam, o‘ldiraverishing kerak! Hisob-kitobi bo‘laveradi!

— Yo‘q, yo‘q, yo‘q, — dedi Do‘rildoq o‘rnidan turib ketib. — U butunlay boshqa ashula. Unga ovozni tamom boshqacha sozlash kerak!

— Ha, bo‘pti! Unday sozlash uchun tangadan mo‘l-roq lozimligini o‘zim ham bilaman! Endi bugun quruq qaytmaymiz! Dehqonni bir jig‘ini ezaylik, zora asosiy o‘ljamiz ham qaltirab qolsa.

— Bo‘pti! Bo‘pti! — deyishdi Tarashaning sheriklari sevinishib.

Lekin ular shunday qarorga kelishlari bilan oyoqlari ostidan «Ts-ss-shsh-ss!» degan ovoz chiqdi. Uchchovi uch yoqqa sakrab turib, engashib yerga qarashdi.

— Pa-pa-padariga la‘nat, n-naq ishtonimga kirib olibdi-de, deb o‘ylabman! — dedi sheriklaridan uzoq-roqqa sakrab tushgan G‘o‘la.

Tarasha bu ovozning chetdan kelganligiga darrov tushundi. Atrofga olazarak boqarkan, ko‘zlari uchta chinorning birida to‘xtadi.

— A... — deb kimningdir otini aytmoqchi bo‘ldi-yu, ammo sheriklarini cho‘chitib yuborishdan qo‘rqib aytmadi. Boz ustiga o‘zi ham to‘la ishonmasdi miyasiga kelgan fikrga. Chunki tovush vishillashga o‘tib, so‘ng yana «ss» deb tugardi. Buning kapcha ilon emasligiga hozir hech kimni ishontirib bo‘lmasdi. Jin ovozi desang ko‘nishardiki, odamnikiligiga ishonishmasdi.

— Hoy birodarlar, qalandar to‘g‘ri aytgan, bugun jinlar qo‘ziydigan kun shekilli. Tezroq shaharga ketaylik, — dedi Do‘rildoq dag‘-dag‘ titraganicha yig‘lamsirab.

— Jim bo‘l! Jin shaharga kirolmaydimi? — jerkidi Tarasha uchinchi chinordan ko‘z uzmay. — Qani, bu yoqqa, yurlaring!

Tarasha sheriklarini to‘plab, chinor tomon yaqinlasha boshladi. Uch-to‘rt qadam qo‘yishgan edi, shunday orqalaridan yana «Tss-s-sh-sh-ss!» eshitildi. Uchchovi sakrab orqaga qarashib jonholatda ust-boshlarini qoqa boshlashdi. Nazarlarida ilon egnilariga yopishgandek edi.

Uchala sherik oyoqlarini tapillatib, egni-boshlarini qoqib tugatmasidanoq, sardobaning ortidan boyqushning sayragani, ketidan esa olis cho'l osmonidan mudhish qahqaha eshitdi. Qahqaha bo'g'iq, qarsillagan ovozda bo'lib, odam emas, jin-alvastilarnikiga o'xshardi.

Tarashaning sheriklari adoyi tamom bo'lishdi. Hatto uning o'zi ham g'o'ldirab kalima keltira boshladi. Muzdek terga botib, tili tanglayiga yopishgan chapanilar besh-o'n nafas qimir etmay turdilar.

So'ng Tarasha o'ziga keldi-da, shitob bilan chinorni aylanib o'ta boshladi. Daraxt tanasiga yopishgan butani ko'rib, qo'rqib ketdi, shu qo'rquv ostida ikki-uch qilich sermab uni chopib tashladi. Buta qulagach, kovakning og'zi ochildi.

— Ha-a-a! Tutildingmi! — dedi u g'olibona baqirib.— Mana senga! Mana senga!

Tarasha shunday deb kovak ichiga qilichini suqib-suqib oldi. Agar shu soniya qilichi birovning yarog'iga yoki qalqonga urilganda, u yana sevinib qiyqirmoqchi edi. Tarasha o'sha g'azabi bilan ichkari mo'ralab, yana qilich sermadi. Lekin qilichi chinor tanasidan bo'lak narsaga duch kelmadi.

Tarashaning boya tarqagan qo'rquvi birdan qaytib, vujudiga mahkam yopishdi. Shu zahotiyoyq yana boyagi qahqaha eshitildi. Qahqaha goh sardoba ortidan, goh esa yuqoridan kelayotganga o'xshardi.

Chapanilarning esxonalari butunlay chiqib ketgandi. Sigirning «mo'-mo'»lashiga o'xshagan ovoz chiqarib, otlariga yugurib borib minishdi-da, shunday qamchi bosdilarki, jonivorlar yelday uchishdi, tuyoq ovozi ham bir zumda tindi.

Qalandarning har xil ovozlarga taqlid qilib bu ovoz-larning boshqa yerdan chiqayotgandek ko'rsatadigan hunari bor edi. Qo'lini karnay qilib uddalarmidi yoki boshqacha usuldami, uni hech kimga aytmadi. Hozir ham ba'zi ko'zboylag'ichlar sirkda bu hunarni ko'rsa-tishadi. Bu hammaga nasib qilavermaydi.

Charchagan otlar o'z-o'zidan sekinlab qattiq hansi-ray boshlagandagina chapanilar hali ham yo'l yurishay-otganlarini eslashdi.



— To‘xtanglar! — dedi Tarasha nafasi og‘ziga tiqil-gudek hansirab.

O‘l desa o‘lgudek sheriklarining ixtiyori o‘zlarida emasdi. To‘xtashib, unga mo‘ltirashdi.

— Ketaylik, hoy, turmaylik! Tezroq bir odam isi bor joyga boraylik, — yalindi Do‘rildoq chiyillagudek bo‘lib.

— Yo‘lni topish kerak! — dedi Tarasha qat‘iyligi ancha susaygan ohangda. — Dehqonning uyi shu atrofda shekilli, o‘tib ketmagan bo‘lsak.

— Voy! Voy! Voy! Dehqon deydi-ya?! Tezroq olib ket shaharga! Mayli, pulingni bermasang ham! Kerakmas! — dedi Do‘rildoq zanchalish tovushda.

— Jim! Oysha xolangdan battar dod solasan-da!

Tarashaning bu baqirig‘i sherigini sal o‘ziga keltirsada, bari bir dag‘-dag‘ qaltirashi bosilmadi. Agar qayoqqa ketishni bilganda, yolg‘izlikdan qo‘rqmaganda o‘ziyoq qochvorardi Do‘rildoq.

— Og‘aynijon! — yalinishga o‘tdi u. — Umrim bo‘yi xizmatini qilay! beradigan tilla tangandam ham kechdim! Shaharga obket!

— O‘zingni bos, do‘stim! O‘zingni bos! — Tarasha sheriklariga yumshoq gapirib dalda bermasa bo‘lmasligini tushundi. — Sardoba ko‘hna joy. Jin-pin bo‘lsa bordir. Bu yer cho‘l. Hech narsa yo‘q!..

Xuddi shu payt allaqanday «Vof-vof!» degan ovoz eshitildi.

Chapanilar bir sakrab tushishdi.

— It-ku, bu! Dehqonning uyi. Ketdik!

Tarashaning boyagi ichgan dorisi pakkaga bormagan, yana ichi tatalab betoqat bo‘la boshlagandi.

Lekin sheriklari uning xitobidan qimir etishmadi. G‘o‘la tiliga tirsak chiqqandek indamas, Do‘rildoq esa tinmay shivirlab kalima keltirardi.

— Hayda! — dedi Tarasha baqirib. — Yurakdan ham bor ekan o‘zi, a, G‘o‘la? Otning kallasidek?!

Sheriklari unga indamay ergashishdi.

Abdukarimning qo‘rg‘oniga yaqinlashishganda itning vovillashi zo‘raydi. Odam ovozi, taqir-tuqur ham eshitildi. Nasriddin Afandi boya ketishayotganda Abduka-

rimga bugun ogoh bo'lish kerakligini, o'zi ham yordam berishini uqtirib o'tgandi.

Abdulkarim o'zi ham o'sha kungi voqeadan keyin qaynisini olib kelgandi. Yigirma yashar qoruvli qaynisi buqaniyam qulatadigan cho'qmor ushlab, bir uyum saralab taxlangan toshning oldida shay edi. Zubayda ham tomdagi pichanning oldida shunday tosh uyumi bilan tayyor turardi. Bolalarni yerto'laga yashirishgandi.

Chapanilar qo'rg'ondan yigirma qadamcha narida to'xtashdi. Ular ham ko'pni ko'rgan odam bo'lganliklari uchun ehtiyotkorona harakat zarurligini sezishdi.

Tarasha bilan Abdulkarimning o'rtasida so'z ketdi:

— Hey, Abdulkarim!

— Ha, nima deysan?

— Aytganni bajardingmi? Qaerda ekan?

— Bilmayman. Menga aytmadi.

— Hozir uyingga o't qo'ysam, esingga tushadimi, isqirt?

— Yaqinlashma, boshingni majaqlab tashlayman.

— Hey, meni bilasanmi? Odamning joni menga chivindek gap.

— Afsuski, bilmayman. Bilsam topib gaplashardim.

Abdulkarimning bu gapidan keyin Tarashaning sheriklari ham batamom o'zlarining bosqinchi qiyofalariga qaytishdi, chunki ular jin emas, rosmana odamga uning o'jarligiga qarshi turardilar.

— Men orqadan aylanib o'tib, bir jonini kirgizay! — dedi G'o'la otini burib, so'ng bo'ralab so'kindi.

Tarasha avval chaqmoqtoshni, so'ng hamisha teriga o'rab olib yuradigan bir parcha moyli paxtani oldi-da, yog'och sug'urish uchun bo'g'otga yo'l oldi.

Xuddi ana shu lahzada osmondan tushganday mudhish qah-qaha yangradi.

Qo'rg'ondagilar ham, tashqaridagilar ham dahshatdan serrayib qolishdi.

— E-e! — dedi tobora betoqat bo'layotgan Tarasha bo'kirib. — Azroil kelsa ham o't qo'yaman bu isqirtga!

Tarasha shunday deb bo'g'ot tomon yo'nalgan edi, oti o'zini ilkis osmonga otib qattiq kishnadi-da, olib

qochdi. G'ola bilan Do'rildoq ham uning ketidan juf-takni rostlab qoldilar. Tarashaning otiga qorong'ulik ichidan tosh kelib tekkandi. Bir zumda chapanilar nom-nishonsiz tumtaraqay bo'lib ketishdi.

Toshni qo'rg'ondan otishmagandi. Qo'rg'ondagilar ham shayton qahqahasidan qaltirab qolgandilar. Zubayda tomda, Abdukarim bilan qaynisi esa tosh uyumi ustida bir-biriga suyanib kalima keltirishmoqda edi.

Qaroqchilar ketib, oradan ancha vaqt o'tgach, Abdukarim bilan qaynisi ikkovlashib tomdan Zubaydani olib tushdilar. Ayvonda pisib, shivir-shivir gaplashib o'tirishganda tashqaridan: «Abdukarimjon!» degan birovning ovozi eshitildi. Ular etlari jimirlab battar pisishdi.

— Abdukarimjon! Qo'rqmang, biz Nasriddinning do'stlarimiz, — qalandar ham o'zini yashirish uchun, ham qo'rg'ondagilarga madad bo'lishi uchun ko'pchilik nomidan gapirdi:

— K-kimsiz? Jinmisiz, odammisiz? — so'radi Abdukarim o'tirgan joyida ovozi bo'g'ilib.

— Odammiz, odammiz, — degan javob keldi kulgi ovozidan keyin. — Nasriddin Afandining odamlarimiz.

— K-kiring b-buyoqqa.

— Xavotir olmay yotinglar, xo'pmi? Qaroqchilarni quvgan bizmiz.

— Kiring buyoqqa! — Abdukarim dadillanib o'rnidan turdi.

— Biz shu atrofda bo'lamiz. Hech narsadan qo'rqmanglar. Xayr!

Abdukarim darvoza o'rnidan asta bosh chiqargandi, cho'l qorong'iligidan bo'lak hech narsa ko'rmadi. Qizig'i shuki, it ham indamay yotardi.

Qalandar Abdukarimni tinchitib, do'stlarini bugun hech kim bezovta qilmasligiga komil ishonch bilan shahar tomon yo'l oldi. Jinlar qo'ziydigan tun hademay tugaydiganga o'xshardi.

Abdukarimning uyidagilar g'ira-shira tong otguncha uxlashmadi. Jinlar, alvastilar haqida gaplashib, Nasriddin Afandining sehrgarlar orasida ham tanishlari borligiga qat'iy ishonch bildirdilar. Shu fikr ularga dalda bo'ldi.

Nasriddin bazmdan chiqib ketgach, qoziga ichi achib o'tirgan Baroqxon bilan imom bekka ginaxonlik qilishga tushishdi. Ular bu yerda raisning o'tirganini ham hisobga olishmasdi. Eslatganimizdek, rais mansabdorlarning xatti-harakatlarini kuzatib yurish uchun podshohlik tomonidan belgilanardi. Hozirgi vaziyatda qozini ter-gashi va oxir-oqibatda unga qarshi biron chora tadbir ko'rilishiga bosh-qosh bo'lishi lozim edi. Chunki qozi — Muhsin guppi va mirshablarni jazolash o'rniga, o'zi ularning firibiga qo'shilib ketgandi. Lekin rais indolmay, «devor qayoqqa ag'darilarkin», deb kutishni va uni yiqi-layotgan tarafga itarishni ma'qul ko'rdi.

Bek buni sezib, qiyin ahvolda qoldi. Bo'lajak qayn-otasi — Nozlining otasi bilan imomning faqat hamsha-harlik, hamtovoqlik nuqtai nazaridan turib, qozining yonini olayotganlari noto'g'riligini bilardi.

— Birodarlar, — dedi bek mayin jilmayib. — Axir qoziga qarshi biron fitna to'qilayotgani yo'q. Hurmatli qozikalonimizning o'zlari qazigan choh-ku! Shundaymi?

— Ha, endi bir hazil qilmoqchi bo'libdilar-da, — dedi imom ishshayib. Bek uning gapini kesgandek davom etdi.

— Nasriddin Afandiga hazil qiladimi, axir? Tadbir-u so'zamollikda elga tanilgan, shahanshoh huzuriga kirib chiqadigan odamga-ya?

— Hech ishongim kelmaydi, cho'ntagida hemiri yo'q shu kelgindining shunaqa odamligiga! — dedi Baroqxon o'tirgan joyida bir qo'zg'olib qo'yib.

— Xuddi ana shu — hech kimning ishonmasligi Nasriddin Afandiga cho'ng qurol bo'lib xizmat qiladi.

Bekning uchala suhbatdoshi tushunmay unga qarab qolishdi.

— Mana, qozini oling! — dedi bek izoh berib. — Yoki mening garovda boy berganimni!

— E, bular oddiy gap-ku! — Baroqxon qo'l siltadi.

— Biz bilan siz o'tgan ishning ketidan qarab, oddiy deyapmiz. Biroq qoziga oldindan ham hech narsa ko'rinmagan... Shuning uchun hokimona tadbir ko'-

rish — viloyatimiz sha'niga yaxshilik olib kelmaydi. Biz, Nasriddin Afandi har baloni eplaydi, deb tayyor tursakkina u bilan bas boylashishimiz mumkin. Boz ustiga, menga ishoninglar, u Kumushkentda uzoq qolmaydi. Jurjonga ertami-kechmi jo'navoradi.

Bekning bu gaplaridan keyin Nasriddin o'tirganlarining ko'z oldida butunlay boshqacha tusda gavdalandi. Bir oz sukutdan keyin Baroqxon bo'lajak qaynota sifatida erkalandi:

— Bek hazratlari, xudo nasib etsa, mana, qarindosh ham bo'larmiz...

— Tashakkur!..

— Qutlug' bo'lsin!

— Ofarin!

Bu uch sevinch xitobidan keyin Baroqxon davom etdi:

— Sizdan shahrimizning barcha obro'li kishilari nomidan bir iltimos etsam: shu ishni bosti-bosti qilib berasiz...

— Xo'p bo'ladi, ota!

Ota degan murojaatdan baralla kulgi ko'tarildi. Bek boshini qisqa egib, lo'nda so'z berdi:

— Ertagayoq ko'nglingizdagidek hal bo'lajak!

\* \* \*

Ertasi ertalab qozikalon o'z yaqinlarini yig'di. Eshik tashqarisiga po'k bo'lsa-da, lekin barzangi chuhrasiga odam kiritmaslikni tayinladi. Kechagi kun va tun voqealari bayonini eshitdi. Tarashaning arzi holidan so'ng Muhsin guppi, ikki mirshab va Tarashaning o'zi aybdor kishilardek, mo'ltirab qozining og'ziga tikilishib o'tirishardi. Bu ishga botib qolganidan darg'azab qozi, hech kimni ko'rarga ko'zi yo'q, ayniqsa, Guppini g'ajib tashlashga tayyor edi. Qani endi bir xo'rsinib uyg'onsayu, bularning bari tush bo'lib chiqsa!

— Bekning odami emasmidi? — so'radi qozi qalandarni nazarda tutib.

— Yo'q, taqsir, bekning uchta yasovuli darvozadan qaytdi.

— Hech bo‘lmasa kimligini aniqlamaysizmi? Sizni boshqacha odam deb eshitgandim. Bola-chaqani tashlab qo‘ygandan keyin buyog‘ini eplash kerak-da! Bu Muhsinboy sizga ishonib yuribdi! Men aytdim oqshom nima qilishni! Yo bekning buyurganidek, shariat bo‘yicha jazoga tortvoraymi?

Tarashaning chapaniligi tutib shart o‘rnidan turib ketdi.

— Do‘q urmang, qozikalon! Bilganingizni qiling. ammo do‘q urmang.

Qozikalon xatosini tushunib, indamadi. «Bunga o‘xshaganlarni zindonga solsang ham ho‘kizga o‘xshab bo‘yin egmaydi».

Qozining past tushganini ko‘rib Tarasha gapida davom etdi:

— Sizni aytganingiz Muhsinboyning bergan puli bilan bitmaydi. Undan keyin sheriklarim qo‘rqishdi. ishni bajarsak, ertaga o‘zimizni dorga osishadi, deb.

Bu shamadan qozi yalt etib bir qarab qo‘ydi.

— Ha! Nega indamaysizlar? — dedi u mirshablarga va asosan Guppiga qarata. — Biron chora o‘ylab topish kerak?! Aks holda isi chiqib ketib, sharmanda bo‘lishim qolibdimi ellik tanga uchun?

Hech kimdan sado chiqmagach, qozi davom etdi:

— Buning ikkita yo‘li bor, Muhsinboy! Yo Nasriddinning aytganiga ko‘nasiz, yoki...

Qozikalon o‘rnidan turib, tokchadagi qulflog‘liq qutlardan birini ochdi. Guppi bergan hamyonni oldi-da, obkelib o‘rtaga tashladi.

— Mana bu aqchangiz. Qirq tanga. O‘ntasi xarajat talab bo‘ldi. Keyinroq olasiz. Qani, — dedi qozi mirshablarga, — sizlar ham chiqaringlar!

Mirshablar birin-sirin hamyonlarini tashlasharkan. po‘ng‘illashdi:

— Bizlar ham sardobaning oldidagi va‘da bo‘yicha besh tilladan oldik.

— Yoki, — dedi qozi uchta hamyonni Guppiga surarkan, chala qolgan fikrini ulab, — mana shu sakson tillani olib, bu kishi bilan boshqatdan gaplashasiz. —

Qozi Guppiga Tarashani ko'rsatdi: — Ammo-lekin men qo'limni yuvib qo'ltiqqa urdim...

Oraga jimlik cho'kdi. Qozi bu gapi bilan nainki o'zi, balki mirshablarni ham chetlashtirgandi. Muhsin guppi yigirma tillaga kamaygan puli bilan bo'ynini eggancha yolg'iz qolgandi. U o'zining pullari bilan qarzdorlarining qarzini to'larmidi yoki yana Tarashaga yondosharmidi noma'lum, ammo shu soniyada Nasriddin Afandi kirib kelib voqeani jadallashtirib yubordi.

Eshikka posbon bo'lib turgan chuhra qalandarning bir siltab tortishidan hiq-hihlab, yo'l to'sish uyoqda tursin, gapirolmay qolgandi. Qalandar Nasriddinni kiritib yuborib, o'zi chuhraning oldida turdi.

— E, jamoa jam-ku! — dedi Nasriddin hammaga bir-bir qarab, so'ng Tarashaning ro'parasiga keldi. — Faqat sizni tanimayapman! Ha, Abdukarimni xonavayron, qizchasini duduq qilib qo'ygan qaroqchi siz bo'lsangiz kerak, a?

— Og'zingizga qarab gapiring, mulla Nasriddin! — dedi Tarasha xezlanib.

— Xo'sh? — dedi Nasriddin Tarashani bir tiyinga olmay qoziga yuz o'girdi-da, unga yaqinlashdi. — Endi nima qilamiz?

— Nasriddinxo'ja, — dedi qozi vazminlik bilan qat'iy ohangda. — Meni bu ishga aralashtirmang! Agarda yana bir marta qo'l yugurtirsangiz, siz bilan boshqacha gaplashaman!

— Qanaqa gaplashasiz? O'zingiz yozib bergan vako-latnoma bo'yicha ish tutyapman. Ahmad tarasha do'q qilsa, siz do'q qilsangiz! Men qayoqqa boray?

Qozining achchig'i chiqqan bo'lsa, Nasriddinniki ham undan kam emasdi. Qozi ming ogoh bo'lmasin, Nasriddin chaqqonlik qilib, uning quloq-chakkasiga shapaloq tortdi.

— Bas qiling maynavozchilikni! — dedi qozi chayqalib ketib, so'ng Tarasha bilan mirshablarga baqirdi: — Ushlanglar! Bosinglar! Hoziroq hujjatini tortib olinglar!

Nasriddin esa jahli battar chiqib uning ko'kragiga kalla qo'yib yiqitdi, qozi yiqilgan joyida baqirib buyurardi:

— Hoziroq bosinglar! Muhsinboy, siz ham qarab tur-mang! Bosinglar, hammangizning jinoyatingiz bosiladi — hujjatni olsanglar!

Bu gapdan dalda olgan Guppi, Tarasha va mirshablar Nasriddinni o‘rab ola boshlashdi.

— Qo‘llaring kesiladi! Men o‘g‘ri pashshalarni o‘ldiryapman!

Nasriddinning bu xitobidan keyin to‘rtovlon ikkilanib to‘xtashdi. Qozi yana baqirdi:

— To‘rttovingizni ham jazoga tortaman! Asalni o‘g‘irlab, meni ham chalg‘itdilaring! O‘g‘ri qilaman hammangni!

Shundan keyin Guppi boshliq to‘rtovlon Nasriddinga yopishishdi. Nasriddin chap berib, belbog‘idan qam-chinini chiqardi-da, «Hoji Sattor!» deb chaqirdi.

Eshik tashqarisida turgan qozining chuhrasi yana bir siltanib tashlandi-da, qozixonaga, «shu yerdaman, Afandim!» degan qalandar kirib keldi.

— E-ha! — dedi Tarasha tishlarini g‘ijirlatib.

— Ushlanglar uni ham! — baqirdi qozi. — Gazan-daning basharasini ko‘raylik! Soqolini yulinglar!

Busiz ham Tarasha qalandarga bostirib kela boshla-gandi. Qalandar xuddi pastdan don hovuchlab olayot-gandek, Tarashani belbog‘idan ilib otdi. Tarasha orqa-orqa kelayotgan Nodir mirshabning ko‘kragiga o‘tirib qolib, ikkovi ag‘darildi.

— Xo‘sh! Kim yana basharamni ko‘rmoqchi? — so‘radi qalandar momaqaldiroqdek ovozda.

Qozixonada ana shu mojar bo‘lib turgan paytda eshik tashqarisida arang o‘ziga kelib, yana soqchilikdan o‘rin olgan qozining chuhrasida oldida uchta bashang kiyingan qilichdek yigitlar paydo bo‘ldi.

— Sabr qilinglar, boyvachchalar! — dedi chuhra ko‘krak kerishga bazo‘r kuch topib.

Lekin «boyvachcha»larning ikkitasi uni ikki tomo-nidan ushlab, indamay bir chekkaga tortdi, uchinchisi esa miyig‘ida kulgancha kirib ketdi.

Chuhra: «Hoy, musulmonlar!» deb og‘iz ochgandi: «Jim bo‘l, galvars! Bek hazratlari bu!» degan luqma unini o‘chirdi. Chuhra qo‘rqqanidan o‘tirib qoldi.



Ichkariga kirgan bek Nasriddinning xitobini takrorladi:

— E-ha! Jamoa jam-ku!  
Hamma ta'zimga bosh egdi.

Bek yig'ilganlarga bir-bir ko'z yugurtirdi-yu, qozining so'risiga o'tib suyandi-da, qo'llarini ko'kragiga chalishtirdi.

— Nasriddin Afandi, beri keling!

Bek shunday deb, «boshqalarni yo'qoting», ma'nosi-da qoziga iyak qoqdi.

— Boringlar, sal turib kelasizlar! Boringlar, chiqinglar! qozi qo'llarini silkita-silkita xonadagilarni quvib chiqardi.

— Nasriddin Afandim! — dedi bek kulgisini qovoq uyub yashirgancha. — Hurmatli qozikalonni avom xalq qatorida urib, quvib yurishingiz to'g'ri emas!

— Urganim yo'q. Hurmatli qozikalonga qo'l tekkizganim yo'q, — dedi darrov Nasriddin jilmaygancha tez-tez gapirib. — Mana, ishonmasangiz, o'zlaridan so'rang! Qozikalon, men sizga biron marta bo'lsin qo'l yugurtirdimmi?

— To'g'ri aytyaptilar! — dedi qozikalon yerga qarab.

— Ana, ko'rdingizmi?

Nasriddin jilmaygancha bekka termildi.

— Yaxshi! Yaxshi!

Bek endigi safar kulgisini yashirish va qozini mulzam qilmaslik uchun mo'ylovini qayta-qayta silashiga to'g'ri keldi.

— Yaxshi, — dedi u yana takrorlab. — Qozikalon! Bu ishinglar nimaligini yaxshi bilmayman-u, ammo shu bugundan ertaga o'tmasin!

— Xo'p bo'ladi, hazratim!

Hozir to'rt navkarni yuboraman. Nasriddin Afandimga qo'shing-da, bularning ko'ngillaridek ishni hal eting! Da'vogarni toptiring! Chuvalib ertaga o'tmasin! Men imom bilan... ihm... Baroqxonga so'z berganman.

— Xo'p bo'ladi, taqsir!

— Bozordagi ana u xotinning masalasi ne bo'ldi?

— Qochibdi shekilli, izlab topolmayotirmiz! — dedi qozi Nasriddinga bir qarab olib. — Hech yerda yo‘q! Lekin hamisha yodimda!

— Diqqatingizdan qochirmang!

Bek o‘rnidan turdi. Nasriddin bilan qozi ta‘zimda bosh egdilar.

— Ko‘chib o‘tish qachon endi? — so‘radi bek homiyona ohangda.

Nasriddin qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi:

— Xudo xohlasa yaqin kunlarda. Uy uchun ming tashakkur! Bugungi yordamingiz uchun ham.

Bek tashakkurlardan qochgandek eshik oldiga bordi. «Xayr, omon bo‘linglar!» dedi-da, chiqib eshikni yopdi.

Nasriddin bilan qozi bir-birlariga qarab qoldilar.

\* \* \*

Shu kuni kechqurun Laylakning oqsoqoli nafasi bo‘g‘ziga tiqilib, qishloq ahlini machitning oldiga to‘pladi. Shaharning qozikaloni, bekning to‘rtta navkari, bo‘zarib ketgan Muhsin guppi, hamishagidek jilmayib turuvchi Nasriddin Afandini hay‘atda ko‘rgan xalq hayron. Qozikalon xuddi bu ishlarni o‘zi uyushtirgandek, hamma narsaga bosh-qosh bo‘lib turardi.

Yig‘inning qanday o‘tganini batafsil gapirib, sizni zeriktirib o‘tirmaymiz. Shunisini aytib qo‘yaqolaylik-ki, bunaqasi kam bo‘ladi. Bu majlisdagi voqealarni qishloq ahlining ikki-uch avlodi gapirib yurgan. Birinchi avlodi kim qatnashgani-yu kim nimani deganiganicha, Muhsin guppidan kim qancha qarz-u qancha yerini undan o‘sha kuni qaytib olganigacha batafsil gapirishgan. Ikkinchi avlod faqat Nasriddin Afandi, Muhsin guppi va o‘qariqning umum jamoa mulki bo‘lganini eslashgan. Uchinchi, to‘rtinchi avlodlar esa faqat o‘qariqni xalqqa o‘tganini gapirishardi-yu, o‘sha majlisda Nasriddin Afandi ham qatnashgan deyishardi. Lekin bu o‘sha mashhur Nasriddinmi yoki boshqami — aniq bilisholmasdi. To‘g‘risini aytganda, o‘sha Nasriddin deyish ularga shakkoklikdek bo‘lib tuyula boshlagan.

Majlisdan keyin oradan ikki haftadan ko‘proq vaqt o‘tdi.

Muhsin guppi arig'idan hamda yarim qishloqning xo'jayinligidan ajralib, uydan ko'chaga chiqmay ko'kragini zaxga berib yotardi. Odamlar orasida Muhsin guppi ko'chib ketarmish degan gap ham oraladi. Ana shunday kunlarning birida uni Nasriddin chaqirib keldi.

— Ha?! — dedi Guppi o'qraygancha to'ng'illab.

— Muhsinboy, sizni ko'chib ketmoqchi deb eshitdim...

— Sizga nima?!

— Siz ko'chmang, chunki men ketyapman!

— Menga nima?!

— Shu bog'imni sotmoqchiman! Narxini ot bilan tuya qilib o'tirmayman. O'n-o'n besh tanga — yo'l xarajati chiqsa bas.

Muhsin guppining to'ngligiga darz ketdi. Lekin shu zahotiyoyq yana bir nayrang bo'lmasin deb boshqatdan qovoq uydi. Qora bulut orasidan bir mo'ralab yana yo'qolgan quyoshdek edi bu darz.

— Yo'q, astoydil gapiryapman! Guvohlar, oqsoqol ishtirokida tilxatminan bitiramiz.

Muhsin guppining yuzi yana jindek yorishdi. Bir nuqtaga tikilgan ko'zlari yana olma-kesak tera boshladi.

— Ihm, — dedi tomoq qirib orqasiga tisarilarkan. — Qani ichkariga kiring!

— Yo'q, — dedi Nasriddin, — hozir ikkimiz oqsoqolning yoniga birga boraylik. Guvohlar topaylik. Odamlar ikkimizni ko'rib yarashibdi deyishadi, gap-so'z kamayadi...

Muhsin guppi yalt etib qaradi. Shu soniyada u Nasriddin Afandining qanchalik bag'ri keng, ko'ngilchan odamligini ko'rdi. Uni juda yaxshi ko'rib ketmasa-da, gapiga kirsas obro' topishini tushundi.

— Nechuk qaytyapsiz? Shu yerda yashayvering!

— Endi, katta shaharga o'rgangan kishi qishloqda zerikarkan. Undan keyin ikkita jujuqni tashlab kelganimiz. Sog'indik!

— Shundaymi? Ha, nechchi pul deysiz endi hovlingizni?

— O‘n ikki tanga. O‘zingiz bilasiz, tagli-tugli odamlarning qo‘rg‘oni. Ko‘p fayzli joy.

— Yuring, — dedi Guppi battar sevinib. — O‘n besh tanga beraman.

Ikkovi yonma-yon oqsoqolnikiga qarab ketishdi.

Oradan yana ikki hafta o‘tgach, azonda Kumushkent darvozalaridan o‘ttiz-qirq kishilik karvon chiqdi. Boshqa yurtlarning savdogarlari o‘z vatanlariga qaytardilar. Ular orasida kumushkentlik faqat uch kishi bor edi. Nasriddin Afandi, xotini va qalandar. Qalandarning unga juda ixlos qo‘yib qolgani Nasriddinning o‘zi uchun ham kutilmagan voqea bo‘ldi. Birga olib ketishni, hamisha birga yurishni tavallo qildi. Yo‘q deyishga Nasriddinga imkon ham bermadi. Endi bu qalandarning Abdi oppoq ekanligini ochiq aytib qo‘ysak bo‘laveradi. Lekin hali ham libosni tashlamay, soqol yopishtirib yurgani uchun qalandar deyaverishga to‘g‘ri keladi. Karvondagilar ham qilich, kamonini ko‘rib uning qalandar emasligini tushunishardi-yu, ammo aslida kimligini bilishmasdi. To‘g‘risini aytganda, u Nasriddin Afandi bilan birga bo‘lmaganda xavfsirab, karvonga ham qo‘shmasdilar. Lekin keyinchalik ro‘y bergan bir voqea tufayli karvondagilar uni tavob qilishga ham rozi edilar. Ammo bu sal keyinroq sodir bo‘ldi.

— Endi qachon jandangizni yechasiz? — so‘radi Nasriddin Kumushkentdan xiyla uzoqlashishgach.

— Hali vaqt bor! — deb javob berdi qalandar atrofga sinchiklab tikilib.

— O‘zi nega kerak shu niqobingiz?

— Qilgan ishlarimning zahmi o‘g‘limga tegishi mumkin. Niqobimning esa farzandi yo‘q.

Qalandar kulib gapining davomini hazilga burgandek bo‘ldi.

— Niqobning mana shu otidan bo‘lak hech vaqosi yo‘q.

— Ot ham yigitga yordek gap. Yaxshi ot ekan!

— E, buni yuzta otga alishmayman! — Qalandar ot yolini mehr bilan siladi.

Shu bilan suhbat tugadi.

Kun tikkaga kelganda yo'l baland adirlar o'rtasiga tushdi. Bu paytda karvon shahardan ancha uzoqlab ketgandi. Odamlar olis safarda uchrashi mumkin xatarlar, qiyinchilik haqidagi xayollarga berilib, ham bir oz toliqib indamay yerga qarab ketishardi. Shuning uchun ham ikki tarafdagi adirga, ikki tarafdin chiqib kelgan yigirmatadan qirqta otliqni tezda ko'rishmadi ham. Bular qaroqchilar edi.

Qaroqchilar biri qiyqirib ishora bergandan so'ng ikkala to'da baravar qiyqirgancha, qilich va nayzalarini yalang'ochlab yopirilib kela boshladi.

Karvon tahlikaga tushdi. «Qurol shaylang!» «Saflan!» degan buyruqlar, «Voydod, kunimiz bitdi!» degan ayyuhannoslarga aralashib ketdi. Qurollanib jangga tashlangan besh-olti yigitni o'nta qaroqchi qurshab oldi. Qaroqchilarning qolgani karvonni o'rtaga olib, atrofda quzg'undek izg'isharkan, «hammang yerga yot», deb baqirishdi. Karvondagilarning aksari yerga yotib olishdi. Jang qilayotganlardan ikkitasigina uzoqroq urishishdi. Lekin hademay, ulardan ham biri yiqildi. Ikkinchisi esa qochdi. Qaroqchilar uni quvib, adir orqasida yo'qolib ketishdi-da, sal turib, tutolmay qaytib kelishdi.

To'daning boshlig'i Qosim qaroqchi edi. Qirq yoshlardagi, mosh-guruch soqolli bu kishining ko'zlaridan sovuq o'limning nuri taralib turardi.

— Hammang o'tir! Karvonboshi omonmi? — dedi u.

Yotganlar asta o'tirib oldilar. Karvonboshi: «Men!» deb ovoz berdi.

— Tur! Odamlaringni sanab chiq! Nechta qoldi, nechta qochdi?

Karvonboshi dag'-dag' titragancha tirik va o'liklarning aft-basharasiga qarab sanab chiqdi.

— Sohib! Ikki kishi qochibdi!

— Yaxshilab sana! Bir kishi qochgan chiqar?

Chunki bir kishi qochganini hamma ko'rgandi.

— Sohib, o'ttiz olti kishi edik, yigirma to'qqizta qolibmiz. Beshtasi o'lgan. Bir jurjonlik savdogar yigit-u bir qalandar qochibdi.

Qosim qaroqchi otda turgancha besh-o‘n qadam olis-  
lashdi-da, karvonboshini chaqirdi.

— Kim ozg‘in-u kim semiz? Nahang bormi? Xizmat  
qilsang omon qolasan!

Qosim qaroqchi nahang deb, mansabdor va juda  
katta zamindorlarni so‘ragandi.

— Sohib, jonim qo‘lingizda, nahang bor-yo‘qligini  
bilmadim. Bir zaifalik sayyoh bor, ikkinchisi — qalan-  
dar, qochibdi. Qolgani savdogar.

— Zaifalik? Qani u? Kim u?

— Nasriddin Afandi.

Qosim qaroqchining jag‘-paylari o‘ynab ketdi. Chun-  
ki u guvoh qoldirmoqchi emasdi.

— Unga ayt, tezroq ketsin!

— Sohib, menga ham ruxsat bering! Ularni obketay.

— Sen shoshma! Zaifalikni jo‘natgach, boshqalarni  
yechintir. Yalang‘och qo‘yib yuborarkan deb ayt!

O‘ttiz yoshlardagi qotma karvonboshi Nasriddindan  
bo‘lak hammani o‘ldirishmoqchi ekanini tushundi. Dod  
degancha Qosim qaroqchining uzangidagi oyog‘iga yopi-  
shib o‘pa boshladi.

Meni qo‘yib yuboring, sohib! Aytgan joyingizga boy-  
boy karvonlarni olib boraman! Itingiz bo‘laman!

Qosim qaroqchi turtib yuborgandi, u tizzalab qoldi.

— Sen avval Nasriddin Afandini jo‘nat, keyin  
gaplashamiz! — dedi Qosim qaroqchi va gapini ikki  
qildirmaslik uchun qilichini yarim sug‘urdi.

Karvonboshi garang ahvolda ko‘zlari bilan Nasrid-  
dinni izlay boshladi.

Shu soniyada qir tarafdan «Ey Qosim!» degan ovoz  
eshitildi. Hamma o‘sha tomon qaradi. Ikki yuz qadam-  
cha masofada, qirning tepasida qalandar turardi. Ko‘m-  
ko‘k osmon ostida uning qop-qora ot ustidagi gavdasi  
chizilgan suratga o‘xshardi.

— Ey Qosim! Agar bittasining tuki to‘kiladigan bo‘lsa  
soqolingni yulaman! Karvonni tashla-da, ket!

Shunday jimlik cho‘kdiki, qovjiragan o‘t-o‘lanlarning  
shamolda shitirlashi eshitildi. Esankirash tugagach.  
Qosim qaroqchi to‘dasiga ko‘z yugurtirib, kerakli

odamni topdi-da, bosh irg'adi. To'dadan olti kishi ajralib chiqib ot qo'yishdi.

— Tirik tutib kellaring marazni! — baqirdi Qosim.

Olti qaroqchi tepaga o'rlab yaqinlasharkanlar, qalandar ketma-ketiga kamondan ikki o'q uzib ulardan ikkitasini qulatdi-da, qir ortida yo'qoldi. To'rt qaroqchi uni quvib ketishdi.

Qosim ikki qurbonga zarracha ahamiyat bermadi. Qir tarafdan ko'zini uzmay turgan bandilarga o'zi murojaat etdi:

— Nasriddin Afandi! Siz hamma mol-mulkingizni olib bu yerdan keting! Qolganlar jami pulini, taqinchoq va erkatoshlarini<sup>1</sup> bir joyga to'plasinlar. Mo'yna, tikalarni<sup>2</sup> ikkinchi joyga!

Qosimning oldiga qop-qora, baland bo'yli qaroqchi yaqinlashdi. Bu qaroqchilarga kuni kecha qo'shilgan Ahmad tarasha edi.

— Sardor! Nasriddinga katta o'lpon olish mumkin! U bekning qadr doni.

— Sen qaydan bilasan?

— Og'iz-burun o'pishib suhbat qilganini o'zim ko'rganman.

— Yo'qol, Tarasha! Mening bek jig'iga tegadigan kuchim yo'q.

Tarasha hurkib nari ketdi. Nasriddin to'polonda sochilib ketgan buyumlarni to'plab, xotiniga suv-puv ichirib, o'ziga keltirib bo'lguncha xiyla vaqt o'tdi. Karvondagilar ham qo'rquvdan va jon shirinligidan asta-asta qaroqchining buyrug'ini bajarardilar.

— Ey Qosim!

Qaroqchi sapchib tushib, qir boshiga qaradi. U yerda xuddi boyagi-boyagidek, hech narsa bilmagandek qalandar turardi. Olti odamining bekordan-bekorga gumdon bo'lganini tushungan Qosim qaroqchining ko'zlari qinidan chiqib ketdi.

— Qosim, har bir yigitingga bir tilladan ol-da, karvonni tashlab ket!

<sup>1</sup> *Erkatosh* — qimmatbaho tosh.

<sup>2</sup> *Tika* — gazmol, mato.

— Kimsan sen, hoy? — so‘radi Qosim.

— Javonmardlardanman! Otim Hoji Sattor!

— Ey Hoji Sattor! — dedi g‘azablanib Qosim qaroqchi. — Axir men ham boylarni talayapman-ku! Javonmard bo‘lsang menga qo‘shil!

Ana shu gap-so‘z davomida vaziyatni to‘g‘ri tushungan Nasriddin ikki ot va bir tuyada asta jo‘nab qolgandi. Tarasha buni ko‘rdi-yu, yurak yutib gapirishga qo‘rqdi.

— Javonmard — xo‘rlangan, jabrlanganlarga yordam beradi. Bu so‘zni og‘zingga olma, qonxo‘r! Karvonni tashla-da, ket! — dedi qalandar.

Qosim qaroqchi titrab ketdi.

— Axir bular savdogarlar, odamlarni firib bilan bor bud-shudini qoqib oladi!

— Savdogarlar eng kerakli odamlar! Karvonni tashla-da, ket!

Qalandarning qayta-qayta: «Tashla-da, ket!» deya-yotgani dahshatli eshitilardi. Shu gaplar davomida u anchagina yaqinlashib qolgan edi.

— Ey Hoji Sattor! Senga joningni hadya qilaman. Shukur qil-da, yo‘qol! — dedi Qosim qaroqchi qalandarning mardligiga lol qolib va shu soniyada qir oshay deb qolgan Nasriddinga ko‘zi tushdi.

— Ey Qosim! Sen emas, men joningni hadya qilaman!

— Qaytarlaring! — Qosim qalandarning gapiga e‘tibor bermay Nasriddinni ko‘rsatdi.

Uch qaroqchi, jumladan Ahmad tarasha ham bu buyruqni bajarish uchun ot qo‘ydidilar. Qalandar ikki o‘q bilan ikkovini qulatdi, uchinchi — Ahmad tarasha qo‘rqib orqaga qaytdi. Yana qalandarning ovozi yangradi.

— Ey Qosim, sen emas, men joningni hadya qilyapman. Karvonni tashla-da, ket!

Qalandar shunday deb, so‘zining isboti uchun yana bir o‘q uzdi-da, Qosimning yoniga kelib to‘xtagan Ahmad tarashani ham yer tishlatdi.

Hamma sehrlanib qolgandek jim edi. Yuz qadamlarcha naridagi bitta odam o‘ttizta qaroqchining esini olib





qo‘ygandi. Bu yoqda karvon odamlari ham bosh ko‘tarib qolishini hisobga olish kerak edi.

Qosim qaroqchi sarosima ta‘sirida, cho‘kayotgan odam xasga yopishgandek bir qarorga keldi. Uning buyrug‘iga ko‘ra yigirmata qaroqchi tezlikda yoyiq bir safga tizilishib, har biri oldiga bittadan bandini «qalqon» qilishdi.

Mana shu voqeani kuzatib, odam odamdan naqadar farq qilishini yaqqol ko‘rish mumkin edi. Bir tomonda bir odam, o‘ttizta kallakesarni esankiratardi-yu, ikkinchi yoqda yigirmatasi misoli qo‘ydek indamay qalqon xizmatini o‘tardi.

Yigirmata tutqunni qalqon qilib olgan yigirma qaroqchi yoyilib qalandar turgan qirga o‘rlay boshlashdi. Ikkitadan odam mingan otlar qiynalib, qoqilib-surilib asta ko‘tarilishardi. Qalandar o‘rtaga tushib qolmaslik uchungina chekinarkan, bamaylixotirlik bilan kamondan avval qaroqchining otini yaralar, qaroqchi bilan uning bandisi yiqilgan zahotiyoyq qaroqchini gumdon qilardi. Uning xuddi g‘alla o‘rayotgan odamdek shoshilmay qarochilarni terishi — ularning battar es-hushlarini olardi. Lekin pastdagi qonxo‘r boshliqlaridan qo‘rqib qaroqchilar hamon tepaga o‘rlardilar.

To adirning tepasiga yetguncha qalandar qaroqchilardan besh kishini narigi dunyoga jo‘natdi. Tepaga chiqishgach, qaroqchilar oldilaridagi odamlarini misol qopdek itarib yuborib, qalandarni quvdilar. Ammo ikki odamni tepaga olib chiqib horganligini hisobga olmaganda ham ularning otlari bilan qalandarnikini tenglashtirib bo‘lmasdi. Qaroqchilarniki yer — qalandarniki osmon edi.

O‘lim poygasi bosh-olti yassi adirlarni ortda qoldirgach, qaroqchilarning qatori, avval uzun ipdek cho‘zildi. So‘ngroq esa bu ip bo‘linib-bo‘linib ketdi. Eng oldinda ketayotgan besh kishilik to‘da ancha dadillashib qochqinga yaqinlasha boshladi. Qalandarning o‘qi tamom bo‘lgan deb ishongan qaroqchilar qiyqirib otlariga dalda bera boshladilar.

To‘g‘rida o‘rtasini shamol o‘pirib darvozaga o‘xshatib qo‘ygan adir ko‘rindi. Qalandar bu o‘rtalikdan o‘tdi-

da, otini soʻlga burib tepalikka chiqa boshladi. Qaroqchilar ham endi oʻtdim deganlarida qalandarni birinchi boʻlib quvib ketgan toʻrtta sheriklarining jasadlarini koʻrdilar. Dahshatga tushib otlariga yanada qamchi urgandilar, oʻng tarafdagi tepalikdan hayqiriq eshitildi.

— Hoy, toʻxta!

Qaroqchilar ot tizginini tortib birin-sirin ovozga qarashdi. U yerda karvonda jangga tashlanib soʻng qochishga majbur boʻlgan jurjonlik savdogar yigit turardi. Qaroqchilar es-hushlarini yigʻib olguncha boʻlmay, savdogar yigit kamondan oʻq uzib, ulardan birini qulattidi-da, yana moʻljal ola boshladi. Ular tezda orqaga burilib, olisda qolib ketgan sheriklari tomon oshiqishdi. Lekin bu ham ikkinchi moʻljalning jonini saqlab qololmadi. To oʻrtalikdan chiqqunlaricha toʻdadan ikki kishigina omon qoldi. Chunki soʻl tarafga chiqib olgan qalandar ham kamonini ishga solgandi.

Bir tomondan savdogar yigit, ikkinchi tomondan qalandar tushib kelib qaroqchilarning ortidan ot qoʻyishdi. Tepalikdan turib ular faqat toʻrt kishilik toʻdagina yaqinlashib kelayotganini koʻrishgandi.

Ikkita qochqin, toʻrtta quvib kelayotgan sheriklari birlashib toʻxtashdi. Qaroqchi, oʻgʻri zotining feʻli shu. Oʻljaning oʻzidan juda kuchsizligiga amin boʻlmaguncha tashlanmaydi, qoʻrqadi.

Oltovlon boʻlishgach, qaroqchilar quvib kelayotganlar orqaga qochadi deb oʻylashdi. Lekin qalandar bilan savdogar otlarini yeldirganicha yaqinlashib, ikkitasini kamondan qulatdilar-da, toʻrtta qolgani bilan qilich solishdi. Qaroqchilar bundan bir oz sevinib, darrov ikkiga boʻlinishdi. Ularni shuncha bezor qilgan bu kimsalar bilan toʻrtga ikki boʻlib yuzma-yuz kelganlariga xursand edilar. Biroq qaroqchilar qilich solishni yoʻl-yoʻlakay oʻrgangan edilar. Qalandar bilan savdogar esa maktab koʻrgan qilichbozlar edi. Jang uzoqqa choʻzilmadi. Qaroqchilarning uchtasi yiqildi, biri tumtaraqay qochdi.

Qalandar uni atayin oʻldirmadi. Chunki jonholatda qochayotgan qaroqchi yakkam-dukkan yaqinlashayotgan sheriklarini ham oʻz vahimasi bilan orqaga sudrab ketdi.

Qalandar bilan savdogar yigit otlariga dam berish uchun asta yoʻrtib ularning izlaridan borishardi.

Yigirmata yigitidan yettitasinigina, boz ustiga dagʻ-dagʻ titrayotgan yigitlarini koʻrib, Qosim qaroqchi birinchi marta tahlikaga tushdi. Tilla pul va erkatoshlar tugilgan roʻmolni oʻzi koʻtardi. Gazmol va moʻynalar ortib qoʻygan tuyani haydagancha endi yoʻlga tushmoqchi edi, qir boshida ikkita otliq koʻrindi. Ikkinchisining qaerdan qoʻshilib qolganligidan bexabar Qosimning tahlikasi zoʻraydi.

— Ey javonmard Hoji Sattor! Bas, sen zoʻr kelding! Men ketaman! — deb baqirdi u.

— Ey Qosim! — dedi javoban Qalandar, yerga kirgizvoradigan vazminlik bilan. — Men senga joningni hadya qilaman! Soʻnggi marta! Tashla-da, ket!

Qalandar kamonini ushlagancha asta tusha boshladi. Savdogarning otiga ishonmagani uchun uni tepada qoldirgandi.

— Yaxshi! Yaxshi!

Qosim qaroqchi jonholatda shunday deb baqirarkan, roʻmol ichidan mushtdek hamyoncha chiqardi.

— Mana! Shuni oldim xolos!

Qaroqchi roʻmolni gursillatib pastga tashladi-da, otiga qamchi urib Kumushkent tomon haydadi. Qolganlar ham shoshib-pishib unga ergashdi.

Qaroqchilar uzoqlashgach, karvon ahli birdan ohvohga tushdi. Kimdir boya otdan yiqilganda lat yegani uchun yigʻlar, kimdir omon qolgani uchun. Hatto koʻpni koʻrgan yoshi ulugʻlar ham namlangan koʻzlarini artardilar.

Savdogarni koʻz-quloq boʻlish uchun tepada qol-dirib, oʻzi pastga tushgan Qalandarning etagini hamma kelib oʻpmoqchi boʻlardi.

Bir ozdan keyin, koʻzlariga koʻrinib turgan oʻlim chekingach, karvon ahli bir boʻlib moliga yopishdi. Tangalar, gazmollar ega-egasini topdi. Qosim qaroqchi olib ketgan hamyon egasiga hammadan badal olindi. Qalandarga ham hamma badal berdi. Bir zumning oʻzida qalandar eng boy odamga va karvonning hokimiga aylandi.



Bu ishlar bitgach, qalandar besh-olti kishini kamon o'qlarini yig'ib-terishga jo'natdi. Boya, Qosim qaroqchining oldida o'q yegan Ahmad tarasha yuztuban yotardi. O'ng ko'kragiga sanchilib turgan o'qni sug'u-rishganda uning ingragani eshitildi. Qalandar Ahmad tarashani yelkasidan ushlab osmonga qaratdi.

— Suv, — dedi Tarasha ma'nisiz ko'zlarini ustidagi qoraga tanimay tikib.

Qalandar unga meshning og'zini tutdi. Labiga suv tekkan zahoti Tarashaning ko'zlari qotdi.

— Tanirmidingiz? — so'radi qaladarning oldiga kelgan karvonboshi.

— Dunyoga har xil odam kelib ketarkan, — dedi qalandar unga javoban.

Karvonboshi unga yuvib tozalangan bir dasta o'q tutdi. Qalandar ularni sadog'iga soldi.

Qir ortida karvonni Nasriddin kutib turardi.

— Ketib to'g'ri qildingiz, — dedi qalandar. — Aks holda sizni garovga olganda karvonni qoldirishimga to'g'ri kelardi.

— Angladim! — dedi Nasriddin ma'yus ohangda.

To'kilgan qonlarni, odam zotining qonxo'rligini ko'rganidan ruhi juda tushkun edi. Lekin qaladarni omon ko'rib, uning jasoratini eslab xiyla ochildi.

— Siz jumboq ekansiz! Tadbirkorligingiz lashkar-boshilikka loyiq! — dedi Nasriddin sinovchan tikilib.

— Menga odam zoti yoqmaydi, Afandim. Lashkar esa odam.

Qalandar yana «jinlar qo'zigan tun»dagi she'rini takrorladi.

*Soyamdan boshqa yor yo'q kimsadan kelgan kun g'am,  
Lek qorong'u tunlarimga qilmag'ay toqat u ham.*

— Odam yoqmay, shuncha odamning jonini saqlab qoldingiz, sizni Xudo yorlaqasin!

Nasriddin qo'lini qaladarning yelkasiga qo'ydi.

— Sizni esa Xudo yorlaqagan. Sizdan boshqa Odam ko'ramanmi, yo'qmi bu dunyoda?

Shu soʻzlarni aytayotib qalandar bir qoʻlini Nasridinning yelkasiga qoʻydi, ikkinchi qoʻli bilan yasama patak soqolini yulib oldi.

\* \* \*

Abdi oppoq koʻp davrlargacha Nasriddining yonida yurdi. Oradan bir necha yillar oʻtgach, Oʻrta Osiyoga Chingizxon galalari hujum qilishdi. Bogʻlar toptaldi, shaharlar yakson qilindi. Shu jumladan yarim dunyoning markazi boʻlib turgan Jurjon ham yer yuzidan batamom oʻchirib tashlandi. Olimlar, shoirlar, jamiki kitob koʻrgan kishilar qattiq taʼqibga uchradi.

Nasriddin Afandi Turkiyaga koʻchib oʻtdi. U bilan Abdi oppoq, Abdi oppoqning kattagina yigit boʻlib qolgan oʻgʻli ham birga ketdi.

ZOHIR A'LAM

**AFANDINING QIRQ BIR PASHSHAS'**

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent — 2006

Muharrir *G. Zokirova*  
Badiiy muharrir *B. Bobojonov*  
Rassom *O. Burxonov*  
Texnik muharrir *R. Boboxonova*

Terishga berildi 29.09.2005. Bosishga 22.11.2005 da ruxsat etildi.  
Bichimi 84x108<sup>1</sup>/<sub>32</sub>. Tayms garniturasi. Ofset bosma. Shartli bosma  
tabog'i 8,40. Nashriyot-h' tabog'i 7,57. Adadi 5000 nusxa. Buyurt-  
ma № 1892. Bahosi k an narxda.

h'iyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,  
700983, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41.